

Xodjaeva T.A.

PANJOB ADABIYOTI


o'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Xodjaeva T.A.

PANJOB ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA



Toshkent – 2014

UDK: 891.4
BBK: 83.3 (0) 9
X – 14

“Panjob adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi Shimoliy Hindiston adabiyotlaridan biri – panjob adabiyotining qadimgi davrlardan hozirgi zamongacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi va asosan, magistratura yo‘nalishida o‘rganiladi.

U O‘zbekiston bilan adabiy aloqalar rivojida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, 1958 yildan boshlab rivojlanib kelmoqda hamda panjob adabiyoti va madaniyatining milliy o‘ziga xosligini tushunib olishga yordam beruvchi birinchi qadam hisoblanadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan F-1-139 «Sharq xalqlari adabiyoti tarixi va janrlar tipologiyasi» nomli ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlandi.

Mas’ul muharrir: *f.f.n., dots. Muxibova U. U.*

Taqrizchilar: *prof. Mirkazimov S. M.*

f.f.n., dots. Muxibova U. U.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 4, 18.04.2014)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2014

KIRISH

PANJOB ADABIYOTINI O'RGANISH TARIXI

Ma'ruza maqsadi:

1. Panjob adabiyotini o'rganishda G'arb tadqiqotchilarining o'rni.
2. Rossiya va O'zbekistonda panjob adabiyotining o'rganilishi.

Tayanch iboralar: *Serampur missiyasi, Ludxiana missiyasi, «Adi Grantx», ingliz hindshunosligi, rus panjobshunosligi, Moxan Singx Devana, Gopal Singx Dard.*

Panjob tili va adabiyotini ilmiy o'rganishning dastlabki tajribalari Serampur va Ludxiana missiyasi faoliyati bilan bog'liq.

Boy materiallardan foydalangan kapitan D. Kanningxernning sanskrit tarixini o'rganishdagi o'ta muhim va jiddiy tadqiqotlarida, u panjob adabiyotida sikhizm bilan bog'liq bo'lgan bir qancha asarlarga shunchaki ta'rif berish bilan cheklanib qolmay, bir qator tarjimalardan parchalar ham keltirgan. Panjob adabiyotiga maxsus bag'ishlangan dastlabki ish 1854 yilda Bengaliyada Osiyo jurnalisti Dj. Abbat tomonidan chop ettirilgan. Tadqiqotchilar F.A. Stil va R.K. Gesipl xalq og'zaki ijodi – folklor yig'ishga katta e'tibor berganlar, biroq ular ba'zan muallifi bor asarlarni ham qo'shib yuborganlar, xususan, X. Shoxning «Sassi va Punnu» qissasi bunga misol bo'la oladi. Ularning ishlari nashrlarda alohida e'lon qilingan va ulardan eng ko'p qiziqish uyg'otib, alohida ahamiyatga ega bo'lgani 1884-1900 yillarda R.K. Templ tomonidan nashr ettirilgan 3 tomlik panjob folkloridir.

Panjob adabiyotini o'rganishda taniqli filolog E. Trump tomonidan tarjima qilingan «Adi Grantx»¹ asarining ahamiyati katta. U tarjima bilan cheklanib qolmay, diniy, adabiy yodgorliklarni ham ta-dqiq etdi.

¹ Sikhizm dinining muqaddas kitobi.

1885 yilda Tornton «Panjob tili va folklori» maqolasini chop ettirdi. XX asr boshlarida M.A. Makolifning sikkizmning juda chuqur, boy, noyob manbalarga asoslangan sikklar dini haqidagi jiddiy tadqiqoti paydo bo'ldi. Birin-ketin X.A. Ruzom, Ch. Svinerton va boshqalarning folklor haqidagi ma'lumotlari nashr qilindi.

Taniqli olim Dj. Grirson «Adi Grantx» asarini panjob adabiyotining eng qadimgi ijod namunasi deb hisobladi. U panjobliklarning folklorini yuqori baholadi. Uning fikr-mulohazalari Evropa hindshunoslarining panjob adabiyotiga bo'lgan munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, ingliz hindshunoslari ilmga sezilarli miqdorda panjob xalq og'zaki ijodi va adabiyotining rivojlanishida yaxlit bir manzarani ko'rsatib bera olmadilar.

Evropa hindshunoslarining boshqa maktab vakillari ham panjob adabiyotiga e'tibor qaratdilar. E. Trumpdan tashqari, nemis hindshunoslari panjob adabiyotiga yuzaki qo'l urdilar. M. Vinternitts o'zining asosan, sanskrit va prakrit tilidagi madaniy yodgorliklarga bag'ishlangan hind adabiyoti tarixi haqidagi monumental ishida panjob adabiyotiga bir necha abzats ajratdi, xolos. Nemis hindshunosi G. Glazenakpaning Hindiston adabiyoti tarixi haqida yozilgan mashhur ishida panjob adabiyoti haqidagi qismini panjoblik filolog Banarasi Das yozgan.

Rus hindshunoslarining panjob adabiyotiga bo'lgan qiziqishi ham bir necha ishlarda ko'rindi. S.F. Oldenburgning panjob ertaklari to'plamiga yozgan taqrizini esa bu boradagi maxsus ish deb atasa bo'ladi. N.P. Minayev arxivida uning panjobliklar adabiyotiga maxsus qiziqishini tasdiqlovchi qo'lyozma materiallari bor.

XX asrning 20-yillarida Hindistondagi milliy ozodlik harakati tufayli Moskva, Sankt-Peterburg, Toshkent hindshunoslik markazlarida hind xalqining milliy madaniyatini chuqur o'rganish borasida katta burilish yuzaga keldi. Hind adabiyoti muammolarini o'rganishda, ayniqsa, panjob adabiyotida anchagina ishlar qilindi. Hindshunoslar ishida panjob adabiyotini ilk bor maxsus tilga olinishini biz

akademik A.P. Barannikovning Katta Sovet Entsiklopediyasining birinchi tomi nashri uchun yozilgan «Hind adabiyoti» maqolasida ko‘ramiz. Urushdan keyingi yillarda I.S.Rabinovich va N.I. Tolstoylarning panjob adabiyotini targ‘ib qilgan va alohida adiblarning ijodiga tavsif berilib, baho bergan bir qator maqolalari chop etildi. 1863 yilda I.D. Serebryakov o‘zining «Panjob adabiyoti» monografiyasini chop ettirdi.

1914 yilda panjoblik muallif panjob ma‘rifatparvarligining taniqli arbobi Budx Singxning panjob adabiyotini tarixiy jarayon yo‘nalishi bilan mutanosib holda bog‘lab, adabiyotshunoslikka oid birinchi ishi nashrdan chiqdi.

1914 yildan boshlab panjob adabiyotshunosligida o‘shish ko‘zga tashlandi. Panjob adabiyoti tarixi bilan bog‘liq masalasida qilingan ishlarning umumlashma tavsifiga e‘tibor berildi. Ayniqsa, Moxan Singx Devon, Gonay Singx Dardlarning tadqiqotlari qiziqarlidir.

O‘zbekistonda panjob adabiyoti bilan tanishish XX asrning 50-yillariga, ya‘ni jurnal va gazeta sahifalarida Toshkentda (1958 yil) bo‘lib o‘tgan Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining konferentsiyasiga bag‘ishlangan qator materiallar bosib chiqarilgan yillarga to‘g‘ri keldi. Hind yozuvchilari ichida panjob yozuvchilari ham bor edi. 50-yillarda taniqli panjob shoirasi Amrita Pritam she‘rlarining o‘zbek tilidagi tarjimai nashr qilindi. G.Singx, K.S. Duggal, B.Gargi, P.S.Safir va boshqa panjob so‘z san‘ati ustalarining asarlari «O‘zbekiston xotin-qizlari», «Sharq Yulduzi», «Zvezda Vostoka» va boshqa jurnallarda rus va o‘zbek tillarida chop etildi. 60-80 yillarda hindshunos T.A. Xodjaeva panjob adabiyoti masalalari, xususan, A. Pritam ijodi haqida qator maqolalar chop ettirdi. 1991 yil Dehlida uning panjob tilida «A. Pritam nasrchiligi» nomli monografiyasi va 2007 yil Toshkentda kengaytirilgan shaklda rus tilida «Xudojestvennaya proza A. Pritam» va 15 ta ilmiy maqolasi nashrdan chiqdi. O‘zbek-panjob madaniy va adabiy aloqalariga bag‘ishlangan monografiyasi 2012 yilda nashr qilindi: «O‘zbek-hind madaniy, adabiy aloqalari tarixidan», «Pendjabskaya literatura». –T.: 2007.

Nazorat uchun savollar:

1. Sikkizm tadqiqotini ilk bor kim boshlab bergan?
2. Panjob adabiyoti haqidagi birinchi ish qachon, kim tomonidan nashr qilingan?
3. G'arbda panjob folklori tadqiqotlari qachon boshlangan?
4. Qaysi Hindshunos panjobshunoslikning shakllanishiga imkon yaratdi?
5. Panjobning O'zbekistonda o'rganilishi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Panjob va panjob adabiyoti.
2. Adabiyotga bo'lgan qiziqish va birinchi izlanishlar.
3. Rus hindshunoslari va panjob adabiyoti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рейснер Н.М. Народные движения в Индии в XVII-XVIII вв. –М., 1961.
2. Новая история Индии. –М., 1961.
3. Ольденбург С.Ф. Новый сборник сказок из северной Индии // ж. Просвещение. –М., 1893, №9.
4. Серебряков И.Д. Пенджабская литература. –М., 1963.

Panjob adabiyotini davrlashtirish masalasi

I. Feodal davrigacha bo'lgan panjob adabiyoti (Milodiy VIII asrgacha). Panjob hududida yashovchi qabila va xalqlarning feodal munosabatlari. Folklorning qadimiy qatlamlari. Feodal eposining folklor asosida shakllanishi.

II. O'rta asr panjob adabiyoti.

1. Ilk o'rta asr adabiyoti. IX-XI asrlar.

Ilk feodal jamiyatning yemirilishi. Natxlarning ijtimoiy-diniy lirikasi. Varlar – feodal eposning asosiy janri sifatida. Lirik hamda epik o'lchovlarning funksional mustahkamlanishi. Asosiy poetik janrlarning vujudga kelishi. Islom dini ta'sirining ilk ko'rinishlari.

2. Rivojlangan o'rta asr adabiyoti. XII-XV asrlar.

Islom dini hukmronligining kuchayishi. Adabiyot va madaniyatda hind-musulmon sintezi (ularni umumlashma holda tekshirish). Panjob adabiyotida Fors va arab adabiyotidagi syujet, janr va poetik formalarning o'zlashtirilishi.

3. Oxirgi o'rta asr adabiyoti. XV asr o'rtalari, XVIII asrlar.

Mo'g'ullar davri. Panjob podshohligi va savdo-hunarmandchiligi qatlamlarining feodalizmga qarshi kuchli harakati. Panjobliklarning xalq sifatida o'z-o'zini anglashining adabiyotdagi ifodasi. (Gavind Singx va boshqalar) falsafiy lirika va qissachilik. Adabiyotda hajviy belgilarining paydo bo'lishi. Nasr.

III. Yangi davr panjob adabiyoti. XVIII asr – 1919 y.

1. Panjob milliy hokimiyatining kuchayishi va ingliz agresiyasiga qarshi kurash davri adabiyoti. XVIII asr o'rtalaridan XIX asrning 60-yillarigacha gumanizm va vatanparvarlik ruhidagi she'riyatning rivoji. Realizmning paydo bo'lishi.

2. 1860-1919 yillardagi milliy uyg'onish davri adabiyoti. Panjob adabiyotini xalq adabiyoti sifatida shakllanishining nihoyasiga yetishi. Milliy va Evropa an'alarining sintezi. Panjob adabiyotining Hindistonning boshqa adabiyotlari bilan bog'liqligi. She'riyat va nasrning rasmiylashuvi. Adabiyotda inqilob alomatlarining yuzaga kelishi.

IV. Zamonaviy panjob adabiyoti.

1. 1919-1947 yillarda mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar davri adabiyoti. Umummilliy ozodlik harakatining yuksalishida adabiyotning o'rni. Ommaning demokratik jonlanishi va taraqqiy-parvar fikrlar tarqalishining boshlanishi. Demokratik va inqilobiy adabiyotning rivojlanishi.

2. Mustaqil Hindistonda panjob adabiyotida (1947 yildan) realizmning asosiy ijodiy uslub sifatida tasdiqlanishi. Adabiy rivojlanishning kuchli zamonaviy harakatlar bilan bog'liqligi. Panjob adabiyotining mamlakatni milliy qayta qurish kurashlaridagi faol ishtiroki. Zamonaviy panjob adabiyotining milliy xarakteri.

I-MAVZU. IV-XIII ASRLARDA PANJOB ADABIYOTI

Ma'ruzaning maqsadi:

1. Panjob tarixi bilan tanishish.
2. Folklorning eng qadimiy madaniy yodgorliklari.
3. Natxlar harakati.
4. Varalar – epik hikoyalar.

Tayanch iboralar: folklor, qadimiy yodgorlik, natxlar, varalar, pir, lirika, xarappa madaniyati, ariy qabilalari, Brixatkatxa, roja Rasalu, lirik she'riyat (baraxmax), natxlar harakati, vara – epik poemalari, hind-musulmon sintezi.

Panjob besh daryo o'lkasi – beshta irmog'i bo'lgan: Rovi, Bias, Chinob, Jalam, Satlej – bu hududning nomini belgilab bergan. Panjobni Shimoli-Sharq va Shimoli-G'arbdan baland tog' tizmalari o'rab turadi. Janubi-G'arbdan esa Panjob yurti Pokiston bilan chegaradosh. Panjob Hindistonning narigi tarafidan Afg'onistonning Rodjas cho'llari bilan qo'shni, Sharqdan esa Uttar-Pradesh shtati bilan tutushgan. Panjob xalqi – panjobliklardir. Asosiy mashg'uloti qishloq xo'jaligi. Bu erda guruch, tariq, shakar qamish, paxta yetishtiriladi. Panjobliklarning ona tili – panjobiy, shuningdek, hindiy, urdu, ingliz tillari ham sezilarli darajada yoyilgan.

Panjob dunyoning eng qadimgi sivilizatsiya beshiklaridan biri bo'lgan. Eramizdan avvalgi IV ming yilliklardayoq, o'z ishlab chiqarish kuchlariga ega bo'lgan, rivojlanish va sinfijamiat tuzumiga ko'ra alohida ajralib turuvchi Xarappa madaniyati vujudga kelgan.

Bu yerda eramizdan avvalgi II ming yillikda ariylar deb ataluvchi qabilalar kelib o'rnamanganlar. Ular panjobning tub aholisi bilan aralashib, mamlakat rivojining yangi davrini boshlab berganlar. I asr oxirlarida qabila ittifoqlari tashkil topib, davlatlar vujudga kelgan. Ulardan biri Taksil davlati bo'lib, ishonchli ma'lumotlarga ko'ra hozirgi panjobliklarning ajdodlari madaniyati uning nomi bilan bog'liqdir.

Panjob juda ko'p o'z yeriga bo'lgan bosqinlarni boshidan kechirdi? Fors shohi Doroning yurishlari (er. Avv. V asr), butun Panjobni bosib o'tib, Mauriya imperiyasigacha borib yetgan A. Makedonskiy (er. avv. IV-II asrlar), Panjobni o'z imperiyasiga qo'shib olgan Gupta va Xarshilarning kelishi, xunlar bilan bo'lgan kurash, musulmon bosqinchilarga qarshi kurash, ingliz mustamlakachilariga qarshi chiqishlar va janglar.

Tarixiy rivojlanish xususiyatlari, tabiiy sharoitning o'ziga xosligi qabilalarning birlashishiga va o'z davlatini tuzgan bir butun xalq sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi.

Panjobliklarning mavjudligini dastlab yunon tarixchisi Arrian (95-175 yy.)ning epik hikoyalari uchramiz. A. Makedonskiyning Hindistonga qilgan safari haqida hikoya qilgan Arrian hindlarning xulq-atvori va udumlari haqida yozadi. Sanskrit va prakrit adabiyotining madaniy yodgorliklarining ba'zi ildizlarini Panjobdan izlash kerak, deb ko'rsatgan. Shunday yodgorliklardan biri bo'lgan qiziqarli ertak-epos «Brixat-katxa»dir (Katta hikoya – payshachida yozilgan bu asar zamonaviy panjobchanning dastlabki namunalari bo'lgan, deb taxmin qilinadi). Panjob ma'rifatparvarligining ko'zga ko'ringan arboblari bo'lgan Budx Singx tomonidan chop etilgan Panjob adabiyoti tarixi kitobi eramizning XI asri panjob adabiyotining boshlanishiga taalluqlidir. Panjob adabiyoti irmoqlari ko'hna qadimiylikka ega.

Panjob folklorining eng qadimiy yodgorliklaridan biri roja Rasalu haqidagi qissasidir. Panjob folklorida roja Rasalu nomi tilga olinmagan birorta janr yo'q. Ko'p asrlar mobaynida bu obraz atrofida turli davrlarda paydo bo'lgan son-sanoqsiz asarlar jamlanib, tobora mukammallashib bordi. Qissa bilan bog'liq bo'lgan voqealar IV-V asrlarga tegishli. Rasalu haqidagi qissadan panjob shoirlari ham foydalanishgan. Rasalu obrazi yorqin va xilma-xildir (u jangchi, o'spirin, ota). Adabiyotning barcha muhim shakl va janrlarining ibtidosi folklorda o'z aksini topgan. Xalq she'riyati janrlari hayotning o'zidan olib yaratilgan. Lirik she'riyat folklorda rivojlanadi va u o'z nomi bilan braxmax deb ataladi (panjob shoir-

lari hozirgi kunda ham o‘z asarlarini ana shu janrda yaratadi). Keyinroq pandraxtix – yarim oy, chaturdashi – o‘n to‘rt kunlik kabi janrlar paydo bo‘ldi. Yozuvning vujudga kelishi bilanoq, har bir yangi bandi alifboning keyingi harfiga muvofiq keladigan yangi lirik janr – poema paydo bo‘ldi.

Turli vaznlar ommaviy muhitning mahsuli bo‘lib, ular xalq she‘riyatida mustahkamlanib bordi: doxra – ikkilik, chaupai – to‘rtlik – xalq she‘riyatining eng ommabop va katta hajimli she‘r shakli.

Ritmlar (vazn) – old qo‘shimchani o‘ziga xos bo‘lgan muayyan emotsional holat bilan bog‘lanishi.

O‘lchov va old qo‘shimchalardan tashqari she‘rlarni qofiya bezab turadi (avval ancha yengil, keyin murakkablashib boradi).

Syujet (mavzu, mazmun) va obraz (qofiya, siymolar), ritm (vazn)lar va vazn (o‘lchov)lar – panjob xalq adabiyoti ana shu negizga asoslanib qurilgan va rivojlangan.

Rasalu qissasi keyinchalik, Hindistonda feodal munosabatlar shakllangan vaqtda yuzaga keldi. Feodalizmning yemirilish vaqti Xarshi imperiyasining halokati bilan boshlandi (VII asr o‘rtalari). Bu davrda xalqqa nisbatan zulm va ekspluatatsiya o‘zining yangi shaklini oldi va toqat qilib bo‘lmaydigan darajaga etdi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklar chuqurlashib, diniy-tabaqaviy qarshilikka aylandi (tabaqalanish ta‘qiqlangan edi).

Panjobda ko‘pgina qabilalar mavjud muxtoriyat (o‘z-o‘zini mustaqil boshqarish)ni saqlab qolganliklari bois ahvol og‘irlashib borardi. Ular muqarrar ravishda o‘z hukmronligini o‘rnatib, o‘zgalarni o‘ziga bo‘ysundirishga uringan feodallar bilan to‘qnashar edi. Qabilalarning bunday assimilyatsiya (singish, aralashib borish) jarayoni XV–XVI asrlarga borib tugadi. Bu o‘zgarishlarning barchasi adabiyotda o‘z aksini topdi. VIII–X asrlarda hind adabiyoti madaniy yodgorliklari ichida qiziqarlisi – natxlar harakati bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy, adabiy yodgorliklar (natx – homiy, himoyachi demakdir)dir. Bu ta‘limotda braxmanizm, buddizm, diniy-falsafiy ta‘lim va hinduizm xususiyatlari o‘zaro birlashib ket-

gan. Natxlar aql kuchiga ishonganlar. Tabaqalanishga, axloqiy va ruhiy parchalanishga qarshi chiqqanlar. Biroq, bu harakat yorqin tarzda ifodalangan individuallik (shaxsiyatparastlik) xarakteriga ega bo'lib, unda asketizm (tarkidunyochilik, zohidlik)ning turli ko'rinishdagi qahramonliklari yordamida jismoniy va ruhiy mukammallikka erishishga e'tibor qaratilgan. Bu ta'limot asoschisi – Gorakxnat (1989 y.).

Natxlar ilgari surgan g'oya panjob folklori va adabiyotida o'z aksini topgan, sadbxasha (adabiy tildagi) asarlar esa o'zida asl panjob adabiyotining dastlabki madaniy yodgorliklarini ifodalagan. Natx shoirlari ichida alohida o'rin tutgan ijodkor Charpatudir (890-990 yy.), uning asarlari 2, 4, 6 qatorlik aforizm (qisqa hikmatli so'z) shaklidagi chuqur ma'noli iboralardan iborat bo'lib, maqol va matallarga yaqin. Charpat o'z manfaatini ko'zlash, mulk hukmronligini keskin qoralaydi. Natxlar she'riyati katta umumhindiylilik ahamiyatga ega.

VIII-X asrlarda panjob adabiyotida epik poemalar – varalar ham paydo bo'lgan. Agar natxlar adabiyotda xalq tendentsiyalari (moyillik, intilish) bo'lsa, varalar uning aristokratik (zodagonlar) tuzumining namoyon bo'lishidir (unvonlar, musobaqalar, kurashlar, feodal muhit). Shunday varalardan biri mashhur Asradjdir. «Tunde asradj di var», varalarda ona yurtni tashqi dushmanlardan himoya qilish fikri ilgari surilgan, bu bejiz emas. Varalar vujudga kelgan vaqtda yurtga arablar bosqinchiligi tahdid solib turgan edi.

Agar natxlar she'riyati panjob adabiyotiga lirik ibtido va isyonkorlik ruhini olib kirgan bo'lsalar, varalar – vatanparvarlik g'oyasini ilgari surib, epik janr rivojini boshlab berdilar.

Varalar XIX asrgacha panjob poeziyasining asosiy janrlaridan biri bo'lib qoldi. VIII asr boshlarida Hindistonning musulmonlar tomonidan bosib olinishi bilan u erga yangi madaniyat kirib keldi. Bu – arab va fors madaniyati edi. Bu – Ro'dakiy, Beruniy, Firdavsiylar madaniyati edi. Bu madaniyatning ta'siri Hindistonda hanuz musulmon sintezi deb ataluvchi o'ziga xos ko'rinishni yuzaga keltirdi. Bu sintez jarayoni katta shov-shuvli voqealar bilan ajralib

turadi. Dahshatli xunrezliklar nafaqat o'zaro feodal urushlarga sabab bo'ldi, balki qator chet ellik bosqinchilar hujimi natijasida ro'y berdi (1236 yilda mo'g'ullar, 1292, 1296, 1299 va 1328-1329 yillarda Panjobda, 1397-1398 yillarda Temur bosqinchiligi). Bularning bari Panjob xalqi, qabilalar hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Xalq bosh egmadi, o'z yelkasidan Dehli sultonlari va hindiy rojalarini ag'darib tashlashga urindi.

Ratan Natx (1000-1120 yy.) ijodini adabiyotda hind-musulmon madaniy an'analari aralashuvining birinchi namoyandasi sifatida kiritish mumkin. Shuningdek, so'fiy shoir Shayx Farid Shakar Ganja ijodini ham (1173-1266 yy.). Uning «Nasihatnoma»si (panjob tilining o'rta asrlardagi adabiy lahjasi) va mo'ltan tilidagi ikki misralik she'rlari saqlanib qolgan.

Shoir o'zida so'fiylik she'riyati uslubiga ko'p jihatdan yaqin bo'lgan natxlar va bxaktilar ta'sir kuchini sezgan. So'fiylik ozodlikka faqat tangrini bilish orqali erishish mumkin, deb qaraydi, va unga erishish uchun darvesh bo'lish, ya'ni tarkidunyo qilish lozim. Ammo u yolg'iz o'zi mustaqil ravishda bu yo'lni bosib o'ta olmaydi. U murabbiyga – pirga o'xshash. U Allohga bo'lgan ishq tufayli barcha dunyoviy ne'matlardan voz kecha oladi. Ayni shu jihatdan so'fiylikning bxakti ta'limoti bilan umumiy tomonlari ko'p. Farid lirikasiga epik (biror xalqqa uning madaniyatiga oid) g'oyalar singdirilgan. Farid she'riyatida tasavvufiy-diniy qarashlari ta'siri ostida ko'proq o'z davrining eng muhim tomonlari yuzaga qalqib chiqqan. Uning tili sodda va ravon.

Nazorat uchun savollar:

1. Panjob qaysi davlat bilan chegaradosh?
2. Kim va qachon Panjobni bosib olgan?
3. Qachon qabila ittifoqlari va davlat vujudga kelgan?
4. Panjob adabiyoti qachon paydo bo'lgan?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Eng qadimgi madaniy yodgorliklarni aytib bering.
2. Natxlar adabiyoti va poema janri qachon vujudga kelgan?
3. Varalar – epik poemalarning xususiyatlari nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. О периодизации пенджабской литературы // Народы Азии и Африки, 1963. – №2.*
2. *Стихи пенджабских поэтов. – М., 1977.*
3. *Поэты Индии. – Т., 1958.*
4. *Серебряков И.Д. Пенджабская литература. – М., 1963.*

2-MAVZU. SIKXIZM VA «ADI GRANTX»

Ma'ruzaning maqsadi:

1. Sikxizm dinini o'rganish.
2. Guru Nanak asoschisi bilan.
3. Guru instituti.

Tayanch iboralar: Bxaktalar, sikxizm, Nanak Gurulari ta'limoti, «Adi Grantx», guru Arjun, «Bxai Gurdas», sikx jamiyati.

Dehli sultonligidagi xalq harakatlari haqidagi ma'lumotlar (XIII-XIV asrlar) bizning davrgacha faqat ba'zi yilnomalar orqali yetib kelgan. Dehli sultonligidagi xalq harakatlari munosabatlari bilan paydo bo'lgan ta'limot musulmon va hindu birlashish g'oyalari bilan farq qiladi. Gap shundaki, xalq o'z harakatlari orqali islomga – kelgindilar tomonidan zo'ravonlik yo'li bilan olib kiritilgan din sifatida; hinduizmga – xalq nafratini keltirib, tabaqalanish tartibini vujudga keltirgan din sifatida o'z noroziligini bildirdi va yer yuzida iloji bo'lmasa, hech bo'lmaganda osmonda hammani teng, barobar qila oladigan qandaydir o'zgacha «haqiqiy» dinni topishga urindilar. Shunday urinishlardan biri «xudo oldida hamma teng», degan g'oyani ilgari surgan bxakti (VII-VIII asrlarda paydo bo'lgan) harakatidir. Uning ikki yo'nalishi mavjud: konservatizm

(eskilikni yoqlash) va demokratiya (xalq bilan hamnafas bo'lish).

Konservatorlar hinduizmi butunligicha qayta tiklash tarafdori edilar (bu asosan, hind faylasuflari edi). Demokratik yo'nalishning yirik vakili Kabir edi (XV). Uning ta'limoti va ijodi panjob adabiyotining keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. U bradja yozgan (hozirgi zamonaviy hindiy tiliga asos bo'lgan lahjalardan biri).

Panjobliklar uning ijodini o'rta asrlar adabiyotining ajralmas qismi deb hisoblaydilar. Kabirning asarlari sikxlarning ilohiy «Adi Grantx» kitobiga kiritilgan. Uning ta'limotida qaysi dinga e'tiqod qilishdan qat'iy nazar, barchaga, har bir oddiy odamga barobar murojaat qilinadi. Xudo -- barcha jonli mavjudotda, tabiatning barcha ko'rinishlaridadir. Hamma Xudo oldida va bir-biri oldida barobar.

Kabir qo'shiqlarida ijtimoiy isyon jaranglaydi, garchi u diniy bo'yoqlarda berilgan bo'lsa-da, uning mulkiy hukmronlik va ijtimoiy tengsizlikni tanqid qiluvchi ovozi eshitilib turadi. Shu yo'l bilan u besh daryo oralig'i va Gang vohasida qismati og'ir bo'lgan xalqning kayfiyati, his-tuyg'ularini, orzu-armonlarini ifodalaydi. Aynan shu narsa uning mashhurligi va panjob adabiyotiga bo'lgan ta'sirini belgilab beradi. XV asr oxirida panjobda yangi din -- sikxizm yuzaga keldi va uning asoschisi Nanak edi (1469-1539). Mayda savdogarning o'g'li bo'lgan Nanak ko'p sayohat qilgan (Eron, Makka), fors, arab tillarini o'rgangan, Qur'oni Karimni o'qigan, so'fiylik ta'limotini o'rgangan. Uning Kabir bilan uchrashganligi haqida afsonalar mavjud. Bu uning ta'limotida asosan, Kabir g'oyalarini ilgari surganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Nanak ta'limoti -- hindu-musulmon madaniy sintezining o'ziga xos ko'rinishidir. Nanak veda va puralarning nufuzini rad etmagan holda, xudoning borligini inkor etadi. U birgina ilohiy ibtido -- haqiqat borligini va u olamning barcha xilma-xilliklarida bo'lishini ta'kidlaydi. Uning (ibtidoning) qarshisida hamma teng, insonlar orasida hech qanday -- na tabaqaviy, na ijtimoiy farq yo'q. Ko'ramizki, bu ta'limot Kabir ta'limotining davomidir. O'z g'oyalarini o'tkazish uchun Nanak jamoa tuzdi. Bu jamoa a'zolari

ustoz – guru (ya'ni Nanak) aytganidek, adolatli yashashga intilishlari kerak. Sikxlarning (sikx-o'quvchi) ko'p qismi djat qabilasidan chiqqan edi.

Nanak ta'limotining markazida savdo, hunarmandchilik yoki dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi shaxs – grixastxa – oila boshlig'i turadi. Qisqacha aytganda, ustoz ibodatlarida musulmon darveshlar ittifoqining ta'siri sezilarli bo'lgan. Uning ta'limoti hinduizm, islom va boshqa mazhab tariqatchilar ta'limoti o'rtasida o'zaro chatishuv (murosa) hisoblanadi. Nanak ishga, harakatga juda katta e'tibor berib, odamlarga ularning qilgan ishiga qarab baho beradi, shu bilan birga u hinduizmnning inson qismatini uning avvalgi yashab o'tgan hayotida qilgan yaxshi-yomon ishlariga qarab belgilashga ishonish kabi axloqiy tamoyilini saqlab qoladi. U islom va hinduizmnning barcha mayda guruh va mazhablarini birlashtirishga harakat qildi. Barcha yakka va yagona xudoga imon keltirishi kerak edi. Nanak ham barcha bxakta va so'fiylik oqimi vakillari singari o'z ta'limotini targ'ib qilishda xalqqa yaqin bo'lgan xalq tili va she'riyatidagi uslublardan foydalandi. U juda erta she'r yoza boshladi. Uning bir necha asarlarigina bizgacha etib kelgan: «Patti» (Alifbo), «Dakxni Omkar» (mistik mazmundagi bahs) – Gorakxnax bilan she'riy munozara, Charpat va boshqa natxlar bilan qator diniy mavzudagi asarlar («Asa di var» – Orzu qo'shig'i), «Baraxmax» (12 oy) dostoni¹.

«Baraxmax» poemasi Nanak she'riyatining badiiy qiymatini aniq ko'rsatib beruvchi asardir. 12 bandlik qismlardan iborat bo'lgan bu doston she'riy shakllar ichida eng mashhuridir. Poemada 12 banddan tashqari yana kirish va xotima bandlari ham bo'lishi mumkin.

Nank she'rlarida (Farid she'rlari singari) diniy mazmun orqali real hayot o'zining keskin qarama-qarshiliklari bilan yuzaga chiqadi. Uning asarlarida hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlarning hayotidan olingan obrazlarni topish mumkin. Ular panjob adabiyotiga yuksak falsafiy g'oyalarni olib kirganlar. Nanak asos solgan

1 Серебряков И.Д. Пенджабская литература. – М., 1961. 43-б.

an'analarni davom ettirgan barcha guru (ustoz)lar o'z ta'limotini targ'ib qilish uchun she'riyatdan foydalangan va xalq she'riyatining janrlari, o'lchov hamda obrazlariga murojaat etganlar.

XVI asr o'rtalarida birinchi sikh ustozlari ichida Arjun (1567-1606 yy.) siyosiy davlat arbobi va shoir sifatida alohida o'rin tutgan. U nanak ta'limotini universal deb hisoblagan. Arjun uning barcha asarlarini bir butun qilib yig'ishni buyurdi va «Adi Grantx»ga asos soldi. Bu kitobga Arjunning asarlari ham kiritilgan. «Adi Grantx» tuzilishini ko'zga ko'ringan shoir Bxai Gurdas amalga oshiradi. U 1604 yilda ish boshlab, 1661 yilda nihoyaga yetkazdi.

«Adi Grantx»ga nafaqat laxida, potxozari va malvai lahjalarini aks ettirgan o'rta asrlar panjobiy adabiyotini, balki sadx bxasha, bradj va avatxi lahjalaridagi asarlar ham kiritildi. «Adi Grantx»ning umumiy hajmi 16 ming qator. Kitobning katta qismi Nanak, Arjun, Omar Das, Ram Daslar ijodiga tegishli. Bundan tashqari Kabir, Nam Dev, Shayx Farid va boshqalar ijodi berilgan. «Adi Grantx»da asar joylashuvi ohang qatoriga, o'lchovi yoki mualliflik va mazmun xarakteriga qarab guruhlashtirilgan.

Asarlar ohang qatoriga qarab quyidagi tartibda berilgan: 1) chaupadi – to'rtlik; 2) ashtapadi – sakkizlik; 3) uzun she'rlar va poemalar; 4) chxant – oltilik; 5) qisqa she'rlar; 6) varalar va boshqalar.

«Adi Grantx»ning ahamiyati juda katta, chunki u butun panjob xalq adabiyotining paydo bo'lishi, tuzilishi, rivojlanish davrining yakunidir. U o'zida tilning standartlashuvi (bir qolipga solish) va umumxalq tiliga yaqinlashuvini ko'rsatadi. Asarda panjob xalq adabiyotida sodir bo'lgan rivojlanishning yakuniy xulosasi kiritildi va tarixiy taqdiri panjobliklar taqdiri bilan ko'pgina umumiyliklarga ega boshqa xalqlarning adabiyoti bilan o'zaro aloqalarini namoyon etadi. Bu xulosa yodgorlikning faqat g'oyaviy jarangida emas, balki she'riyatida ham ko'rinadi.

«Adi Grantx»ga kirgan asarlarning mualliflari – dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlardir. Ularning ijodi folklor bilan chambarchas bog'langan. Shundan ohang va o'lchovlarga juda boy.

Poetik janrlardan baraxmax, pandratitx va boshqalardan foydalanilgan. «Adi Grantx» yodgorligi bilan kafi janri ham paydo bo'ldi, «Adi Grantx»da keltirilgan bunday janrdagi asarlar eligiya mazmunini anglatuvchi asarlar edi. Panjob adabiyotida qadimdan ma'lum bo'lgan maxsus she'rlar tuzilishi – «sanoq» bandi va bayt – ikkilik bandi, qofiyali yoki ochiq qofiyadan foydalaniladi.

«Adi Grantx» o'zining butun mazmun-mohiyati bilan eng yuqori diniy-falsafiy fikr va g'oyalar faqatgina hind-musulmon teolog (din bo'yicha mutaxassis)larga tegishli bo'lmay, balki tikuvchi va ko'ncilarga ham xos bo'lishi mumkinligini isbotlab beradi.

XVIII asr oxirlariga borib sikhizm shunday kuchayib ketgan ediki, bu Dehlidagi mo'g'ul imperatorlariga juda katta tashvishlar keltirdi. Nanak ta'limoti izdoshlari tobora ko'payib boradi.

Sikh ustozlari yig'ilgan pul jamg'armalari va mo'g'ul hokimiyatidan olingan yerlardan foydalanish hisobiga o'zlari ham feodallarga aylanib bordilar.

Nazorat uchun savollar:

1. *Bxaktalarning ahamiyati.*
2. *Sikhizm nimani ifodalaydi?*
3. *Guru Nanak ta'limotining asosiy negizi nima?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *«Adi Grantx»ning tarixi va mazmuni*
2. *Nanakdan keyingi guru.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Семенова Н.И. История сикхского движения в Индии. – М., 1963.
2. Новая история Индии. – М., 1961.
3. Новейшая история Индии. – М., 1959.
4. Серебряков И.Д. Пенджабская литература. – М., 1963.

3-MAVZU. XVII ASRDA PANJOB ADABIYOTIDAGI NASR VA «QISSA» JANRI TARAQQIYOTI

Ma'ruzaning maqsadi::

1. G. Singx faoliyatini o'rganish.
2. «Qissa» janri taraqqiyoti.
3. XVII asr panjob adabiyotining rivojlanishi.

Tayanch iboralar: Gobind Singx, Dasama Grantx, Hofiz Barxudar, Damodar, qissa janri, satira, realistik yo'l, nasr, kxalsa, Ranjit Singx.

Gurular qudratining oshishi, ularning siyosatga faol ravishda aralashuvi mo'g'ul hoqonlarini xavotirga solib qo'ydi. Mo'g'ullarning sikkalar bilan bo'lgan birinchi harbiy to'qnashuvi sikkalarning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Ayniqsa, Avrangzeb hokimligi davrida kurash kuchaydi. Faqatgina sikkalarning 10-gurusi bo'lgan Gobind Singx (1660-1708 yy.) davriga kelib sikkaxizm qudratli kuchga aylandi va panjobliklar ingliz bosqinchilariga teng darajada qarshi turib berish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Avrangzebning shafqatsiz siyosati tufayli dehqon va hunarmandlar katta soliq va diniy siquvdan qutilish maqsadida sikkalar bayrog'i ostida birlashdilar.

G. Singx o'z atrofiga panjobliklarning barcha antifeodal kuchlarini birlashtirib, sikkalar jamiyatini diniy-ma'naviy va oqsuyaklarga xos bo'lgan hokimiyatga aylantirmoqchi bo'ldi. Shu yo'sinda «Adi Grantx» g'oyalari yangi yo'nalish oldi. Uning ta'limotida haqiqatni kuch bilan o'rnatish chaqirig'i jaranglaydi. U jamiyatni haqiqiy guru deb hisoblaydi. Uning badiiy adabiyoti va xatlari o'zining mazmun va shakli jihatidan panjob adabiyoti tarixida ajoyib sahifalarni ochdi. Gobindning barcha asarlari «Dasama Grantx» (10-guru kitobi) da yig'ilgan. Kitob o'zining ham g'oyaviy, ham janr turlari jihatidan rang-barangdir. Kitobga Gobindning avtobiografiyasi, ibodatga oid gimnlar, poemalar, she'rlar, folklor novellalari, yana G. Singxning fors tilidagi she'riy asarlari kiritilgan. Panjob tilidagi «Bxagavad-gita» tarjimai Gobind bilan bog'lanadi.

«Dasama Grantx»ning ahamiyati juda katta. U Panjob tarixining yangi bosqichini qayd etadi. Jamiyat tushunchasining shakllanishida adabiyot muhim omil bo'lib bordi. Ayni shu vaqtda Panjobda sikxlar, musulmonlar, hindlar adabiyoti tutashib, umumxalq adabiyotining bir butun oqimiga birlashdi.

«Bachittar natak»si avtobiografik poema o'zining g'oyasiga ko'ra «Dasama Grantx»da markaziy o'rinni egallaydi. «Natak» so'zi sanskritchada dramatik janrlardagi barcha asarlarni bildiradi va bu erda voqealar ahamiyatini alohida qayd etadi. Janr jihatidan bu epik asardir. Gobind hinduizmni qoralaydi va faqat Nanak ta'limotining haqqoniyligini isbot etadi. Biroq, u, mavjud ta'limotga o'z hurmatini ko'rsatadi. «Bachittar natak» – qadimiy va o'rta asr Hindiston madaniy yodgorliklarini chuqur bilgan mohir usta qo'li bilan yozilgan asar, davrning haqqoniy tasviridir.

G.Singxning Anandpurdagi qo'rg'oni shoirlarni o'ziga tortuvchi maskan bo'ldi. Ayni shu vaqtda «Adi Grandx»dan «Dasama Grantx»gacha X. Barxudar, Damodar, Sutra va boshqa shoirlar ijodi vujudga keldi.

Adabiyot bu davrda XIV-XVI asrlarda panjob xalqi bilan asimilyatsiyalashib ketgan turli qabila va xalqiar folklori hisobiga boyib borishda davom etdi. Bu boyish natijasida qissa (liro – epik poemalar) janri rivojlandi. Qissa – adabiy janr bo'lib, tarixiy voqealar haqqoniy yoki o'ylab chiqarilgan hodisalar asosida hikoya qilinadi. Unda syujet butunligi, psixologik analiz va kompozitsiya tuzilishi mos kelishi kerak. Panjob adabiyotidagi qissa janrida asosan turli qabilalarga mansub yigit va qiz sevgisi haqida hikoya qilinadi. Konflikt janr rejasi qolipiga ko'ra fojea bilan tugaydi. Biroq, sevishganlarning holati qabilalar o'rtasida o'zaro do'stlik va tinchlik munosabatlari o'rnatilishi zarur ekanligini ta'kidlovchi xulosalarni keltirib chiqaradi. Qissalarda qabilalar o'rtasidagi qator tafovutlari bilan birga, ijtimoiy tafovutlar ham berilgan, biroq asosiy e'tibor qahramonlarning fazilati, yaxshi ishlarini, xulq-atvorlarini ochib berishga qaratiladi.

Qissalar syujeti Panjobning o'zida tuzilgan yoki o'zga adabiyotlardan o'zlashtirilgan: (1) hind adabiyoti (Nal va Damayanti), (2) arab adabiyoti (Layli va Majnun), (3) fors-tojik adabiyoti (Farhod va Shirin). Qissa janri panjob adabiyotiga aynan «Dasama Grantx» asari orqali kirib keldi. Mualliflar ichida Damodar (1556-1605 yy.) va X. Barxudar (XVII asr) kabi shoirlar bo'lgan. «Xir va Ranjxa» qissasi Damodarga tegishli. Bu qissani yozish uchun shoir ma'lum bir an'nalarni hisobga olishiga to'g'ri kelgan. Ya'ni, qissa quyidagicha tuzilgan: xudolarga bag'ishlov, unda ishq-muhabbat tarannum etiladi, nima maqsadda yozilayotgan ko'rsatiladi, qahramon hayoti tasviri, qahramonlar uchrashuvi.

Damodar o'z qissasida xudolarga qilinadigan katta bag'ishlovdan voz kechadi. Keyin o'zi bayon qilgan voqealar haqqoniy ekanini yoza-di. Shoir sevgisi tufayli o'z yurti va diniy qonunlarga qarshi chiqqan jasur va ozod ayol obrazi – Xirni asar markaziga qo'yadi. Shoir tomonidan yaratilgan panjoblik ayolning romantik obrazi hali ham yashab kelmoqda. Damodar qissasining folklor variantida voqealar Makkaga haj qilish bilan tugatiladi. Asar tili juda jonli, kompozitsiyasi o'ta qiziqarli. Unda arab, fors tillaridan ularga panjobcha shakl berilgan holda keng foydalanilgan. Barcha obrazlar, badiiy syujet haqqoniy va XVI asr panjob turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq va Damodar panjob adabiyotida realizm belgilarining asoschisi, desa bo'ladi. XVII asrda panjob adabiyotida yana bir janr shakli paydo bo'ladi – hajviy asar – (satira) ning shakllanishi kuzatiladi. U eski xalq teatrining an'nalari asosida vujudga keldi. U o'z ibtidosini bozorlarda namoyish etilib, bexato mo'ljalga olinadigan masxara (qiziqchilik) maqollaridan boshladi.

Sutxra (1615-1670 yy.) sikkizimning qobiliyatli targ'ibotchilaridan hamda satirik shoirlardan biridir. Uning asarlari adabiyotda o'zining qonuniy o'rniga ega. U hinduizm qoidalariga va kohinlarga qarshi chiqadi. Islomni ham, hinduizumni ham yolg'on ta'limot deb hisoblaydi. U islom va hinduizmga xos bo'lgan zohidlik (asketizm)ni qoralaydi. U shohona udumlar ustidan kuladi. Sutxraning qisqa she'rlari maqol, matallarga o'xshaydi va ular qisqa bo'lishiga qaramay, aniq va juda chuqur ma'noga ega.

Bu davrda panjob adabiyotida nasr ham asta-sekin paydo bo'ldi. Uning rivojiga nima sabab bo'ldi? Sikx gurulari o'zlari va ularning hayoti haqidagi ma'lumotlarni saqlab, kelgusi avlodlarga etkazish uchun nasr qo'l urdilar. XVII asrning boshlaridayoq katta nasriy asarlar – biografik asar (djanamsakxi) paydo bo'ldi, unda she'riy to'qima kuchli edi. Chunki ular Nanak gurusi va boshqa gurular haqidagi qayta ishlangan folklor rivoyatlari edi. Mashhur sikx va davlat arboblari hayotnomasini yozish aynan ana shu «djanamsakxi»dan boshlangan – ular falsafiy va tarixiy nasrga asos soldilar. Shunday qilib, XVII asr panjob adabiyoti tarixida samarali asr bo'ldi. Ayni shu davrda adabiyotda nasrning, satira-ning ilk namunalari yaratildi. Gobind Singx. Damodar va Sutxralar ijodi panjob adabiyotining shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi.

XVII asr boshida antifeodal harakatlar kuchaydi. Ularning ta'sirida Gobind Singx sikxlarning mustaqil jamiyati «Kxalsa» (1699 y.)¹ paydo bo'lganligini e'lon qildi. Gobind tomonidan ekilgan urug' yaxshi mevalar berdi. Undan keyin kxalsalarning demokratlashuvi jarayoni davom etdi: ma'muriyat lavozimlari hunarmand va dehqonlarga bo'lib berildi. Antifeodal harakatlar-ning oldingi qatorida sikxlar turdilar.

Musulmon va hindu feodallari sikxlar bilan kurashish uchun birlashdi. XVIII asr boshlariga kelib, kxalsalar juda katta kuchga aylandi. XVIII asr o'rtalarida kxalsaga iste'dodli tashkilotchi Djassa Singx boshchilik qildi. U avval Amritsar, keyin Laxorni (afg'on hokimi Ahmad Shox Durraning vaqtida). Panjobning katta qismini mo'g'ullardan tortib oldi.

XVIII asr ikkinchi yarmida sikxlar davlati real kuchga aylandilar. Panjobning mashhur davlat arbobi Ranjit Singx (1780-1839 yy.) XIX asrning 20 yillarida butun mamlakatni o'z qo'l ostida birlashtirishning uddasidan chiqdi. Mamlakatda jiddiy ichki islohotlar o'tkazildi, doimiy kuchli armiya barpo etildi va bularning bari mamlakatning iqtisodiy o'sishga olib keldi.

R.Singx siyosatini qishloq va shahar aholisi qo'llab quvvatla-

1 Kxalsa – tarjimasida «chin», «asl», «pokiza». Sikxlar uchun sig'inish usuli, o'zi-ga xos bo'lgan qoidalar nizomi.

di. Bu panjobliklarning ma'naviy va siyosiy birlashishlariga, madaniyatning rivojlanishiga imkon yaratdi.

R. Singxdan keyin yirik feodallar o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaygan paytda Panjobda mustaqillikni saqlab qolish qiyinlashdi. Bu vaqtga kelib Bengaliyada mustahkamlanib olgan Ost-Hindiston kompaniyasi ancha kuchayib ketdi va Panjobni o'ziga bo'ysundirdi. 1849 yilda Panjob inglizlarning Hindistondagi qaram o'lkasiga aylandi. Panjobning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivoji yarim asr ichida 1849 yilgacha panjob xalqining kuchayib borgan birlashuv harakati bilan o'z yo'nalishida rivojlanib bordi. Bu jarayon madaniy taraqqiyotga ham ta'sir qildi. Bu vaqtda barcha sohalarda uning sezilarli darajada o'sishi kuzatildi. Bu taraqqiyot adabiyotga ham xos (XVIII asr o'rtalari XIX asr – Bulle Shox, Sayid Boris Shox, Hoshim Shox, Ahmad Yara, Najabat kabilar ijodi). Buning ahamiyati shundaki, bular panjob adabiy an'analari-ning tuzilishiga yakun yasab, milliy adabiyotga asos solishdi.

Bu davrda islomga zid bo'lgan turli oqimlarning kuchayishi kuzatildi, xususan, so'fiylik (VIII asrda vujudga kelgan tasavvufiy zohidlik yo'nalishi). So'fiylikning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Bulle Shox (1680-1752 yy.). U yaxshi ilm egasi edi. Otasi qalandarlar tashkiloti vakili edi. Shoir o'zini so'fiy deb bildi va past tabaqadan chiqqan ustozga shogird tutindi. Uning ijodi 150 ta she'r va bir necha dostonlardan (baraxmax va kafiy janridagi – ellegiya mazmunidagi asarlar) iborat. B. Shox she'riyati – o'ziga xos bo'lgan so'fiylik lirikasidir.

U o'z zamonasi haqida yozar ekan, haqsizlikdan azoblanadi, uning bunday tushkunlik kayfiyati bekorga emas. U Arangzeb, G. Singx va Nodir Shoxlarning zamondoshi edi. Panjob tilida she'r tuzilishi tarixida uning alohida o'rni bor. U barcha she'riy janrlarni ustalik bilan egallagan. Uning asarlarida arab, fors she'riyatining panjob she'riyati uslublari bilan jonli chatishuvi kuzatiladi. Panjob adabiyotida qofiya qadimdan ma'lum, ammo u Bulle Shox asarlarida yangi sifatni kasb etdi: u ichki qofiyadan keng foydalandi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Gobind Singxning ijodiy faoliyati kanday?*
2. *«Dasama Grantx»ning ahamiyati.*
3. *Qissa janrining paydo bo'lishi va shakllanishi.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Qissa janrining mualliflari.*
2. *Satira janrining tarixi*
3. *XVII asr nasriy janrlari taraqqiyoti.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. –М., 1985.*
2. *Серебряков И. Д. Пенджабская литература. –М., 1963.*
3. *Даршан Сингх, Олесь Бенюх. От Ганга до Днепра. –М., 1971.*

4-MAVZU. XVIII ASRDA LIRIK VA VATANPARVARLIK SHE'RIYATINING RIVOJLANISHI

Ma'ruza maqsadi:

1. Hofiz Barxudar ijodi.
2. V. Shoh poemasi.
3. «Sassi va Punnu» poemasi.

Tayanch iboralar: Qissa «Sassi va Punnu», «Mirza va Sohibon», «Xir va Randjxa», lirik poema, «Farhod va Shirin», «Soxni va Moxival», qahramonlik poemasi.

Hofiz Barxudar – XVII asrning atoqli epik asarlar muallifi, islomshunoslikka oid asarlar, «Yusuf va Zulayho», «Sassi va Punnu», «Mirza va Sohibon» kabi qissalar muallifidir. U xalq ijodining chuqur bilimdoni bo'lgan. Uning tili fors tilidan o'zlashtirilib, panjob xalq tiliga kirib kelgan so'zlarga juda boy.

«Mirza va Sohibon» – panjob xalqining sevgi haqidagi ajoyib

asarlaridan biridir. Shoir syujet bilangina qiziqib qolmasdan, qahramonlarning ichki dunyosiga kirib boradi. Syujetda fojeaning kuchaytirilishi ko'plab qissalarga xos bo'lgan chizgidir. Varalardan farqli (ular da ham o'lim voqeasi ko'p beriladi) bir-biriga yaqin va bir-birini yaxshi tushunuvchi odamlar taqdirini yoritishga qaratiladi. Panjob oilasining turmush tarzi, hayoti, qarashlari qissa mavzusining asosini tashkil etadi.

X. Barxudar tomonidan o'rnatilgan an'anani Voris Shox davom ettirdi. U 1765 yilda "Xir va Radjxa" qissasini yozdi. Shoir fors adabiyotining bilimdonlaridan bo'lgan. U Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston" qissalarini tilga oladi. Shu bilan birga, V. Shox hindi adabiyoti bilan ham juda yaxshi tanish edi. Uning ijodiy yo'nalishida bu adabiyot elementlari sezilib turadi. U o'z qahramonlari xarakterini berishda portretning mayda tafsilotlarigacha chizadi. U syujetga ba'zi o'zgartirishlar kiritish yo'lidan borib, hikoya qilish yo'li bilan katta haqiqatni ochib beradi. Asar oxirini xotirjamlik, beshikastlik bilan tugatmay, sevishtganlarning o'limi bilan yakunlaydi. V. Shox dostonida tabaqalanish va eski urf-odatlariga qarshi chiqish, turli fitna va pastkashliklar ustidan inson shaxsiy huquqlarini da'vo qilib chiqish kuzatiladi. V. Shohning Xir va Randja obrazlari yo'nalishi original va o'ziga xosdir. Damodar bilan V. Shoh bir narsada bir-birlarini takrorlaydilar. Xir – aktiv, Randjxa – passiv. V. Shoh har doim panjobliklarning hayotini haqqoniy tasvirlaydi. Ona yurtidagi voqealar va odamlar uni umumlashgan inson obrazini yaratishga undaydi. Lirik shoir Xoshim Shoh aynan shu an'anani davom ettirgan.

Hoshim Shoh fors, arab, hind tillarini bilgan. U panjob adabiyoti tarixida "Farhod va Shirin", "Sohni va Moxival", "Sassi va Punnu", "Layli va Majnun" lirik poemalarini yaratuvchisi sifatida nom qoldirdi. Bu asarlar syujetini u panjob adabiyoti hamda fors-tojik, arab adabiyotidan olgan. Hoshim Shohning ishqiy-falsafiy lirikasida ijtimoiy mavzular ham o'z aksini topgan. U 200 dan ortiq lirik she'r yozgan. So'fiy shoirlar o'z ishqiy she'rlarini Allohga, tangriga bag'ishlaganlar va bu so'fiylik ta'limotiga ko'ra

ishqi haqiqiy deb atalgan. Ammo Hoshim Shox ilohiy emas, balki insoniy ishqqa, yerdagi ishqqa katta e'tibor beradi. Insonning umumlashgan obrazini berishda esa u yanada ilgari qadam bosadi. U qahramonlarning ichki dunyosiga kirib borishga harakat qiladi. Kashmirliklar, sindxlar, buludjeylar, patanlar folklorida keng tarqalgan syujet asosida yozilgan "Sassi va Punnu" asari ayniqsa mashhurdir.

Doston uncha katta emas, kichik hajmda yozilgan. An'anaga ko'ra har bir to'rtlikning oxirgi qatorida shoirning ismi va taxallusi kiritilishi kerak. Hoshim ham shu an'anadan boradi, ammo shu yo'l bahonasida voqelikka o'z munosabatini bildiradi. Panjob adabiyotida ilk bor asar qahramoni – qizning ichki dunyosi ochib berilishiga e'tibor qaratiladi. Shoir mayda ikir-chikirlardan uzoq turadi, shu bois misraning chizilishi ham o'zgaradi. Uning misralari ortiqcha bo'yoqsiz, aniq qurilgan.

Lirik she'riyatning o'sishi bilan panjob adabiyotida vatanparvarlik ruhidagi she'riyat ham yuzaga keldi. Bu hol sikk davlatining ichki rivojlanish jarayoni va albatta, ingliz mustamlakachilari bilan kuchayib borayotgan to'qnashuvlar natijasidir (XVIII asr – XIX asr boshlari). Xalqning tuyg'ulari Shoh Muhammad (1780-1862 yy.) ijodida yorqin namoyon bo'ldi. Uning "Sikkxlarning inglizlar bilan kurashi" haqidagi qahramonlik dostoni 1845-1846 yillardagi birinchi ingliz-sikk urushiga bag'ishlangan. Poemaning adabiy-tarixiy ahamiyati katta. Birinchidan, Shoh Muhammad yuqori tabaqadagi loxar doirasiga yaqin bo'lgan. Ikkinchidan, bu panjob xalqining mustamlakachilariga qarshi kurashi tasvirlangan birinchi asar. U sikkxlarning mag'lubiyati sabablarini, sikk armiyasi ustida turgan odamlarning sotqinligi to'g'risida gapiradi. U Panjob yerlarini birlashtirgan R. Singx siyosatiga haqqoniy baho beradi. Poemada bo'lib o'tgan voqealar to'g'ri tasvirlangan. Panjob tarixining muhim tarixiy davrlari aks ettirilgan. Muhimi, u milliy ruhning namoyon bo'lishini va buning sabablarini ochib berishga harakat qilgan. Aynan shu narsa yangi davr panjob adabiyotining rivojlanishi uchun ekilgan chigit bo'ldi.

1849 yil 29 martda Panjob inglizlar egalik qilgan hududga qo'shib olindi. Ingliz bosqini Hindiston xalqlarining hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi, shu jumladan, madaniyatiga ham. Barcha rasmiy harakatlar, ya'ni Hindiston ommasini ma'rifatli qilish niqobi ostida tartib va qoidalar kiritish, har qanday qayta o'zgartirish – bularning barchasi milliylikni zaharlab, ingliz toj-taxti uchun itoatkor xizmatkorlar tarbiyalashga qaratilgan edi. Biroq, ingliz madaniyati bilan tanishuv, u orqali Yevropaning boshqa xalqlari madaniyatining kirib borishi, aniq fanlar muvaffaqiyatlari va ijtimoiy g'oyalarning kirib kelishi shubhasiz, hind ziyolilari uchun katta ijobiy maktab bo'ldi. Mamlakatdagi kolonial vaziyatning o'zi hind ziyolilarini Yevropa madaniyatining progressiv taraqqiy etgan tomonlarini o'rganishga turtki bo'ldi.

Bengaliyaliklar ingliz adabiyoti muvaffaqiyatlarini, yutuqlarini adabiyotning bevosita tarjimai orqali o'zlashtirgan bo'lsalar, panjobliklar adabiyotning ko'p namunalari bilan urdu va hind tillaridagi tarjimalaridan o'zlashtirdilar. Ingliz mustamlakachilari panjobliklarning milliy birligini yo'qotishga harakat qildilar. Ular Panjobni yigirmata knyazlikka bo'lib tashladilar.

Nazorat uchun savollar:

1. *X. Barxudar qaysi asarni yaratdi?*
2. *Voris Shoh dostonining ahamiyati.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Hoshim Shoh poetik dastxatining o'ziga xosligi.*
2. *Vatanparvarlik ruhidagi she'riyatning rivojlanish yo'llari.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. –М., 1985.*
2. *Серебряков И.Д Пенджабская литература. –М., 1963.*
3. *Семенова Н.И. История сикхского движения в Индии. –М., 1963.*

4. Рабинович И.С. Сорок веков Индийской литературы.
—М., 1961.

5-MAVZU. NAMDXARI SEKTASI (MAZHABI) (XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI — XIX ASR BIRINCHI YARMI)

Ma'ruza maqsadi:

1. Namdxari sektasining ahamiyati.
2. Sing Sabxa va uning faoliyati.

Tayanch iboralar: Din erkinligi, sardorlar, bsdilar, sikh zoda-gonlari, namdxari, nirankari, tabaqaviy-ijtimoiy tengsizlik, “Singx Sabxa” diniy jamoasi, sikhlar assotsiatsiasi, adabiy yodgorliklar, jatlar.

Mustaqil sikh davlati mavjud bo‘lgan davrda (1765-1849 yy.) Panjobda diniy tabaqalanish bo‘lmagan. Xalqning asosiy qismi — musulmonlar, hindlar va sikhlar tashkil qilgan. Ranjit Singx boshqaruvi davri o‘zining diniy erkinligi bilan ajralib turgan. Aholi teng darajada xizmatga qabul qilinar edi. Sikh sardorlarining kuchayib ketishidan qo‘rqqan Ranjit Singx o‘zga din jamoalariga tegishli feodallardan madad kutgan.

Feodallashuv jarayoni yuz yillik vaqt oralig‘ida sodir bo‘lgan. Bu jarayon sikhizm ham o‘z aksini topgan. Sardorlar antifeodal yo‘nalishdagi tenglik g‘oyasi saqlanib qolishining tarafdori emas edilar va ular hinduizm udum va an‘analarini qayta tiklashga urindilar. Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarmida sikhizm bilan hinduizمنىing yaqinlashuvi sodir bo‘ldi.

Ma‘lumki, antifeodal harakatlar natijasida sikhlar orasida tabaqaviy farqlanish zaiflashdi. Biroq, yuqori feodal tabaqalarning jipslashuvi natijasida tabaqaviy tengsizlik kuchaydi. Shu bilan birga, yangi tabaqaga mansub guruhlar ajralib chiqib boshladi. Shunday qilib, asosiy o‘rinni bedillar oldilar (ular o‘z kelib chiqishlarini Nanakning ikkinchi o‘g‘li bilan bog‘laydilar). Ular katta yerlar-

ga ega bo'lib, ulardan keyin sidxular (jatlarning qismlari) keladi, ular ancha "olijanob" edilar (qimmatbaho kiyimlar kiyar, qizlarini o'zlaridan pastroq oilalarga uzatmas edilar). Harbiy yuqori tabaqa (sardorlar) esa boshqaruv lavozimlarini egallagan edilar. Sikxlarining urf-odatlarini o'zgartirdi. Sardorlar tabaqasini bildiruvchi belgi – nishonlar taqib yuradigan bo'ldilar, to'ylar, dafn marosimlari ularning ishtirokisiz o'tmas va bu marosimlar endi hinduizmdan andoza olgan edi. Oilada bola tug'ilganda ular munajjimlarga yulduzlar jadvalini tuzdirar edilar. Sikxlar orasida ba'zi badaviy, madaniyatdan yiroq odatlar qayta tiklandi. Ulardan biri sati odatidir. Shunday qilib, Randjit Singxdan (1839 y.) keyin Panjobda sardorlar o'limidan keyin ularning xotinlarini ham jasadga qo'shib yoquvchi marosim gulxanlari yoqiladi. Bedilar xuddi sikxlar singari yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarni o'ldirishga ham qo'l urdilar.

Ingliz bosqinchiligidan oldin sikxlar oliy vakillari faqat tashqi ko'rinishidagina dinga sodiq edilar (soqol, xanjarlar, bilaguzuk, taroq; salla esa alohida bir ko'rinish). Lekin ularning ibodatxonalarida "Adi Grantx" bilan barobar hindu ma'budlarining rasmlari paydo bo'ldi. Biroq, ilk gurularning antifeodal xarakterdagi diniy ta'limotini o'zida mujassamlantirgan, qadim ajdodlarning e'tiqod va an'analariga tayanishga chaqirgan demokratik qarashlar – nirankari va namdxari sektalari tomonidan hamon saqlanib kelayotgan edi. Bular XIX asrning 30-yillarida Shimoliy G'arbda vujudga keldi, uning tashkilotchisi Balak Singx (1799-1861 yy.) – do'kondor va uning shogirdi Ram Singx (duradgor oilasidan) adi. Ularning paydo bo'lishi feodal ekspluatatsiyasining kuchayishi sababli dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlarning qiynalishi bilan bog'liq. Ular har qanday tabaqalanish, tengsizlikni qoralaydilar. Ingliz bosqinidan keyin (1849 y.) bu tariqat ta'siri yanada o'sdi, ularning inglizlarga qarshi harakati kuchaydi – davlat tashkilotlariga qarshi baykot e'lon qilish, ingliz mollarini sotib olishdan bosh tortish boshlandi. Ular sikxizmdagi Nanak g'oyalarini ilgari surdi va kuch ishlatishga, zo'rvonlikka qarshi pozitsiyada turdi, shuning uchun ham ular kolonial hukumatga qarshi har qanday faol

kurashni talab qilishmadi. Eng asosiy talab – eski sikh diniy urf-odatlarini qayta tiklash edi. Biroq, ularning ichida faol kurash tarafdorlari ham bor edilar. Namdxarilar musulmon dehqonlari bilan aloqa bog‘lash uchun harakat qilmadilar, ularning pand-nasihati sikhizmga qaratilgan edi, ya’ni bu ta’limot diniy-jamoa tashkilotchiligi bilan cheklangan edi. Ingliz ma’muriyati sikhlar va musulmonlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni kuchaytirish maqsadida musulmonlarga Amritsarda mol so‘yishga ruxsat berdi. Bu namdxarlarning g‘azabini uyg‘otdi va natijada sikh-musulmon qarama-qarshiligi kelib chiqdi. Bundan foydalangan kolonial hokimiyat namdxarilarni jazoladilar (1872 y.). Garchi sikhizmga demokratik oqim ancha kuchsizlanib kolgan bo‘lsa-da, hali davom etardi. Sikhizمنى qayta tiklanish uchun olib borgan harakati to‘xtamadi.

Sikh ziyolilari boshliqlari tomonidan kollej o‘qituvchilari, yozuvchilar, xodimlar o‘rtasida ijtimoiy-diniy islohatlar o‘tkazish maqsadida (1873 y.) “Singx Sabxa” uyushmasi tuzildi. Birinchi yig‘in 1873 yilda Amritsarda bo‘lib o‘tdi va uning asoschisi professor Gurmukx Singx edi. 1902 yilda barcha sikh tashkilotlari ustidan boshchilik qilgan “Xalsa devoni” nomli alohida tashkiloti tuzildi. “Xalsa Akbar” nomli gazeta chop etila boshladi. Maqsad: 1) sikh diniy ta’limotining dastlabki ko‘rinishini qayta tiklash (ibodatxona – diniy marosimlarning oddiyligi, har bir fuqaroning yaratuvchilik, ijodkorlik ishi bilan shug‘ullanishi zarurligi, tabaqaviy-guruhiy imtiyozlarini rad qilish; 2) ijtimoiy islohatlar – tashkilot azolari orasida ilmni targ‘ib qilish, tabaqaviy imtiyozlarga nisbatan keskin qarshilik qilish.

Biroq, bu sikhlar uyushmalari faqat qog‘ozdagina namdxarilarning davomchilari edi. Ularning tabaqaviy bo‘linishga qarshi kurashi mulkdor qatlamlar manfaatini himoya qilar, ular ijtimoiy tengsizlikka qarshi unchalik qarshilik ko‘rsatmasdi. Ingliz bosqinchiligidan avval singxlar, jatlar, dehqon (jat) edilar. “Yirik sikh feodallari ham jat edilar endi, vujudga kela boshlagan burjaziya – jatlar, davlat idoralarida esa eng past lavozimlarga hindu sado-

sudxo‘r vakillari olinar edi.

Inglizlar sikxlarning kuchayishidan cho‘chib, yangi qonun chiqarishga majbur bo‘ldilar. Bu qonunga asosan, yer mulkka ega bo‘lmagan tabaqalar (jatlar emas, jatlardan tashqari) hatto boy yoki sudxo‘r bo‘lishidan qat‘iy nazar yerga egalik qila olmaydilar. Tabaqaviy cheklanishga nisbatan norozilik, “Sing Sabxa”chilarning yuqori tabaqa va ular ega bo‘lgan imtiyozlarga qarshi keskin chiqishlariga sabab bo‘ldi.

Buning hammasi adabiy jarayonga katta ta‘sir ko‘rsatdi, sikxlar orasida ilm olish targ‘ib qilindi, adabiy yodgorliklar, uning qadimgi o‘choqlariga qayta-qayta murojaat etildi, panjob adabiy tilining sifatiga e‘tibor qaratildi. Bularning bari xalqning milliy o‘zligini anglashi va uning millat sifatida shakllanishi jarayonida sezilarli darajada aks etdi, shunga qaramay, panjob adabiy yodgorliklarini sikx ziyoiilari butun panjobliklarning emas, balki faqat sikxlarning mulki deb hisoblar, ya‘ni “Sing Sabxa” faoliyati hinduizmga qarshi va kuchli yo‘nalishga qadam bosdi.

“Singx Sabxa” harakati o‘z oldiga panjob tilida yangi o‘quv muassasalarini tashkil qilish vazifasini qo‘ydi (maktab, sud va boshqa muassasalar urdu tilida ish yuritir edi). 1892 yilda “Singx Sabxa” tomonidan maorif anjuman chaqirtirildi (doimiy) va panjob tilidagi Xalsa – kollej tashkil etildi. 20-yillarda bunday maktab va kollejlarda rivojlandi. Sikx burjuaziyasi, mayda-o‘rta yer egalari hindu vakillari bilan keskin qarama-qarshilikni juda yaxshi sezishar, shu sababli kolonial hokimiyat bilan bo‘lgan kurash ikkinchi o‘ringa tushib qolgan edi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Ingliz bosqinchiligi arafasida sikx jamoasining o‘rni.*
2. *Namdxari sektasi paydo bo‘lishining sabablari.*
3. *Sekta uning maqsadi nimalardan iborat?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *“Singx Sabxa” ish faoliyati nimalardan iborat va u nimani o‘zida mujassamlantirgan?*
2. *“Singx Sabxa”ning maqsadi va vazifasi?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Новая история Индии. —М., 1962.*
2. *Семенова Н.И. Государство сикхов. —М., 1961.*
3. *Серебряков И.Д. Пенджабская литература. —М., 1963.*
4. *Семенова Н. И. История сикхского движения в Индии. —М., 1963.*

6-MAVZU. YANGI DAVR ROMANNAVISLIGINING SHAKLLANISHI (XIX ASRNING OXIRI)

Ma’ruza maqsadi:

1. XIX asrning ikkinchi yarmida Panjob adabiyoti.
2. Vir Singx va panjob tilidagi romannavislik.

Tayanch iboralar: “Arya Samadj”, sikh sektalari, diniy islohatlar, an’anaviy shoirlar, maqolanavislik rivoji, Vir Singx, “Sundari” romani, lirik she’riyat.

XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz mustamlakachilari panjobliklarning xalq birligini bartaraf etishga harakat qildilar. Panjob yigirmata knyazlik va hududlarga bo‘lmib, ular inglizlar tomonidan boshqarilar edi. Inglizlar sikh va hindlarni musulmonlarga qarshi qo‘yishdi, va turli diniy oqimlar faoliyatini kuchaytirishga ham urinishdi. Panjobliklarning ona tili ta’qiqlangan bo‘lib, o‘quv yurtlarida ingliz, fors va urdu tillarida dars olib borilar edi. Panjob ziyolilari ona tilidan foydalana olmas, bu esa panjob adabiyoti rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatar edi. Shuning uchun XIX asrning 50–60-yillarida Panjobda inglizlarga qarshi chiqishlar yuz berdi.

Bular ichida namdxarilar harakatining ahamiyati sezilarli (o‘ttizinchi yillarda yuzaga kelgan sikh sektasidan biri). Namd-

xarilar antifeodal dastur bilan chiqishdi va unda hamma uchun majburiy mehnat masalasi ilgari surildi.

60-yillarda bu sekta mamlakat hayotida muhim rol o'ynadi. Namdxarilar sikk diniy bayrog'i ostida yangi ozodlik kurashini kuchaytirib yubordilar. Bu kurash bostirilib, sektanint o'zi esa tormor qilindn, biroq shundan keyin sikk davlatini qayta tiklash g'oyasi yanada keng yoyildi.

Yangi tajribalarga suyanan holda oldingi g'oyalarga qaytish g'oyasi ko'plab diniy-islohat tashkilotlarining shioriga aylandi. Ana shunday tashkilotlardan biri "Arya-samanj" bo'lib, uning Panjob savdo-hunarmandchilik doiralari ta'siri shu qadar kuchli bo'ldiki, uning markazi Laxorga ko'chirildi.

Panjobda Sayd Ahmadxon boshchiligidagi musulmonlar harakati ham faollashdi. Amritsarda "Shri Guru Singx Sabxa" jamiyati paydo bo'ldi. Ular ko'pchilik diniy jamoalarni madaniy va siyosiy jihatdan qayta tiklashni maqsad qilib oldilar va diniy islohat o'tkazishni targ'ibot qildilar.

Panjob adabiyotining yangi davrdag taraqqiyoti ana shunday tashkilotlarning ta'siri ostida boshlandi.

O'tmishga qaytish targ'iboti xalq tarixi bilan bog'liqlikda, adabiy namunalarga murojaat etishda aks etdi. Shu nuqtai nazardan 1849 yilgacha butun adabiyotni an'ana sifatida qarab chiqish va yangi davr adabiyoti shu nuqtai nazardan ko'rib chiqilishi kerak edi.

Bu borada o'rta va qadimgi adabiyotdagi syujetlar asosida ijod qiluvchi an'anaviy shoirlar guruhi yuzaga keldi. Ular – qissaxonlar, ona tili durdonalarini saqlab qolishda muhim o'rin tutdilar. Ulardan Fozil Shoh, Maulvi, G'ulom Rasul, Hidoyatulla, Kalidas Gurdjanvaliya, Kishan Singx Orif ijodining ahamiyati katta. Biroq, ularning asarlarida o'tmish faqat xotirlash, eslash tariqasida beriladi va yangi zamonning dolzarb talablariga javob bermas edi.

U davrda bengal adabiyoti o'zining alohida o'rniga ega edi. Urdu adabiyoti rivojiga bir qancha panjoblik ijodkorlar o'z hissasini qo'shgan bo'lib, o'zining zamonaviy qirralarini namoyon

qila boshladi. Hindiy adabiyoti ham xuddi shu yo‘ldan bordi. Bu adabiyotlar Evropa adabiyoti yutuqlarini anglab, o‘zlashtirib, milliy adabiyotlarni uyg‘unlashtirdi. Muhimi milliy adabiyotlarda ijtimoiy muammolar olib chiqildi va ularning negizida xalq ozodligi uchun kurash g‘oyasi ilgari surildi. Bu borada hindiy tilidagi maqolanavislik rivoji topdi. Panjob xalq hayotida jamiyat va ijtimoiy rivojlanish jarayoni Hindiston xalqining siyosiy va milliy o‘zligini anglash, milliy ozodlik harakatlarining rivojlanishi, ularning hindiy, bengal, urdu adabiyotiga ta‘siri, XIX asr 90-yillarida panjob adabiyotida sezilarli burilish yasadi. Bu burilish ayniqsa, Vir Singx, Puran Singx, Dxani Ram Chatrik va Charan Singx Shaxidlar ijodida namoyon bo‘ldi.

Vir Singx (1872-1957 yy.)ning ota-onasi madaniyatli odamlar bo‘lib, panjob zodagonlardan edilar. Shoir qadimiy hind madaniyatini chuqur qadrlagan va unga nisbatan katta hurmat va ehtimomda bo‘lgan odamlar orasida o‘sib ulg‘aydi. U Amritsardagi missionerlik maktabini tugatdi. U erda ingliz tili va adabiyoti bilan tanishdi. U sikx matnlarini o‘rganish maqsadida tashkilot va nashriyot tipografiyasini ochadi, haftalik gazeta chop etdi. 90-yillarga kelib, Panjob madaniy hayotida ko‘zga ko‘ringan arbob bo‘lib etishdi. Uning asosiy faoliyati sikxizmni targ‘ib qilish bo‘ldi. U maqolanavislik bilan shug‘ullandi va nasrda o‘zini sinab ko‘rdi. Uning adabiy faoliyati: “Sundari”, “Bidjay Singx”, “Satvant Kaur” romanlaridir.

Panjob adabiyotida nasrning tug‘ilishi natxlar davriga to‘g‘ri keladi (VIII asr). „Djanamsakxi“ kabi madaniy yodgorliklar (XVII asr) tarixiy va falsafiy nasrga poydevor bo‘ldi. Uning rivojiga upanishadalardan panjobchaga o‘girilgan tarjimalar hamda turli sikx sektalari asarlarining ahamiyati katta bo‘lgan. Bu yodgorliklar nasr rivoji uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Vir Singx romanlari birinchi asarlardan hisoblanadi va proza janrida ularni panjob adabiyotining yangi davrdagi ilk qadamlari deb hisoblaydilar.

Roman syujetlari oddiy. Uning asosiy g‘oyasi sikxlar va sikxizmning axloqiy ustunligi va qudratini ko‘rsatish. “Bidjay Sin-

gx”da yosh hindu yigitning sikh qizga uylanishi hikoya qilinadi. Oqibatda yigit hinduizmdan voz kechib, sikhizmga yuzlanadi va Ram Lal ismini Bidjay Singxga almashtiradi. Voqealar XVIII asrda ro‘y beradi, biroq qahramonlar go‘yo real hayotdan tashqarida harakat qiladilar. Muallif qahramonlarini tasvirlashda an’anaviy usuldan foydalanadi: qahramonlarni ijobiy va salbiyga bo‘ladi. 20-yillarda u yana roman janriga murojaat qiladi va ijobiy qahramon obrazini yaratadi.

1921 yilda u “O‘z qo‘llari bilan yaratilgan baxt” romanini nashr qiladi (uning ikkinchi nomi “Bobo Naud Singx”). Roman-da dehqon taqdiri haqida hikoya qilinadi (50 bigx er egasi bo‘lgan odam). Romanda davr ta’siri sezilib turadi. Unda xalq ozodlik harakatining turli yo‘llari va ularning ijtimoiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Muallif Hindistondagi axloqiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni ochib beradi va ularga sikh nuqtai-nazaridan baho beradi. Asarning bosh qahramoni muallifning jarchisidir. U o‘ta ideallashtirilgan. Haqiqatan biroz uzoqlashtirilgan. Romanda syujet va kompozitsiya jihatidan kamchiliklarga duch kelinadi. Bundan tashqari u tugallanmagan. V. Singxning she’riyatga qo‘shgan hissasi – uch tomlik lirik she’rlar to‘plami “Gulchamb” (1921 y.), “Shiddat” (1922 y.), “Yashin shulasi” (1927 y.) – ijodkorning lirik shoir sifatidagi mahoratining isbotidir. Ohang va vazn nozikligini sezish, dunyoni o‘ziga xos ko‘ra olish tuyg‘usi, uning Panjobning birinchi shoiri unvoniga munosib bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Uning nasri sikhizmni targ‘ibot qilish bo‘lsa, lirikasi esa, o‘z dunyoqarashi bilan Nanak ta’limotini o‘zlashtirish edi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Yangi davr panjob adabiyoti qanday ta’sirda rivojlandi?*
2. *XLX asrning 80–90-yillarida panjob adabiyotida qanday jarayon yuz berdi?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Vir Singx asarlarining ahamiyati.*
2. *“Bidjay Singx” roman mavzusi va g‘oyasi.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Пенжабская литература. –М., 1963.*
2. *Рабинович И.С. Сорок веков Индийской литературы. –М., 1961.*
3. *Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. –М., 1985.*

7-MAVZU. XX ASRDA ZAMONAVIY PANJOB ROMANNAVISLIGI

Ma‘ruza maqsadi:

1. Eng yangi davr panjob romannavisligi.
2. Nanak Singx ijodi.
3. Gurbaxsh Singx jamoat arbobi, jurnalist va romannavis.

Tayanch iboralar: Zamonaviy roman, ayollarning teng huquqliligi, zo‘ravonlikka qarshi turish, ijtimoiy haqqoniylik, ramziylik yo‘nalishi, “Prit Lari”, “Prit Laxir”, “Eng yangi davr romani”.

XIX asrning oxirida vujudga kelgan panjob romannavisligining shakllanishi qator tarixiy voqealar sababli biroz to‘xtab qoldi. Atoqli tanqidchi P. Machvening “Panjob romanchiligining paydo bo‘lishi xuddi hindiy romanchiligi singari XIX asrning oxirgi yillariga to‘g‘ri keladi”, - deb ko‘rsatishi unchalik ham to‘g‘ri emas, zero hindiy tilidagi birinchi roman (“Tajriba – eng yaxshi ustoz” – Lala Shrinivasdas) 1882 yilda yozilgan bo‘lsa, panjobiyda (“Sundari” – Vir Singx) 1898 yilda, ya‘ni o‘n olti yildan keyin yaratildi. Albatta, bu unchalik katta farq emas, biroq bu haqiqat.

Panjob romanining otasi Bxash Vir Singx hisoblanadi. U shoir sifatida mashhur bo‘lsa-da, ko‘plab nasriy asarlar, jumladan, 4 ta roman: “Sundari”, “Vidjay Singx”, “Satvant Kaur” va “Baba Nau-dx Singx” asarlari muallifdir. Vir Singx romanlarigacha panjob

adabiyotida nasrda diqqatga sazovor badiiy asar yaratilmagan edi. Shuning uchun ham Vir Singx romanlari yangi davr panjob adabiyotida dastlabki qadam bo'ldi. Bxay Singxning barcha romanlari sikx jamiyati harakatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatish maqsadida yaratilgan. O'z asarlaridagi xarakterlarni ochib berishda muallif an'anaviy badiiy usullardan foydalanadi: xarakterlar biryozqlama, ideallashtirilgan va qahramonning ichki dunyosi deyarli ochilmagan. Bu nafaqat ilk panjob romanchiligidagi tipik ko'rinish, balki turli milliy adabiyotlarning ilk romanchiligidagi ko'rinishidir.

Panjob romanining rivoji bilan mavzular ham o'zgarib bordi. Agar Bxay Vir Singx diniy mavzuda yozgan bo'lsa, Nanak Singx ijtimoiy islohatlarni, Dasvant Singx Kambal – jamiyatni qayta qurish maqsadini ko'zsladi. “Shunday bo'lsa-da, hind adabiyotshunoslarining fikriga ko'ra, asrning birinchi yarmida panjob roman janri rivojida juda kam o'zgarish bo'ldi”¹. Gurbaxsh Singx “idealistik romantik”, - deya ta'rif bergan panjob romannavisligida ayollar obraziga nisbatan sentimentalizm kuchli bo'lgan va personajlar salbiy, ijobiy personajlarga bo'lib qo'yilgan.

30-yillarning boshida “Prit Laxir”² harakati vakillaridan biri bo'lgan Nanak Singx (1897 yilda tug'ilgan.), roman janriga murojaat qildi. Uning Vir Singxdan farqli, Nanak Singx o'z romanlari negizida zamonaviy Panjobning ijtimoiy muammolariga e'tibor qaratdi. Nanak Singx o'z romanlarida ayollar teng huquqliligini yoqlash, tabaqalashuv va qishloqlardagi sinfiy to'qnashuvlar kabi muammolarga asosiy e'tiborni qaratadi (“Oq qon” 1932 y., “Kambag'alning dunyosi” 1939 y., “Olis qirg'oq” 1946 y. va boshqalar). Bu muammolar Nanak Singx tomonidan qanday yechildi? Bu romanlarning birida Nanak Singx kuch ishlatmay o'z qarshiligini namoyon qilish, siyosiy guruhlarining o'zaro mafkuraviy kelishuvi orqali muammolarni hal qilish lozimligi g'oyasini ko'tarib chiqqan. Taniqli hindshunos olim I.D. Serebryakov N. Singxning ijodini ko'rib chiqib uning, panjob adabiyoti romannavisligi gullab-yashnashiga o'zining sezilarli hissasini qo'shganligini aytadi va uni

1 Ханс К. Обзор индийской литературы. Дели, 1973, 434-бет (хиндий тилида).

2 Bu harakatning maqsadi – ijtimoiy, madaniy harakat bilan xalqqa xizmat qilish.

zamonaviy panjob roman janri asoschilaridan biri deb hisoblaydi. Atoqli panjob yozuvchisi Gurbaxsh Singxning aytishicha, panjob adabiyotida “sotsialistik realizm” Sanat Singx Sekxning novellalari va “Qon va yer” romani bilan boshlanib, Surinder Singx Narulning “Xalq dushmani” (Lok dushman), “U va bu dunyo”, “Yurak ummoni” romanlarida davom etadi. Nasrda “sotsialistik realizm” oqimini (bir qancha shoshilinch ravishda) Hindistonning qator boshqa xalqlari adabiyotida ham ko‘ramiz. Shunday qilib, nasrda ramziylik yo‘nalishi Chalam orqali tanishtirilgan bo‘lsa, realistlik yo‘nalish Gopichand ko‘lami bilan hamohang bo‘ldi.

S.S. Sekxon, va S.S. Narullar realizmi va ijtimoiy voqelikni to‘g‘ri tahlil qila olganliklari va ularning roman yozishdagi texnik mahorati tanqidchilar tomonidan yuqori baholandi. Biroq, panjob kitobxonlari hali bunday romanlarni o‘qishga tayyor emas edi. Adabiyotdagi idealistik – ramziylik an‘anasi roman janrining rivojini qisib qo‘ygan edi, ikkinchi tomondan, u yuksak ramziy xarakterlarning yaratilishiga sabab bo‘lgan edi.

Zamonaviy panjob nasrining ilk vakili hisoblangan Gurbaxsh Singx (1892 yilda tug‘ilgan) nasrga o‘zining samarali hissasini qo‘shgan yozuvchilarning katta avlodiga mansubdir. Uning ijodiy faoliyati, “Prit Lari” jurnali nashrlarida tinimsiz ishtirok etishi, Panjobning “Pritam”, “Pxulvari” adabiy-badiiy jurnallari bilan hamkorligi va “Prit Laxir” harakatining ijtimoiy-madaniy hayotiga ta‘sirida namoyon bo‘ldi.

G.Singx ijodi, uning romanlari, hikoyalari, “Prit Lari” jurnali zamonaviy panjob nasrining rivojiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi, xalq hayoti bilan uzviy bog‘liqlikni ta‘minladi.

Gurbaxsh Singx – romannavis, novellist, “Radjkumari Latika” pesasi ham uning qalamiga mansub. U o‘z asarlarida hayotning asosiy muammolarini yoritishga harakat qildi va o‘zini oddiy xalq, ishchi va dehqonlar yozuvchisi deb bildi.

40-yillarda o‘zining hikoya va romanlari bilan tanilgan K.S. Duggalning ilk romanlari paydo bo‘ldi. K.S. Duggal romanlari mavzu jihatidan xilma-xil, badiiylik nuqtai nazaridan ham bir

xil emas, uning asosiy maqsadi – shaharlik o‘rta tabaqa sinflarining hayoti, ularning axloqiy qiymatini ochib berishdir. Uning sevgi haqidagi romanlarida Z.Freydning ta’siri sezilarli va bu ularni G‘arb adabiyoti bilan yaqinlashtiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. *XX asrning 30-yillarida panjob romannavisligida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?*
2. *Nanak Singxning eng mashhur romanlari.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Panjob nasri rivojida G. Singxning o‘rni.*
2. *S.S.Sekxon va S.S.Narula asarlari.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. –М., 1985.*
2. *Серебряков И.Д. Пенджабская литература. –М., 1963.*
3. *Нанак Сингх. Олтин ўқ. –Т., 1975.*

8-MAVZU. PANJOBNING BO‘LINISHI. XX ASR 40-YILLARIDAGI ADABIY JARAYON

Ma’ruza maqsadi:

1. Hindistonning bo‘linishi. Panjobning bo‘linishi.
2. XX asrning 40-yillarida adabiyotdagi asosiy muammolar.

Tayanch iboralar: Bo‘linish, siyosiy mustaqillik, Pokiston musulmonlari, hindular Hindistoni, nasriy janrlar, qisqa hikoyalar, xalq birligi, Yevropa novellasi, tanqidiy realizm, inqilobiy roman-tizm.

Ikkinchi jahon urushining qizg‘in pallasida. Unda 2,5 mln. hind harbiylari jang qildi shular orasida 700 ming panjobliklar ham bor edilar. Germaniya fashizmi va yapon imperialistlari ustidan qozonilgan g‘alaba Hindistonning ahvolini o‘zgartirmadi. Urush vaqtida ekspluatatsiya va siyosiy zulm yanada kuchaydi. Bunga javoban, kuchli chiqishlar va xalq ozodlik kurashi harakatlari kuchaydi. Siyosiy vaziyat kun-sayin chuqurlashib bordi. Qurolli kuchlar to‘lqini vujudga kelib, dehqonlarning chiqishlari ko‘paydi. Bunday vaziyat inglizlarning biroz yon bosishga majbur qildi va ular Hindistonga siyosiy mustaqillik berishga rozi bo‘ldilar, biroq ularning shartiga ko‘ra, Hindiston ikkiga, ya‘ni musulmon Pokistoni va hindular Hindistoniga bo‘linishi shart edi. 1947 yil 15 avgustda Hindiston mustaqil bo‘ldi. Yangi chegaralar Panjob bo‘ylab o‘tarkan, uning bir qismi Pokistonga, bir qismi Hindistonga o‘tib ketdi. Panjobda musulmon sikxlari va hindlar orasida qon-qardoshlik qirg‘inlari kuchayib ketdi. Panjobning har ikkala qismida og‘ir iqtisodiy vaziyat vujudga keldi. O‘z dindoshlariga intilgan ko‘p ming sonli odamlar Hindiston va Pokistondan oqib kela boshladilar. Mustamlakachilikning og‘ir asoratlari va bo‘linish oqibatlarini yo‘qotish lozim edi. Birinchi navbatda, feodal knyazligini bekor qilish, qishloq xo‘jaligi islohatlarini o‘tkazish, iqtisodiy rivojlanishni yo‘lga qo‘yish lozim edi. Bu ichki siyosiy muammolarga imperializmning kolonial sistemasi yemirilishi

bilan paydo bo'lgan keskin xalqaro muammolar ham qo'shildi. Bularning barisi panjob adabiyoti rivojiga, ayniqsa, uning g'oyaviy mavzusiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Panjob adabiyoti rivojining 1947 yildan 1960-yillarigacha bo'lgan davrida birinchi galda, nasr tezkorlik bilan rivojlandi, ayniqsa, qisqa hikoyalar, ular adabiyotga yangi mavzular – xalqaro birlik, ozodlik, ijtimoiy adolat, xalq madaniyati uchun kurash; adabiy janrlar rivoji, umumxalq demokratik yozuvchilar uyushmasi paydo bo'lishi, yozuvchilar tomonidan ularning gardaniga tushgan mas'uliyatni his qilish kabi g'oyalarni ilgari surdi. Bu yillarda qisqa hikoyalar janri rivojlandi va u har bir yangilikka o'z qarashlarini bildirdi, o'tkir ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqdi. Bu janrning asosiy rivoji Yevropa adabiyotining tanqidiy realizm yo'nalishidagi novellalarning eng yaxshi an'analari, shu jumladan, rus va o'z milliy an'analarni o'zlashtirganligidadir. Panjob adabiyotiga hindi, bengal, urdu adabiyotining ham ta'siri kuchli bo'ldi.

XX asrning 20–30-yillarida barcha Hindiston adabiyotida tanqidiy realizm o'rni barqarorlashdi. Tanqidiy realizm adabiyotning eng yuqori bosqichini Premchand va Thokur ijodi egallaydi. Bu yillarda ilk bor proletar adabiyoti chizgilari paydo bo'ldi (Vafo she'riyati, Gopal Xalidar va Yashpal romanlari), 40-yillar o'rtalarida hindiy adabiyotida eksperimentalizm (prayogvad) – yangi izlanish oqimi keng tarqaldi. Eksperimentalizm burjua individualizmining bir ko'rinishi edi. Bu yo'nalish tarafdorlari adabiyotni, san'atni ijtimoiy, siyosiy va etik g'oya va maqsaddan tozalashga urindi. Bu ijodning ma'no-mazmuni yozuvchining yangi izlanishlaridan iborat edi.

40-yillarning ikkinchi yarmidan ruhiy tushkunlik bilan ranglangan belgilar adabiyotga kirib keldi. Ularning namoyonligi turli-tumandir. Bu hol mustaqillikka erishilgandan keyingi dastlabki keskin g'oyaviy-badiiy tortishuvlar, kelishmovchiliklar kuchayishining muqaddimasi edi.

Lekin hind adabiyotining taraqqiyotiga tanqidiy realizm va inqilobiy romantizm yaqin turar edi. Reaksion guruhlarga esa

klassitsizm yaqin turar edi (poetik janrlarga xoslik), ular feodal va reaksiyon romantizm xarakteriga ega edi (soxta tarixiylik va mifologik drama).

Xalqaro vaziyatni ham hisobga olish lozim edi: imperializmning kolonial sistemasining yemirilishi, sotsialistik davlatlarning birlashishi.

Shunday qilib, 30–40-yillarda keng quloqch yozgan kolonializm sistemasi, barcha demokratik kuchlarning fashizmga qarshi birlashishi va reaksiyon kuchlarga qarshi olib borilgan kurash ham yozuvchilarning g'oyaviy shakllanishi uchun zamin yaratdi. Bu avlod oldida juda qiyin masalalar turar edi, ya'ni zamonaviy panjob adabiyotini shakllantirish, turli adabiy janrlarning rivoji va mukammallashuvi, panjob adabiyotining panjob xalqi hayotiga yaqinroq bo'lish. Mumtoz va zamonaviy ingliz adabiyoti, amerika va rus adabiyoti, freydizm, ko'plab madaniy va adabiy oqimlar (ekspressionizm, ekzistentsionalizm) 30-yillar yozuvchilari uchun badiiy vosita manbai bo'ldi. Hindiston adabiyotida izlanish va an'anaviylik bir-biriga qarama-qarshi bordi. 30-yillarda adabiyotda sotsialistik realizm tendensiyasi vujudga keldi.

30-yillar adabiyotida demokratik harakatning estetik negizi adabiyotda tanqidiy realizm uchun olib borilgan kurash uchun asos bo'ldi, uning g'oyaviy manbai ijtimoiy g'oyalar edi. 30-yillarda Hindistonda adabiyot va san'atning taraqqiyparvar mutafakkirlari oldiga o'z davrining talablarini amalda chuqur anglab etish, ayniqsa, Hindiston taraqqiyparvar yozuvchilar assotsiatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan – yangi sharoitda hind xalqining boy madaniy an'analari rivojlantirish, o'rta asrlarning diniy-falsafiy g'oyasini bartaraf qilish va boshqa mamlakatlarning eng yaxshi, eng ilg'or axloqiy g'oyalarini olib kirish shartlari qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. *Indistonning bo'linishining oqibatlari.*
2. *Bo'linishning Panjobning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *30-yillarda panjob adabiyotida yo'nalishlar rivoji?*
2. *40-yillardagi adabiy yo'nalishlar.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. –М., 1985.*
2. *Серебряков И.Д. Пенджабская литература. –М., 1963.*
3. *Чельшев Е.П. Культура, Мир, Прогресс. –Т., 1977.*

9-MAVZU. XX ASRNING 40-80-YILLARI SHOIRA, PROZAIK VA PUBLISIST A. PRITAMNING IJODIY FAOLIVATI

Ma'ruza maqsadi:

1. Amrita Pritam – atoqli panjob shoirasi, romanist va novellist.
2. Amrita Pritam ijodining asosiy mavzusi.
3. Ijodiy dastxatning o'ziga xosliklari

Tayanch iboralar:

40-yillarda Panjobning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida ma'rifiy g'oyalar boshqa shtatlarga nisbatan o'zgacha tarzda qiyin sharoitda shakllandi. 30-40-yillardagi xalqaro hayot muhim voqealarga to'la edi. 1928 yil kapitalizm tarixida qattiq inqiroz boshlandi. 1933 yilda Germaniyada fashizm hokimiyat tepasiga keldi, butun dunyoda antifashistik chiqishlar kuchaydi. 1934 yilda Parijda taraqqiyparvar yozuvchilar konferensiyasi bo'lib o'tdi. 1936 yilda Premchand boshchiligida hind taraqqiyparvar yozuvchilarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. 1939 yili ikkinchi jahon urushi boshlandi. Angliya Hindistonni urushga qatnashayotgan davlat, deb e'lon qildi va uning moddiy va odam resurslaridan fashistlar Germaniyasiga qarshi urushga ishtirok etmoqchi bo'ldi. Bu narsa hind jamiyatining turli qatlamlari orasida isyon harakatlarini keltirib chiqardi. Mamlakatda antiimperialistik harakatlarning yangi bosqichi vujudga keldi.

30-yillar yozuvchilar oldida davrning barcha murakkab muammolarni anglab yetish va o'z munosabatini to'g'ri aniqlab olish vazifasi turar edi. Panjob yozuvchilari o'zlarining orqada qolayotganliklarini anglab, Hindiston yozuvchilarining oldingi qatorida turishga qaror qildilar. Gurbaxsh Singxning iborasiga ko'ra "Ularning o'z ufq (gorizontlari)ni kengaytirishga imkoniyatlari bor edi, biroq tobora jadallashga vaqt etishmasdi". Bu dalillar 30-40-yillar panjob yozuvchilari ongining shakllanishiga olib keldi va ular orasida Amrita Pritam ham bor edi.

A. Pritam 1919 yil 31 avgustda Gurjranvalada tug'ildi. Unga Amrita ismini otasi Sardor Kartar Singx Xitkari berdi. U taniqli tarixchi – olim, shoir, sikh – diniy adabiyotining bilimdoni edi. Gurjranvalada kolleжда dars berar, “G'alaba jarangi” panjob adabiy jurnalida muharrirlik qilar edi. Ularning uyi panjob adabiyoti va tiliga oid kitoblarga to'la edi. U diniy she'rlar yozardi, avval sanskritda, brad'jbxashada, keyin panjobiyda. Aynan otasi o'z qizida she'riyatga muhabbat uyg'onishiga sababchi bo'ldi va ilk she'rlarini yozishida ustozlik qildi. I.D. Serebryakov shunday yozadi: “Panjobliklarning boy folklori, ularning qadimiy qissa va epik adabiy namunalari, g'amu quvonchlari, to'y-qo'shiqlari va raqslari, panjobliklarning barcha hayotiy kundalik turmush tarzi yoshligidan uning tasavvuriga singdirilgan edi”.

Shoira dunyoqarashining shakllanishi, va ijodida otasining o'rni katta ekanini doim ta'kidlagan. Amrita sikhizmning falsafiy an'analari ruhida tarbiyalangan (XVI-XVIII asrlarda panjob dehqon va hunarmandlari g'oyaviy yo'nalishi – sikhizm). Sikhizm bir xudolikni qabul qilgan, biroq uni jonlantirmagan va hinduizmning murakkab diniy marosimlariga qarshi chiqqan, odamlarning xudo oldida tengligi, xudoning barcha uchun bir ekanligi, tabaqalanish, feodal zulmga qarshi kurashish – sikhizm ta'limotining kuchli tomonlari edi. Shu bilan bir vaqtda sikhlar ijtimoiy haqsizlikka qarshi faqat tanqid bilan chiqishar edi.

Sikhizmda 3 ta muqaddas burch buyurilgan: “kxam: - karna” ya'ni, “mehnat qilish”, “vand chakxna”, ya'ni “o'z mehnati mevalarini o'zgalar bilan baham ko'rish”, “nam djakna” – “Ollohning nomini tilga olish” – bular asosiy negizdir.

Sikhslarning ilohiy kitobi bo'lmish “Adi Grantx” – XVII-XVIII asrlar panjob demokratik she'riyati antologiyasidir. Amrita “Adi Grantx”ni, o'z asarlarida panjob xalqining hinduizm va musulmon feodallariga qarshi kurashlarini tasvirlagan faylasuf olim Govind Singxning “10 guru haqidagi kitobi” asari va XVII-XVIII asrga oid ko'plab ajoyib she'riyatini, nozik satirasini, XIX asrning vatanparvarlik ruhidagi epik asarlarini o'rgandi. Bu boy adabiy

merosdan, ayniqsa, Kalidasa, Voris Shoh asarlari uni to'qlinlantirdi. A. Pritamning o'zi bu adiblar ijodining to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita ta'siri haqida gapirib o'tadi. O'z ijodi yo'lining boshida yozuvchi Thokur ijodi unga qattiq ta'sir ko'rsatdi.

A. Pritam onasidan erta judo bo'ldi va otasi tarbiyasida katta bo'ldi. Uning adabiyotga bo'lgan qiziqishi juda erta uyg'ondi: u o'zining ilk she'rini 11 yoshida yozdi.

U 16 yoshida turmushga chiqdi va o'sha 1935 yilda uning ilk to'plami "Sovuq shulalar" nashrdan chiqdi. 1936 yilda A. Pritamning navbatdagi to'plami "Amrita to'qlinlari" (yoki "Obi hayot to'qlinlari"), uning ortidan "Hayot" to'plami chop etildi. A. Pritamning dastlabki she'rlari diniy-ishqiy xarakterga ega bo'lib, uning is'tedodi shakllangan o'sha muhitga xos holat edi. Shoir a sikkizm harakatining tashkilotchisi guru Nanakni eng yuqori fazilatlarga ega bo'lgan shaxs deb hisoblaydi. Panjobning an'anaviy she'riyati asosan, diniy edi. XVII asrda birinchi shoir Shayx Farid bo'lgan va u shu yo'nalishni belgilab bergan. Adabiyotning boshqa qirg'og'i ramziylik ruhidagi lirika edi. Uning ilk to'plamlarida yangi davr panjob adabiyotining yetakchilaridan biri Bxay Vir Singx she'riyati "shula" sochib turadi. 1941 yilda A. Pritamning yangi "Shudringlarda chayilgan gullar" nomli kitobi nashr etildi. To'plamda shoir a ayollar mavzusi, ishq mavzusini tarannura etdi. U bu to'plamda g'amga botgan va yig'lagan ayollar obrazini, ishqdan yashnab kulgan ayollar, ko'zida olov, qalbida onalik mehri bor ayollar siymosini yaratdi.

Asrlar mobaynida zulm va haqsizlikdan ezilgan, turli diniy urf-odatlar, xurofi jaholat qurboni bo'lgan ayollar shoir a she'riyatining asosiy mavzusi bo'ldi. A. Pritam o'z xalqining ingliz mustamlakachilari tomonidan chekkan g'amlarini, ochlik va musibatlarini, ayollar boshiga tushgan og'ir hayotni ko'rdi. U o'z iffati yo'lida olamdan ko'z yumgan, xo'rlangan, uy xizmatchisi bo'la turib or-nomusi oyoq osti qilingan ayolni, mulk kabi sotib olinadigan va sotib yuboriladigan ayolni ko'rdi.

1942 yilda A. Pritam radioda boshlovchi bo'lib ishladi, Lahor-
da shoirlik uzdi, radiopyesalar yozdi, setorda musiqa chaldi.
Bunda yangi-barang hayot uning ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

1942 yilda uning "O, kuychilar", 1943 yilda "Bulutlar Xo-
shiyat" kitobi chiqdi. Bu davrni A. Pritamning shoira sifatida
tanishtirish davri desak bo'ladi.

40-yillar hind xalqi uchun og'ir yillar edi. Ikkinchi jahon urushi
davom etayotgan payt edi. Bu yilda Pokiston davlatining shaklla-
nishi uchun olib borilgan harakatlarning kuchayishi panjobliklarni
xavotirga soldi, chunki Panjob musulmon viloyati hisoblangan va
shu bilan uning taqdiri hal qilinishi kerak edi. Panjobning Hindis-
tondan ajralishi borasida kelib chiqqan xavf turli diniy va siyosiy
partiyalarni vujudga keltirdi (masalan, "Akali" va boshqalar), xalq
ozodlik harakati kuchlari jiddiy sinovlarga duchor bo'ldi. Bunday
holat A. Pritamning oldida ham, o'zining kelgusi ijodiy yo'lini
belgilab olish vazifasi turar edi. Achchiq haqiqat bilan tanishish
uni o'z qobig'iga o'ralib qolmaslikka, o'z shaxsiy kechinmalarini
yerib chiqib, davraga kerakli bo'lgan qo'shiqlar kuylashga undadi.
Uning she'rlarida antifashistik va antiimperialistik ovozlar yang-
ray boshladi ("Tong yorig'i", 1943 y.). Uning qalbida g'azab va
nafrat alangalandi.

Saunday qilib, Amrita Pritam adabiyotning muhim masalasi
va maqsadi hamda bu adabiyotda yozuvchining o'z nima ekanini
anglay boshladi. Shoiraning keyingi ijodi 6 yillik davrni qamrab
oladi.

Urush voqealari, xalqning milliy ozodlik harakatlari to'liq-
nining o'sishi (ayniqsa, Panjobda barcha sikh diniy jamoa
tashkilotlarining Hindistonning bo'linishiga qarshi edilar), 1943
yildagi Bengaliyadagi ochlik uning ijodida o'z aksini topdi. U
yangi davr yangi estetik qarashlarni talab qilishini yaxshi tus-
hunar edi. Uning ijodida real hayot voqealarini haqqoniylik bilan
tasvirlash asosiy o'rinni egalladi. Zamonaviylikning eng dolzarb
muammolari, fikr va tuyg'ularining yangi dunyosini muqaddaslas-
htirilgan diniy an'analarga solib bo'lmasdi. Shoira izhor etishning

yangi shakllarini va davr talabiga javob bera eladig-u zamonaviy, erkin turdagi qofiyalash usulini tanladi. "Insoniy og'riqlar" (1944 y.), "Tosh o'yinchoqlar" (1946 y.).

Ikkinchi jahon urushi tugagan yillar A. Pritam o'z qarardlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1947 yilda Panjobning bo'linishi uni larzaga soldi. 1947 yildan keyin u Dehli'ga ko'chib o'tdi. Bo'linishning fojiali oqibadavmi ayniqsa, panjobliklar keskin his qildilar. Panjobning bir qismi Hindistonga, boshqa qismi Pokistonga o'tib ketgan edi. Hindistonning Uslubiyati musulmon, hindu va sikxlarning qonli to'qnashuviga sabab bo'ldi.

Panjoblik shoirlar bunga befarq qarab tura olmadi. Shunda bu bo'linishga o'zining "Vorisi Shohga" she'ri bilan javob berdi. Odamlar bu she'rni yod oldilar, qo'lma-qo'l yonib o'tdilar. Bu ta'lim ta'sirida "Men qo'shiq yozaman" poemasi yaratildi va Pokiston matbuotida chop etildi. A. Pritam Panjobning ovoziga aytdi. Bu she'rda A. Pritamning panjob folklori va adabiy an'anasini juda yaxshi bilishi ma'lum bo'ldi. Chuqur estetik aning eafiyaki qadriyatlardan nafratlanishiga sabab bo'ldi. U o'z his-tuyg'ularini oddiy, bezaksiz tarzda bayon qildi.

Hindistonning bo'linishi Panjobning iqtisodiy taraqqiyo'ga og'ir asoratlarni keltirib chiqardi. Yirik qishloq xo'jaligi, idoralar va asosiy paxtachilik tumanlari Pokistonda qoldi. Qishloq xo'jaligi muammolarini hal qilish, mustamlakachilikni qo'ldirishni yo'qotish, oziq-ovqat masalasini hal qilish kerak edi. Barcha tomonda, qochoqlarni joylashtirishdek og'ir muammolar ham tuzatildi. Shunday qilib, Panjob ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan juda ko'p muammolarga duch keldi: milliy masalalarni hal qilish, madaniy saviyani ko'tarish, til muammolarini hal etish. Shunday naazardan Panjob juda qiyin ahvolda edi, panjobiy hat qo'ldirish sifatida o'quv bilim yurtlarida, idora va tashkilotlarida tarqatib bergan, hamma yerda hindiy, hatto urdu tillari qo'llanilar edi. Bu atning bari panjob adabiyotida yangi mavzular davri va ochib berdi: millatlararo birlik, ijtimoiy haqqoniylik va ozodlik mavzulari.

A. Pritam o'z asarlarini Panjobning bo'linishi oqibatida kelib chiqqan muammolar, yangi hayot masalalariga bag'ishlab, Moxan Singx, K.S. Duggal kabi yozuvchilar bilan birgalikda yozdi. Bu "Uzundan-uzun sayohat" (poema, 1949 y.), "Doktor Dev" (roman, 1949 y.), "Qafas" (roman, 1950 y.), "Sahar chog'i" (poema, 1951 y.), "Uy" (roman, 1951 y.), "Panjob ovozi" (xalq qo'shiqlari to'plami, 1952 y.), "Xabar" (poema, 1955 y.). Va nihoyat, 40-yillarda A. Pritam ijodining gullab-yashnagan davri keldi. Har yil albatta, yangi she'rlar to'plami, romanlar, poemalar, qo'shiqlar... Panjobning adabiy hayotida qaysi omillar bunga sharoit yaratdi?

Eng avvalo, turli adabiy tashkilotlar shakllana boshladi, bulardan asosiylari: Til va adabiyot departamenti hamda Panjob yozuvchilarining markaziy uyushmasi. Uning tashabbusi bilan har yili panjob yozuvchilarining konferentsiya va uchrashuvlari o'tkazib borildi. 1956 yilda A. Pritam "Xabarlar" to'plami uchun Adabiyot akademiyasi mukofotiga sazovor bo'ldi. U bu mukofotga sazovor bo'lgan birinchi ayol edi. Bu yillar Amrita Pritam ijodida o'ta samarali davr bo'ldi. Uning siyosiy, iqtisodiy va axloqiy qarashlari butkul shakllangan va o'z asarlari, romanlari, tanqidiy maqolalari-da buning aksini topgan edi.

Shoira xalq san'ati va adabiyotida yaratilgan obrazlarni nozik sezgilar bilan his qilgan holda davrimizning Hindistondan tashqarida ro'y berayotgan voqea-hodisalar, muammo va obrazlarini ham qo'rqmasdan yaratdi. Bunga misol qilib: "Kasturi" (1959), "Nagmani" (1964), "Qora atirgul" (1966), "Borliq" (1967) to'plamlarini olish mumkin.

"Qora atirgul" to'plamidagi she'rlarida A. Pritam o'zlik orqali ko'p ming sonli hind ayollari fikrini ko'rsatadi: sevgini ham ayol ko'ngli bilan, ochiqlik bilan o'ziga xos tasvirlaydi, bu boradi uning o'z ohangi bor. Bu uning qalb og'riqlari, yurak sirlari, "ayol" mavzusidir. U o'z shaxsiy hayoti qirralari, hind ayolining taqdirini aks ettirish orqali o'z mamlakatida mavjud, bir-biriga qarama-qarshi to'qnashuvlarni ochib berdi.

Keng aql-zakovat, ko‘plab chet ellarga qilingan sayohatlar A. Pritam ijodini turli-tuman mavzu va obrazlar bilan boyitadi. 1961 yili A. Pritam yozuvchilar uyushmasi taklifi bilan Moskva, Samarqand, Toshkent, Bokuga kelgan. R. Thokurning 100 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda qatnashdi va farzandlariga xatlar yozdi va bu xatlar (“Deraza va darchalar”) kitob shaklida nashrdan chiqdi. Dehlidagi “Arsi” jurnalining yozishicha, “Deraza va darchalar” 1961 yildagi panjobiyda chiqqan ocherklarning eng yaxshisi hisoblanadi. Armaniston va O‘zbekistonda odamlar o‘zining hayotsevarligi, o‘z xalqi manfaatleri uchun chin dildan mehnat qilishi ishtiyoqi bilan uni to‘lqinlantirdi. O‘zining “Xotiralar” kitobida A. Pritam badavlat paxtachilik o‘lkasiga aylangan Farg‘ona vodiysini “uyqudagi malika” deb ataydi. Farhod, go‘zal Shirin, suvsiz erlarga suv olib chiqish... bularni A. Pritam “bahodirlar” deb atalgan Hindiston tog‘ ishchilari hayoti bilan qiyoslaydi. “Ular xuddi Farhoddek, kunu tun toshlarni maydalaydilar, ularga Shirin qanday shart qo‘ydi – hayotnimi? Qachongacha qismat bulog‘i ularning yonginasidan, bir qadam naridan oqib o‘tadi?”¹ deb yozadi.

Shoira ko‘plab so‘z san‘ati ustalari bilan uchrashdi. Aynan A. Pritam o‘zining panjoblik kitobxonlarini G‘. G‘ulom, Oybek, Zulfiya, H. G‘ulom, A. Muxtor singari atoqli o‘zbek shoir va yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishdek oliyjanob isbni ado etdi.

1968 yilda may oyida Hndistonda A. Pritamning “21 yaproqli atirgul” nomli safarda yozilgan ocherklar to‘plami chiqdi. Unda shoira Rossiyaga qilingan uchinchi safari taassurotlari, Bolgariya, Yugoslaviya, Ruminiya, Germaniyaga tashrifi haqida yozadi. Bu yerdagi so‘z san‘atining ustalariga bo‘lgan chuqur hurmatini ehtiros bilan so‘zlaydi. U Yasnaya Polyana bo‘ladimi yerevandami, Moskva yoki Toshkentdami, shoiraning qalbi to‘lqinlanadi. A. Pritam M. Gorkiy, A.S. Pushkin, V. Mayakovskiy ijodi bilan yaqindan tanishdi. Dunyo adabiyotini chuqur o‘rgangan A. Pritam turli mamlakat xalqlarining adabiyot sohasida erishgan tajriba va

¹ Притам А. Андарете ке дас дин. Атиит ки парччайян. – Дехли, 1962, 96-б.

yutuqjariga katta e'tibor qaratdi. Ayniqsa, Yevtushenko she'rlarini qadrlaydi. A. Pritamning ocherk va xatlari uning jamoa faoliyati va biografiyasining muhim qismi sifatida xizmat qiladi. 40--50-yillarda keng tarqalgan dunyo xavfsizligi uchun kurash harakati Hindistonda ham keng yoyildi. Sadjat Zahir, Yashpal, Mulk Radj Anand, Gurbaxsh Singx, Gurmukx Singx Musofirilar bilan bir qatorda A. Pritam ham tinchlik uchun kurashga o'tlandi. Tinchlik mavzusiga Pritam she'rlari bilan kirib keldi va ko'p yillik izlanishlar, shubhalar, muvaffaqiyatlar, og'ir o'ylar hamda yillar davomida erishilgan yetuk ijodkorlik va tajriba orqali o'z prozasini yaratdi. Chuqur va samimiy ruhiyat shoirasi A. Pritam bir vaqtning o'zida yana tinchlik, demokratiya va gumanizm uchun tolmas kurashchi hamdir. Ayollarning astiy armonlari uning asarlarida yangraydi: "She'r yozaman", "Orzu ovozi", "Uyqusiz yillar", "Qor yog'ar" she'rlari, "Bulg'angan quduq", "Sigirlar xo'jayinlari" hikoyalari.

50-yillarda taassurotlar, ijodiy uchrashuvlarga to'la bo'lgan A. Pritam ijodi sermahsul bo'lganmi? Bu davr shoironing nihoyatda sermahsul ijodiy faoliyat davri bo'ldi. Bu davrda u qator nasriy asarlar yaratdi: "Bo'yoqlardan qolgan iz" (roman, 1963 y.), "Nagmani" (roman, 1964 y.), "Anita bor edi" (roman, 1964 y.), "36 raqamli qishloq" (roman, 1964 y.), "Yer, dengiz va chig'anoqlar" (roman, 1965 y.), "Dehli ko'chbalari" (roman, 1968 y.), "Qora atirgullar" (she'rlar; 1968 y.), "Eskimos tabassumi" (1967 y.), "Qizil chitbonqlar" (ochsrdlar, 1965 y.), "21 yaproqli atirgul" (yo'l ocherklari, 1968 y.), "Antenna" (roman, 1968 y.), "Emigrang" (roman, 1968 y.).

Mamlakat rivojlanishi yo'lidagi asosiy masala nimada ekanini anglashga intilish A. Pritamning nasrga murojaat qilishiga sabab bo'ldi va bu unga o'z davrining qiyin va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan serqirra muammolarni butun bo'y-basti bilan ifoda etishga imkon yaratdi. A. Pritam ifodaning yangi yo'llari, yangi omillarini qidirib topdi.

O'zi tashkil etgan (1966 y.) "Nagmani" jurnali sahifalarida shoira rus va boshqa mamlakat she'riari, G'arbning ilg'or yo-

zuvchilari asarlari tarjimasini berib bordi. Shu yo'l bilan panjob kitobxonlarini zamonaviy dunyo adabiyoti bilan tanishtirishdek oliyanob ishni amalga oshirdi. Jurnaida mashhur panjob yozuvchilari Adjit Kaur, Xaribxadhan Singx, Baldev Singx asarlari, yosh mualliflar Kripal Kazak, Djasvir Pxuller, Joga Singh, Sati Kumar Djaktar, Sukxibirler ijodidan namunalar beriladi. Oxirgi besh yil ichida jurnalda ko'tarib chiqilgan masalalar doirasi kengaydi; adabiyotshunoslikka oid masalalar ham olib chiqildi. Jurnaida tanitilgan olimlar, rassomlar bilan olib borilgan intervyular berildi, jamiyat taraqqiyoti va siyosatdagi kamchilik va nizolar ochib ko'ildi.

70-yillarda A. Pritam yoshlar taqdiridagi muammolar ko'tarilgan yangi romanlar yozdi ("Cho'ntak o'g'rilari", "Emigrant" va boshqalar) 80-90-yillarda uning adabiyotshunoslikka oid ocherk-lar, esse, intervyu va chizgilar to'plami chiqdi.

Nazorat uchun savollar:

1. *A. Pritam ijodining birinchi davri qanday baholandi?*
2. *Uning she'riy ijodi qanday xususiyatlarga ega?*
3. *A.Pritamning badiiy nasr.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *60-yillarda A. Pritamning dunyoqarashi va u o'zlariga mavzularda o'zgarishlar?*
2. *A. Pritam romanlarining asosiy muammolari.*
3. *A. Pritam va O'zbekiston.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И. Д. Пенжабская литература. —М., 1953.*
2. *Чельшев Е. П. Современная индийская литература —М., 1981.*
3. *Притам А. Черная роза. —Т., 1971.*
4. *Притам А. Тайны сердец. —А., 1977.*

10-MAVZU. PANJOB ADABIYOTIDA QISQA HIKOYALAR JANRI VA DRAMANING RIVOJLANISHI

Ma'ruza maqsadi:

1. 50–60-yillardagi qisqa hikoya rivoji.
2. Zamonaviy teatr va dramaturgiyaning shakllanishi.

Tayanch iboralar: novellalar, jamiyat tanqidi, dehqonlar harakati. axloqiy turmush mavzusi, bir pardali pyesalar.

XX asrning 30–40-yillari badiiy nasr sohasida sezilarli yutuqlar davri bo'ldi. Bu davrda faqat romannavislik rivojlanib qolmadi. Ko'pgina yozuvchilar qisqa hikoya janriga murojaat qildilar. U har qanday voqelikka tez javob berishga yordam berdi. Qisqa hikoya-novella ko'plab panjoblik katta va kichik avlod yozuvchilarining sevimli janriga aylandi. Katta avlod vakillari ichida alohida o'rin tutgan prof. Sant Singx Sekxon (1908 yilda tug'ilgan) realistik hikoyanavislikning mohir ustasidir. U panjob adabiyoti tarixining yirik tadqiqotchilaridan biri. Uning adabiy faoliyati 1936 yilda "Prabxat" jurnalida chop etilgan hikoyalar bilan boshlangan. Sekhon 4 hikoyalar to'plami: "Samachar" (1943 y.), "12 sikx" (1949 y.), "Yarim yo'lda" (1951 y.), "3 qo'riqchi" (1958 y.) bilan chiqdi. Yozuvchi bu hikoyalarda jamiyatdagi faqat u yoki bu ijtimoiy tomonni emas, balki butun jamiyatni butunicha ta'riflaydi. U o'z hikoyalaridagi masalalarni maksimal darajada ochib berishga harakat qiladi. Shu sababli ular katta ahamiyatga ega janri.

50–60-yillarda panjob adabiyotida qisqa hikoyalar juda tez rivojlandi. Panjob yozuvchilarining o'rta avlod vakillari bo'lgan hikoyanavis Santok Singx Dzir (1920 yilda tug'ilgan) hikoyalari mavzusi panjob qishloq hayotiga bag'ishlangan. Uning uch hikoyalar to'plami: "Boshloqlar soyasida", "Umumiy devor", "Ufq oldidan"da yozuvchi dehqonlarning ichki dunyosini o'rganadi, ularning tashvishlari sababini izladi va topdi. Panjob qishloq hayotining negizi – pul – qo'shnilar orasidagi devor bo'lib turgan ham shu – pul, sevishganlar va hamqishloqlar orasida turgan to'siq

ham shu pul edi. Dxor hikoyalari shunday yechim, shunday xulosaga olib keldiki, – odamlarni bir-biridan ajratadigan turmush devorini buzish kerak bo‘lib qoldi. Shu bilan yozuvchi oxirgi xulosani kitobxonga havola etadi. Hikoyaning syujeti ham, kompozitsiyasi ham, uslubi ham yozuvchining asosiy fikrini tasdiqlaydi va ochib berishga xizmat qiladi.

Djasvant Singx Kamval (1923 yilda tug‘ilgan) o‘z hikoyalari-da zamonning keng ko‘lamdagi muammolari: ayollarning o‘z haq-huquqlari uchun kurashi, dehqonlar harakati, tinchlik uchun kurashni qamrab oladi. Kamval ijodi o‘zining an‘analari bilan Dxor ijodiga yaqin turadi. Biroq, Dxor insoniy munosabatlarni burjua jamiyati sharoitida hal qilishga harakat qilsa, Kamval hayotda yashashdan maqsad, zamonaviy davr – tarixiy jarayonning yetakchi yo‘nalishi kabi kengroq masalani o‘rtaga qo‘yadi. Ijodiy masalalar yechimini topishda Kamval folklor materiallaridan keng foydalanadi.

Dxor va Kamvalni hayajonlantirgan muammolar boshqa panjoblik yozuvchilarga ham xosdir. Ular turli qarashlar, turli ijodiy pozitsiyalarda turib bu ikki yozuvchining fikr va g‘oyalariga yaqin turadilar. Zamonaviy panjob hikoyachiligi realizm uslubining eng oldingi safidan o‘rin oladi va hayotiy masalalarni bir qadar aniq hal qilishga yo‘l topadi. O‘z imkoniyati darajasida bu realizm tanqidiydir, biroq ayrim holda mualliflar o‘z pozitsiyasi bilan sotsialistik realizmga intiladilar.

Ayrim yozuvchilar real hayot tushunchasini ruhiy tadqiqot bilan almashtirgan Freyd g‘oyalariga og‘ib ketdilar, ba‘zilari esa naturalizmga sho‘ng‘ib, voqelikni faqat tashqi tomondan aniq aks ettirishga ahamiyat berish orqasidan quvdilar. Lekin, bu oqimlarning hech biri asosiy yo‘nalish bo‘la olmadi. Eng ilg‘or uslub realizm bo‘lib qoldi. Aynan shu jihatdan ham qisqa hikoya o‘zining shunday yuksak bosqichiga erishdi. Zero, unda hayot faqatgina haqqoniy aks ettirilibgina qolmay, hindiy, urdu, bengal adabiyotining ijobiy tomonlari G‘arbiy Yevropa, rus so‘z san‘ati ustalari ijodi, ayniqsa, L.Tolstoy, A.P.Chexov, A.M. Gorkiy asarlarining

ta'sirida chatishuvda sintez qilindi. Panjob adabiyotida dramaturgiya she'riyat, hikoyanavislik va romannavislikka qaraganda ancha sust rivojlangan. Professional teatrning yo'qligi dramaturgiya rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmasdi. Zamonaviy panjob teatri va dramaturgiyasi asoschisi Nanda sanaladi (1892 yilda tug'ilgan). 1920 yilda uning bir pardali "Kelin" pyesasi qo'yildi. Uning asarlari asosan, axloq va turmush mavzusiga bag'ishlangan. 1923 yilda Gu-baxsh Singxning "Radjkumari Latika" pyesasi nashr qilindi. Uning syujetiga ijtimoiy kelishmovchiliklar asos qilib olingan edi. G. Singx pyesasi bu sohadagi olg'a qadam bo'ldi. 1947 yildan keyin adabiyotning bu sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz.

Atoqli dramaturglardan biri Sant Singx Sekxon (1908 yilda tug'ilgan)dir. Uning asarlarida qator ijtimoiy muammolar ko'tarilgan ("Qo'zg'olon", "Ijarachi"), undan tashqari san'at dunyosidagi hayot, jamiyatdagi roli va o'rni haqidagi bir qancha pyesalari uning qalamiga mansubdir. Xarcharap Singx (1917 y.), Roshan Lal Axujan (1921 y.), K.S. Duggallar ham dramaturgiya sohasida o'zlarini sinab ko'rdilar.

Balvant Gargi (1916 y. tug'ilgan) pesalari dramaturgiya sohasida ancha ahamiyatli edi. Uning ijodiy faoliyati ancha erta boshlandi. Avval u urdu va ingliz tillarida she'rlar yozdi. 1943 yil u o'zining ilk bir pardali pyesasini yozdi. U tomonidan 8 ta drama, 35 ta bir pardali pyesa yozildi. Panjobdagi qishloq, eskilik sarqitlariga qarshi kurash, ijodkorning jamiyatdagi o'rni uning asosiy mavzusi. U Panjob dramaturglaridan birinchi bo'lib, o'z pyesalaridan birida dunyo tinchligi uchun kurash harakati mavzusini olib chiqdi ("Kesro"). B. Gargi asarlari faqat Hindiston teatrida emas, balki chet ellarda ham qo'yildi ("Kesro" – Tojikiston dramatik teatri (1952 y.), "Soxni va Moxival" – Moskva (1956 y.).

Panjob dramaturgiyasida K.S. Duggal pyesalari qiziqarli va ahamiyatlidir. "15 avgust", "Chiroq o'chdi", "Qochoq" kabi bir pardali pyesalar uning qalamiga mansub. Ular radio uchun yozilgan va alohida to'plam bo'lib, "9 pyesa" nomi bilan nashr qilindi. Mavzusi va uslubi jihatidan bu pesalar zamonaviy muammolarni

hal qilishga chogʻlangan dramaturgiyaga oʻrnak boʻla oladi. Duggalning ikki pyesasi asosiy eʼtiborni oʻziga qaratadi: “Shirin suv” (1957 y.), “Togʻlarni yakson etuvchi” (1958 y.). Pyesalar mavzusi suvsiz hayot yoʻqligi va faqat ugina insonlarga baxt va saodat olib kelishi haqida. Pesa oʻz mavzusi jihatidan mashhur Farhod va Shirin afsonasiga oʻxshab ketadi. Yozuvchi inson taqdirini oʻtmishi va buguni bilan bogʻlab, syujet rivojini ochib beradi. Duggal qahramonlari yangi hayotni butunicha qabul qilishga qodirdirlar. Lekin ularning harakatlarida bir qadar noaniqlik, oʻylamay qadam bosish ham sezilib turadi. Biroq, bu holat hayotdagi eski urf-odatlar, umumiy qarama-qarshiliklarga toʻla boʻlgan bugungi panjobliklarning hayotiga xosdir. Duggal xizmati va mahorati shundaki, u ana shu hayotni oʻz ijodida ochib bera oldi va uning oʻziga xosligini koʻrsata oldi.

Duggal pesalari ham boshqa dramaturglar pyesalari kabi panjob hayotining eng dolzarb, kishini toʻlqinlantiruvchi jabhalarini yoritib berishga qodir ekanligining isbotidir.

Nazorat uchun savollar:

1. *Qisqa hikoyalar janri rivoji va vakillari?*
 2. *Dramaturgiya rivoji va vakillari.*
- B. Garsh ijodining oʻziga xosligi.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *K.S. Duggal ijodi.*
2. *50-60-yillar adabiyoti.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. —М., 1985.*
2. *Серебряков И.Д. Пенжабская литература. —М., 1963.*
3. *Чельшев Е.П. Современная индийская литература. —М., 1981.*

11-MAVZU. XX ASRNING 40-YILLARI VA KXUSHVANT SINGX IJODI

Ma'ruza maqsadi:

1. 40-yillar va Panjob adabiyoti.
2. K. Singx ijodining ilk davri.
3. Tarixiy asarlar.

Tayanch iboralar: yangi chegara, jurnal, gazeta, sikxlar tarixi.

XX asrning 30-yillari Panjob adabiyotidagi demokratik harakatning estetik asosini tanqidiy realizm va socialistik realizm belgilari bilan vujudga kelgan adabiyotning paydo bo'lishi: ko'zga tashlanadi. "30-yillarda Hindistonda ilg'or estetik tafakkurning vujudga kelishi adabiyot va san'atda taniqli ijodkorlarning o'z zamonasidagi badiiy tajribaning nazariy jihatdan anglashi, undan avval, yangi muhitda tobora an'analarga boyib borayotgan hind madaniyatining yozuvchilar ijodida rivojlanishi, eskirgan diniy g'oyalarni yengib o'tishi, dunyoning boshqa mamlakatlarida, eng avval socialistik mamlakatda yaratilgan estetik tafakkurning zamonaviy va yanada yaxshi taraflarini hind zaminiga ko'chirishi bilan asoslangan edi"¹.

40-yillarning oxiriga kelib, Panjobdagi vaziyat yanada jiddiy tus oldi. 1947 yil 15 avgustda Hindiston mustaqillikni qo'lga kiritdi. Panjob hududidan yangi chegara o'tkazildi, uning bir qismi Pokistonga, qolgani Hindistonga o'tdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar bilan birga ijtimoiy muammolar yuzaga keldi. Millionlab odamlar uy-joysiz qoldi, minglab qochoqlar halok bo'ldi va hindu-musulmonlar to'qnashuvlari keng tus oldi.

Mazkur vaziyat Panjob adabiyotida o'z aksini topdi. Ushbu mavzuda asar yaratgan adiblardan Kxushvant Singx, Amrita Pritam, Kartar Singx Duggal, Nanak Singx, Surender Singx va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Kxushvant Singx 1915 yilda hozirda Pokiston hududida joylashgan Xadali qishlog'ida, ziyoli oilada dunyoga keldi. Singxlar oilasi obro'li va badavlat oilalardan edi. Otasi Sobxa Singx Deh-

¹ Чельшев Е.П. Культура, мир, прогресс. -Т., 1977, 138-б.

lida juda mashhur bo‘lib, poytaxtning ko‘pgina inshootlarini bandod etgan quruvchi edi.

Kxushvant yoshligidan yaxshi ta‘lim oldi. Zamonaviy maktabda o‘qishi chog‘ida u urdu tiliga mehr qo‘ydi. Maktabdan so‘ng Lahordagi Hukumat kollejida o‘qishni davom ettirdi. Oilaviy sharoiti uni chet elda ta‘lim olishiga ko‘mak bo‘ldi. Kxushvant Singx Londonning mashhur oliygohlaridan birida tahsil oldi. U yerda huquqshunos kasbini egallab Hindistonga qaytdi va 1947 yilga qadar shu sohada faoliyat olib bordi.

Hindiston bo‘lingandan so‘ng Singxlar oilasi Dehliga ko‘chib keldi va Kxushvant Singx Tashqi ishlar vazirligida ishlay boshladi. U Buyuk Britaniya, Kanada va Frantsiya kabi davlatlarda diplomatik faoliyat olib bordi. Biroq Kxushvant bunday kasbdan qoniqmas edi.

1951 yilda u “Butun Hindiston radiosi” (“All India Radio”)ga jurnalist lavozimiga ishga kiradi. Bu voqea Kxushvant Singxning adabiyotga qo‘ygan ilk qadami edi. Kxushvant 1951-1953 yillar davomida “Yo‘jana” nomli gazetani ta‘sis etib, unda muharrir bo‘lib ishlaydi. Shu bilan birga, u “New Delhi», «Hindustan Times» va “Illustrated Weekly of India” kabi jurnal va gazetalarga muharrirlik qildi.

Kxushvant Singx xalqaro mavqega ega yozuvchidir. Uning maqolalari deyarli barcha mahalliy va xalqaro matbuot sahifalarida chop etilgan. U ko‘pgina mashhur ko‘rsatuv va radio eshittirishlar mehmoni bo‘lgan.

Kxushvant Singxning yozuvchilik faoliyati o‘ziga xos. Uning “Sikxlar tarixi” (1950 y.) deb nomlangan asari hozirgi kungacha sikxlar tarixi bilan bog‘liq eng yuqori darajada ishlangan asar hisoblanib, u oliy ilmiy mavqega ega. Bu ikki jildlik asar sohaga oid noyob ma‘lumotlar joy olgan va ko‘pgina olim va mutaxassislar tomonidan qo‘llanma sifatida ishlatilib kelinmoqda.

Kxushvant Singx tarixiy xarakterga ega asarlarning mohir ustasidir. Uning asarlari jonliligi, ta‘sirchanligi va faktlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham Kxushvant Singx kitoblari

nafaqat hindistonliklar, balki chet elliklar orasida ham mashhurdir. Uning tarixiy asarlariga “Maxaradja Ranjit Singx” (1963 y.), “Hozirgi kun sikxlari” (1959 y.), “Sikx hukmronligining inqirozi” (1962 y.), “Gxadar 1915” (1966 y.), “Sikxlar fojeasi” (1984 y.) va boshqalar misol bo‘la oladi.

Kxushvant Singx juda ko‘p tillarda ijod qiluvchi adibdir. Uning panjobiy, hindiy, ingliz va urdu tillarida yozilgan she‘riy to‘plamlari buning yorqin misolidir.

Shu bilan bir qatorda, Kxushvant Singx mohir tarjimonidir. U diniy asarlardan “Japsi”, “Nanak madhiyalari” va “Guru” kabi asarlarning tarjimonidir. Singx mashhur shoira va yozuvchi Amrita Pritamning bir qator asarlarini ingliz tiliga o‘giran. Jumladan, Pritamning “Pinjar” nomli she‘riy to‘plami tarjimasi bunga misol bo‘la oladi.

Kxushvant Singxning hikoyalari ham zamonaviy Panjob adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning qalamiga ko‘pgina hikoyalar to‘plami mansub. Masalan, “Xudo ovozi” (1957 y.), “Sohib uchun kelinchak” (1967 y.), “Jannat” (2004) va boshqalar.

Kxushvant Singx dunyoga mashhur, serqirra va sermahsul yozuvchidir. Uning 80 ga yaqin asari eng yaxshi sotiladigan kitoblar sirasiga kiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. *K.Singx ijodining asosiy yo'nalishlari.*
2. *50-yillar: K.Singx ijodi.*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *K.Singxning tarixiy asarlari.*
2. *Yozuvchining 60-80-yillardagi asarlari.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Пенджабская литература. –М., 1963.*
2. *Чельшев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня. –М., 1991.*
3. *Чельшев Е.П. Культура, мир, прогресс. –Т., 1977.*
4. *Ходжаева Т.А. Ҳиндистон халқлари адабиёти. –Т., 2010.*
5. *Ходжаева Т.А. Пенджабская литература. –Т., 2007.*
6. *Ходжаева Т.А. Ўзбек-ҳинд маданият, адабий алоқалари тарихидан. –Т., 2012.*
7. *Кхушвант Сингх. Пакистан ки гарн (на хинди). –Дели, 1978.*

12-MAVZU. PANJOB ADABIYOTIDA HINDU- MUSULMONLAR MASALASI

Ma'ruza maqsadi:

1. K.Singx romanining mazmuni.
2. Asosiy mavzu va g'oya.

Tayanch iboralar: Turli din, kelishmovchiliklar, turli guruhlar, qochoqlar, musulmonlar, hujumchilar, mehr-oqibat.

Kxushvant Singxning "Pokiston tomon poezd" romani tarixiy voqelikka boy bo'lgan realistik asardir. Bu roman mavzusi mamlakatning bo'linishidir. Davlat boshliqlari bu g'oyani amalga oshishiga istak bildirmasalarda, Musulmon Ligasi tomonidan ilgari surilgan "Ikki millat" g'oyasi amalga oshdi va yangi Pokiston davlatining vujudga kelishiga asos solindi. Lekin bu maqsadning ro'yobga chiqishi zamirida minglab begunoh insonlarning qurbon bo'lishi yotadi. Kxushvant Singx o'zining mazkur zamonaviy romanida o'tgan asrning eng dahshatli vaziyatlarini mahorat bilan realistik tasvirlagan. Yozuvchining asarni hech qanday bo'rttirishlar yoki qo'shimchalar kiritmay, haqqoniy va realistik ruhda yozganligi uning yanada qiziqarli bo'lishiga sabab bo'ldi. U barcha faktlarni eng samimiy va haqqoniy aks ettirdi.

Bu asardan shu ma'lum bo'ladiki, bo'linishdan avval Hindistonning panjobliklar qismi turli din va guruh vakillaridan iborat bo'lgan. U asosan, hindu, sikk va musulmonlardan tashkil topgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyat totuvlikda va hamjihatlikda hayot kechirgan. Turli guruhlar ko'p yillar davomida birga yashaganligi bois ular o'rtasida uzviy rishtalar bog'langan. Bir-birlariga mehrlil, aka-uka va opa-singildek edilar. Bunday holatni Mano Majra qishlog'i timsolida ko'rishl mumkin. 1947 yil yoziga qadar Mano Majra eng tinch joylardan biri edi. Qishloq ozodlik harakatlari va inqilobiy ta'sirlardan yiroqda edi. Shu bilan birga, Mano Majra aholisi ingliz mustamlakachilik siyosatiga ham hech qanday norozilik bildirmas edi. Qishloq aholisining asosiy

qismini sikh va musulmonlar tashkil etardi. Sikhlar yer egalari va musulmon dehqonlar edi. Ular o'zaro totuvlikda hayot kechirar, hatto Sikhlar ibodatxonasi va masjid yonma-yon joylashgan edi. Yoz kunlarining birida qishloqda Ram Lalning o'ldirilishi Mano Majraning tinchini umrbod buzdi.

Mamlakatdagi notinchliklar va ularning Mano Majraga ta'siri sudya Hukum Chandni bezovta qilardi. Uning fikricha, bu qishloq juda muhim chegarada joylashgan va asosiy temir yo'l ko'prigiga juda yaqin edi Hukum Chand mamlakat bo'ylab sodir etilayotgan vahshiyliklardan xabardor edi. Hukum Chand inspektor o'rinbosaridan qishloq vaziyatini chuqurroq o'rganishga harakat qiladi va o'sha paytgacha hindu va musulmonlar o'rtasida nizolar bo'lmagani haqida ma'lumot oladi. Faqat u murdalar to'la poezdlar kelmasligini umid qilardi, chunki, aks holda qishloqda keskin vaziyat yuzaga kelishi muqarrar edi. Hukum Chand qishloqda ichki nizolar yuzaga kelishini oldini olish va aholining musulmon qismini xavfsiz joyga ko'chirilishi, Pokistonga jo'natilishi lozimligini anglardi.

Biroq, Pokistondan kelgan murdalar to'la poezd vaziyatni jiddiylashtirdi. Qishloq ahli sodir etilgan vahshiylikni masofadan kuzatdi va to'la anglay olmadi. Ushbu vaziyatni o'z ko'zi bilan ko'rgan Hukum Chand nihoyatda ta'sirlangandi. Minglab jasadlar bilan to'la poezdda birorta tirik jon yo'q, ayollar, go'dak va qariyalar ham shafqatsizlarcha o'ldirilgan edi. Bu odamlar Pokistondan o'z uylarini tashlab baxt ilinjida najot istab Hindistonga yo'l olgan edilar, lekin ularning bu umidlari puchga chiqqan edi. Hukum bu vahshiyliklar bir umrga uning xotirasiga muhrlandi.

Bir necha kundan so'ng barcha yo'lovchilari bilan yoqib yuborilgan yana bir poezd Mano Majra stansiyasida to'xtadi. O'n besh mingta yaqin Pokistondan kelayotgan hindu va sikh yo'lovchilari tiriklayin yoqib yuborilgan va bu odamlarning suyaklari va chala yongan jasadlari Baluchi va Patxan askarlari tomonidan tozalandi. Bundan xabar topgan Hukum Chand Mano Majradagi vaziyat haqida yanada qayg'ura boshladi, chunki qochoqlar va mahalliy xalq bilan to'qnashuvlar xavfi uni tashvishga soldi.

Inspektor o'rinbosari qo'shni qishloqdagi musulmonlar Pokistonga yuborilish uchun qochoqlar lageriga joylashtirilgani haqida ham ma'lumot berdi. Xukum Chand Mano Majrada vaziyat jiddiy tus olishidan avval qishloqdagi musulmonlarni qochoqlar lageriga va u erdan Pokistonga yuborish lozimligini va bu haqida Musulmon qochoqlar lageri boshlig'iga xabar berib, Mano Majra musulmonlarini evakuatsiya qilish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rilishini buyuradi. Lekin shunday jiddiy vaziyatga qaramay, qishloq ahli orasida ichki nizolar yo'q edi.

Biroq politsiya idorasi boshlig'ining tashrifi Mano Majra qishlog'ini ikki qismga bo'ladi, sikx va musulmonlar jamoasiga. Ular mamlakatning turli qismlarida sikxlarning musulmonlar ustidan o'tkazgan zo'rvonlik va shafqatsizliklarni eslaydi. Musulmon ayollarga tajovuz qilinishi, masjidning vayron qilinishi, musulmonlarning muqaddas kitobi Kur'on karimning oyoq osti qilinib yo'q qilinishi va boshqa yovuzliklar mamlakat bo'ylab sodir etib kelinayotgan edi. Sikxlar esa o'z navbatida, musulmonlar tomonidan sodir etilayotgan barcha vahshiyliklarni o'zaro muhokama qilardilar. Musulmonlar sikxlar gurularidan ikki nafarini va boshqa minglab sikxlarni shafqatsizlarcha o'ldirdi, ibodatxonalarni yoqib yubordi. Islom dinini qabul qilmagan hindularni qirdi, muqaddas kitob Grantx Saxobni yoqib yubordi.

Bunday voqealar sodir bo'lar ekan, Mano Majra ahli uchun musulmonlarni nafrat qilishga yetarli sabablar mavjud edi. Shunga qaramasdan, ular uzoq davr mobaynida ahllikda hayot kechirgan o'zining musulmon hamqishloqlarining Mano Majrani tark etishlarini istamas edi. Ular hatto musulmonlar uy-joylari va mol-mulkularidan ko'z-quloq bo'lishga tayyor edi, lekin Pokiston yeridan kelayotgan hindu va sikxlar oqimi katta edi. Shu tufayli Imom Baxsh boshqa musulmonlarni jamlagan holda qishloqni tark etishi lozimligi ma'lum qilindi.

Ertasi kun ikkita yuk tashuvchi mashina musulmonlarni olib ketish uchun qishloqda hozir edi. Musulmonlar tez kunda Lahor tomon yo'l olishlari haqida xabar topdi va ular faqat kerakli bu-

yumlarni olib Mano Majrani umrbod tark etdi. Ketish chog'ida mulla Imom Baxsh ko'ziga yosh olib o'z Vatani va yillar bo'yi yonma-yon yashab kelgan hindu-sikx birodarlari bilan vidolashadi. Shu bilan birga, Allohdan barcha uchun panoh so'rab duo qiladi.

Shu orada qattiq yomg'ir yog'a boshlaydi. Pokistondan kelgan poezd Mano Majra temir yo'l stantsiyasida to'xtadi. Ertalab shu malum bo'ldiki, poezd murdalarga to'la va hatto daryoda ham jasadlar oqib o'tardi. Jasadlar Pokiston yerlaridan yangi hayot boshlash ilinjida bo'lgan hindu va sikxlardan iborat edi.

Barcha voqeani kuzatayotgan Mano Majra aholisi endi turlicha fikrlaydigan guruhlariga bo'lindi. Ba'zilar sodir etilayotgan hodisalarda musulmonlarni ayblar va ulardan o'ch olish tarafdor, boshqalar, aksincha, qasd olish vaziyatni yanada keskinlashuvga olib kelishini ta'kidlardi. Kechki ibodatga qishloqdagi barcha sikxlar ibodatxonada yig'ildi. Shu paytda ibodatxonaga noma'lum shaxslar tashrif buyurdi. Ular barchaga tungi Pokiston tomon yo'nalgan poezdga hujum rejasini aytib barchani musulmonlardan o'ch olish maqsadida shu rejaning amalga oshirilishiga qo'shilishini talab qildi. Ular musulmonlarni qirib tashlash lozimligi va o'ldirilgan har bir hindu va snkx uchun o'ch olish barcha uchun shart ekanligini ta'kidladi. Shu bilan birga, ular gurularga qilingan shafqatsizliklar, ayollar ustidan zo'ravonliklar va hatto bolalarni vahshiylarcha o'ldirilishini eslatib o'tdi. Barcha qo'llab-quvvatlagandek tinglasada, Mit Singx o'z noroziligini bildiradi. Mit Singx qon to'kilishiga qarshi chiqib, begunohlarning o'limi hech qanday foyda keltirmasligini takrorlaydi va bu poezdda o'z hamqishloqlari ham bo'lishi ehtimolini aytib o'tadi. So'ngra ko'pchilik Mano Majra musulmonlarining begunohligini anglab ularga rahmi keladi. Bundan shu malum bo'ladiki, vaziyat keskinligiga qaramay, insoniy fazilatlar doimo bor bo'lgan.

Lekin shunga qaramay, hujum rejasi ishlab chiqildi. Bu rejadan xabar topgan sudya Xukum Chand esa Iqbol va Jaggut Singxni qo'yib yuborishni buyuradi. Chunki u bo'lajak fojeaviy vaziyat-

ning xaloskori sifatida Iqbol va Jaggutga umid bog'laydi. Iqbol qishloqda sodir bo'layotgan voqealarni eshitib juda afsus chekadi. Lekin u qishloqni qutqarish uchun jasurlik qilib, o'zini qurbon qilishga tayyor emasdi, chunki u jasurligi tan olinmay qolishi va bunday qurbonlik jamiyatning yaxshilanishi uchun hech qanday o'zgarish olib kelmasligi haqida o'ylardi. Jaggut esa aksincha vaziyatdan xabar topgach, musulmonlarni qutqarish chorasini o'ylaydi va hayotini qurbon qilishga ham tayyor edi.

Tunda qurollagan hujumchilar rejalashtirilgandek o'z o'rinlarini egallagan edi. Asosiy hujum poezd ko'prikdan o'tayotganda bo'lishi rejalashtirilgan edi. Poezd yaqinlashar ekan, ko'priki o'stidadagi Jaggut paydo bo'ladi va asosiy xavfli arqonin uzishga kirishadi. Buni ko'rgan hujumchilar unga o'q uza boshlaydi, Jaggut yara-dor bo'ladi va qulab tushishi oldidan arqonni uzishga muvaffaq bo'ladi. Poezd Jaggut tanasi ustidan o'tib Pokiston tomon yo'lida davom etadi.

Kxushvant Singx o'zining mazkur romanida bo'linish davridagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotni va hindu-musulmon aloqalarini Mano Majra qishlog'i timsolida ulkan mahorat bilan tasvirladi. Adib o'z asarida voqelikni juda haqqoniy va ta'sirchan qilib ifodalagan. Bunda yana shu ma'lum bo'ladiki, yozuvchi bunday ziddiyatli vaziyatda musulmonlar yoki hindular tarafida bo'lmay, voqelikni haqqoniy va adolatli ifodalashga muvaffaq bo'ldi. Asarda hindu va musulmonlar o'rtasidagi vahshiylik, zo'ravonlik va boshqa qonli voqealarni ifodalash bilan bir qatorda asl insoniy fazilatlar ham o'z aksini topgan.

Vahshiylik timsollari sifatida Malli boshchiligidagi qaroqchilar va boshqa fanatik sikkalar guruhlarini ko'rish mumkin. Ular bezorilik va qo'poruvchiliklar uyushtirgan holda begunoh insonlarning o'limiga sabab bo'ladi. Ularga qarama-qarshi o'laroq, ezgulik timsollari sifatida Xukum Chand, Jaggut Singx, Mit Singx va Imom Baxshlarni keltirish mumkin. Ular haqiqiy fidoiy insonlar sifatida ezgulikni targ'ib qiladilar. Xukum Chand qishloqdagi musulmonlar taqdiri haqida eng ko'p kuyingan insondir. Shu bilan

bir qatorda, u musulmonlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'p xizmatlarni amalga oshirdi. Sikxlar ibodatxonasi ruho-niysi Mit Singx ham juda oqko'ngil va samimiyligi bilan ajralib turadi. Uning ibodatxonada qishloq ahli oldida so'zlagan nutqi barchani musulmonlarga nisbatan ko'nglini yumshatgan edi. Mit Singx begunohlarning azob chekishiga qarshi chiqib, hamqishloq musulmon ahlining hayotini saqlab qolishga o'z hissasini qo'shdi. Jaggut Singx esa asarda eng jasur va haqiqiy qahramon sifatida gavdalanadi. U o'z jonini qurbon qilsada, sevgilisi musulmon qiz Nuran va boshqa minglab begunoh musulmonlarning jonini saqlab qoldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, asarda hindu va musulmon aloqalarining vahshiy jihatlari ko'rsatilgan bo'lsada, Mano Majra qishlog'i ahlining asl rishtalari samimiylilik, mehr-oqibat va insoniy xislatlar bilan boyitilganligining guvohi bo'lish mumkin. Chunki diniy e'tiqoddan ham ustun tuyg'ular va bag'rikenglik bu ikki din vakillarini asrlar osha birlashtirib kelgan.

Nazorat uchun savollar:

1. *Roman nima haqida?*
2. *Qahramonlar obrazi qanday berilgan?*
3. *Asosiy g'oya qanday ochib berilgan?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Hindu-musulmonlar masalasi qanday ochib berilgan?*
2. *Hindu-sikxlar holatining manzaralari.*
3. *Xulosani sharhlab bering.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д. Пенджабская литература. —М., 1963.*
2. *Чельшев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня. —М., 1991.*
3. *Чельшев Е.П. Культура, мир, прогресс. —Т., 1977.*
4. *Ходжаева Т.А. Хиндистон халқлари адабиёти. —Т., 2010.*

5. Ходжаева Т.А. Пенджабская литература. –Т., 2007.
6. Ходжаева Т.А. Ўзбек-ҳинд мадания, адабий алоқалари тарихидан. –Т., 2012.
7. Кхушвант Сингх. Пакистан ки гари (на хинди). –Дели, 1978.

13-MAVZU. KARTAR SINGX DUGGALNING IJODI

Ma'ruza maqsadi:

1. Adib ijodining ilk davri.
2. Hikoyaning mavzulari.
3. K.S. Duggal qissalari.

Tayanch iboralar: Atoqli adib, psixologik tasvirlar, qissa, roman, hikoyalar, pyesa.

Panjob adabiyotining yuksalishiga katta hissa qo'shgan yozuvchilar Gurbaxsh Singx (1895), Nanak Singx (1897-1971), Sant Singx Sekxon (1908), Navtej Singx (1923) va boshqalar hisoblanadi. Ular qatoriga zamonaviy yozuvchi Kartar Singx Duggalni ham kiritishimiz mumkin.

K.S. Duggal Panjob mutafakkirlaridan biri bo'lib, u 1917 yil 1 martda Dxamiyol (hozirgi Pokiston)dagi Pozohar shahrida tug'ilgan. Uning otasi Sardar Jivan Singx Duggal va onasi Sardarni Satvant Kaur bo'lgan. K.S. Duggal dastlabki ta'limni Lahordagi Forman xristian kollejida oldi. 1940 yil Panjob universitetida o'qib, ingliz tili mutaxassisligi bo'yicha gumanitar fanlar magistri diplomini oldi. U o'z ijodini talabalik yillaridayoq boshladi. Adib 1942-1966 yillarda Umum Hindiston radiosi uchun panjob, hindiy, urdu va ingliz tillarida dasturlar yozib tayyorlagan. 1942 yildan 1957 yilga qadar "Akashvani", ya'ni "Osmon ovozi" radiosida ishladi. Dehlidagi "Panjob yozuvchilar uyushmasi"da, Chandigarxdagi "Panjob adabiyot akademiyasi"da, Hind-Bolgar adabiyoti tashkilotida o'z ishini davom ettirdi. U Lotusdagi Afro-Osiyo yozuvchilar uyushmasi bo'limida bosh muharrir o'rinbosari lavozimida ham ishladi.

Radioda ancha yil ishlaganidan so'ng radiostansiyaga direktor lavozimiga tayinlandi. 1973–1976 yillarda Duggal Rejalashtirish qo'mitasi tarkibiga kiruvchi Axborot va eshittirish vazirligida maslahatchi lavozimini egalladi.

Adib Ram Moxan Roy kutubxonasi hamda Prezident Zokir Husayn Ta'lim fondining birinchi a'zolaridan bo'lgan.

K.S. Duggal ko'p joylarda ishlagan va shuning uchun bu sohalarda ilmi va tajribali yetuk mutaxassis bo'lgan. Hindiy tili qo'mitasi, Pangi san'at Konsulligi va Shimoliy zona madaniyat markazlariga ham a'zo bo'lgan. Dehlidagi Panjob adabiyot majlisida Prezident lavozimida ish yuritgan. AQShdagi Yoga institutida maslahatchi bo'lib ishlagan.

XX asrning 20-yillari oxirlariga kelib, Hindistonda ilk tabaqaviy hind ishchilar tashkiloti vujudga kela boshladi.

Panjobda esa 20-yillarning oxirida mustamlakachilarga qarshi kuch va qurol bilan kurashishga undaydigan terroristlarning yashirin inqilobiy uyushmasi faoliyat ko'rsatar, kommunistik g'oya yanada keng tarqala boshlagan, nafaqat Bombay, Kalkutta, Kanpur kabi yirik shaharlarda, balki Panjobning kichik shaharlarida ham yoyilgan edi.

Milliy Kongress boshchiligida "Akali" partiyasi o'zining inqilobiy kurash g'oyasi sifatida Sikx jamiyatidagi tabaqaviy birlik hamda kuch ishlatmaslik da'volarini ilgari surdi.

1928 yilga kelib, Hindiston milliy ozodlik harakatining yangi bosqichiga kirgan edi. 1929–1933 yillardagi xalqaro iqtisodiy inqiroz hind ishchi tabaqasiga ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, hukumatga qarshi norozilik yanada kuchaydi. Dehqon harakatlari yangi chatus oldi.

Hindistonning mustaqillikka ega bo'lishi, inson huquqlarining himoya qilinishi kabi shiorlar jamoaning turli tabaqalari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Hindistonning mustamlakachilikdan ozod etilishi hamda mustaqillikka erishish "Akali" partiyasining 30-yillardagi asosiy shiori edi.

Avvalgi Sikx siyosiy arboblari sikxizm ta'limotining aha-

1 1925 yillarda sikx yer egalari^{ning} siyosiy tashkiloti.

miyatini targ‘ib qilgan bo‘lsalar, fursat o‘tib, ular ilk sikhizm goyalariga qaytdilar va unda turli din itoatchilarining tengligini ta’kidladilar. Sikhlar, musulmonlar va hindular birligi g‘oyasi Panjob yozuvchilari ijodida muhim o‘rin egallay boshladi. “Ziyoli sikhlardan Panjob milliy adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan ko‘pgina yozuvchilar va jurnalistlar yetishib chiqdi: Vir Singx, Dat Singx, Maya Singx, Kaxan Singx”¹.

Bu davr Panjob adabiyotida kechikkan targ‘ibotchilik davri deb yuritildi. Bu esa, o‘z navbatida, hind tarixida milliy uyg‘onish va R. Thokurning obrazli ifodalanişicha, “G‘arb madaniyatining mo‘jizaviy ta’siri” davri hisoblanadi. Panjob XIX asrning oxiri XX asr boshlarida asosan, xom-ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi markazlardan biri bo‘lgan.

Ingliz mustamlakachilarining siyosati diniy va tabaqaviy ke-lishmovchiliklarga chek qo‘yishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, inglizlar Panjobda vujudga kelgan har bir diniy jamoa uchun o‘z adabiy tiliga: musulmonlar uchun – urdu, hindular uchun – hindiy, sikhlar uchun panjobiyga ega bo‘lishi uchun harakat qilgan va bu bilan Panjobning madaniy rivojlanishiga e’tibor qaratilgan edi. Bularning barchasi Panjobdagi burjua milliylikning turli murakkab shakllari rivojlanishiga hissa qo‘shdi va bu shakllar bir vaqtda mavjud bo‘lsada, umumhind va antiimperialistik oqimga har doim ham qo‘shilib ketmas edi. Bu esa, o‘z navbatida, Panjob adabiyotiga ta’sir ko‘rsatdi.

K.S. Duggalning ijodiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u asosan, Hindistonning bo‘linishidan oldingi Panjobning qa’tiyatli va matonatli ishchilari qalbidagi jarohatlarni yorqin ifodalagan. Bo‘linishdan so‘ng u Hindistonga ko‘chib kelib, Jalander, Dehli, Haydarobod hukumatida nufuzli mansablarda faoliyat ko‘rsatgan. Shuning uchun shahar hayotini juda yaxshi tasvirlagan. Biz uning asarlarida mahorat, psixologik tasvirlar bilan yozilgan lavhalarni topishimiz mumkin. U freydistik usul bilan hammadan yaxshi tasvirlaydi. “Quyosh chiqishi” (1941 yil), “Pipal yaproqlari” (1943 yil) kabilar uning boshlang‘ich ijodiga mansub kichik asarlar to‘plamidir.

¹ Тежа Сингх. Essays in Sikhizm. 131–132-bedar.

“Hayvon” (1947 yil), “Olov yutuvchi” (1948 yil) va “Yangi uy” (1950 yil) nomli asarlari esa bo‘linish kunlaridagi og‘ir damlarni tasvirlaydi. “Gulni uzish taqiqlanadi” (1952 yil), “Mo‘jiza” (1957 yil), “Kenglikda” (1961 yil), “Yorug‘likni yoyish” (1963 yil) asarlari uning ijodi yetukligini ko‘rsatadi. “Majax o‘lik emas” (1970 yil), “Bangia go‘zal” (1972 yil), “Kulgan odam” (1986 yil) kabilar uning keyingi yillarda yozgan kichik asarlar to‘plamidir. 1962 yilda Panjob hukumati K.S. Duggalni “eng yaxshi adabiyotshunos” deb hisoblab, uni “Atoqli adib” mukofoti bilan taqdirladi hamda “Saxitya akadmi” (“Adabiyot akademiyasi”) tomonidan 1965 yilda “Yorug‘likni yoyish” nomli hikoyalar to‘plami uchun taqdirlandi. 1966 yilda “Oyning bir sho‘lasi” nomli hikoyalar to‘plami Hindiston badiiy akademiyasi sovriniga sazovor bo‘ldi. Duggal 1981 yilda Neru mukofoti bilan taqdirlandi¹.

U asarlarida ayol qahramonlarni tasvirlaydi, Duggal Sadat Hasan Manto kabi har xil to‘siqlarni yengib o‘tuvchi matonatli qahramonlarni turli holat va vaziyatlarda tasvirlaydi.

Yozuvchi Panjobda yashagani uchun o‘z qahramonlarini potxoxari mahalliy lahjasida tasvirlaydi. “Bir nol” (1941 yil) asarida “Qara, oshiq kelyapti” asariga o‘xshab qahramonlarga nom bermagan va unda qahramonlar uch toifaga bo‘lingan. Duggalning “Eski shishalar” (1954 yil) asari serqirra tanqidiy asar hisoblanadi. “Shirin suv” (1951 yil), “Bir nigoh, bir qarash” (1982 yil) asarlari uning drama sohasidagi tajribalaridir. Ulardagi dialoglar kitobxonlarning qalbiga ta’sir etadigan she’riy ohangga ega.

Uning “Ichki” (1949 yil) asari haqiqiy hayot tasviridan iborat. Lekin “Qoziq va uchqun” (1957 yil) asari “Savdodagi yurak” (1957 yil), ya’ni flotda xizmat qilgan askarlar haqidagi asari 1947 yildagi bo‘linishga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Adibning trilogiyasi va avtobiografik qissasi o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi. 1981-1984 yillarda u bir qancha asarlar yozgan. Duggalning Panjobda yaratgan asarlarida sotuvchilar va sudxo‘rlar obrazlari mavjud. Adibning birinchi trilogik qissasida hindu va musulmonlar birga yashaydigan Panjob qishlog‘i hamda qahramonlar Britaniya-

¹ <http://www.loc.gov>

ga borgani haqida soʻz yuritiladi. Qissada musulmon va hindular orasidagi doʻstlik qoʻllab-quvvatlangan. Lekin bu doʻstlik musulmonlarning Pokistonga qoʻygan talablari tufayli buzilgan. Shunga muvofiq, asar boʻlinish va ajralish sahnasi bilan tugaydi.

K.S. Duggalning birinchi qissasi “Ona ichsin” nomi ostida chop etilgan. Bu asar ajralishning qonli kunlari haqida yozilgan.

K.S. Duggal oʻz ijodi davomida 17 ta hikoya toʻplami, 6 ta roman, 2 ta sheʼriy toʻplam, 6 ta pyesa va 5 ta bir pardali dramatik asar yozgan¹.

Adibning barhayot qahramonlari yuz bergan tarixiy voqealarni gavdalantiradi. Asarlarda uning badiiy mahorati, voqealarning izchil davom etishini koʻrish mumkin.

Panjob dramaturgiyasida K.S. Duggalning muhim oʻmi bor. Uning bir pardali pyesalaridan “Oʻn beshinchi avgust”, “Qochoq” va boshqalar mashhurdir. 1955 yilda ushbu pyesalar “9 ta drama” nomi ostida alohida toʻplam shaklida bosib chiqarildi. Yozuvchi asarlarining mavzusi va uslubi zamonaviy dramaturgiyaning koʻp qirralarini qamrab olgan.

K.S. Duggalni mashhur qilgan 2 pyesasi mavjud. Ular “Shirin suv” (1957 yil) va “Koʻhkan” (1957 yil)dir. Bu ikkala pyesaning mavzusi bir – yaʼni suvsiz hayot yoʻq, faqat suvgina insonlarga omad va baxt keltiradi. Maʼlumki, bu kabi mavzular Sharq adabiyotida doim ilgari surib kelingan. Adibning pyesalari ham shular jumlasidandir. Bu pyesalarning zamirida Farhod va Shirin afsonasi yotadi. “Shirin suv” pyesasida Duggal Hindistondagi dehqonlar hayoti haqida yozadi. Bunda Farhod timsolidagi qahramon qishloqdagi kanalning ochilishida juda katta xizmat koʻrsatadi va butun xalq undan minnatdor boʻladi.

Uning pyesalaridagi mavzu haqiqiy hayotdan olingan boʻlib, undagi qahramonlar sofdil, xokisor, hayot mashaqqatlariga koʻnikuvchan insonlar obrazi timsolida yaratilgan. Pyesa tili ogʻzaki nutqqa yaqin. “Koʻhkan” nomli pesada esa asar qahramonlaridan biri boʻlgan Shirin Angliyaga oʻqish uchun ketadi. Oʻqish jara-yonida unda bir bogʻ yaratish ishtiyoqi tugʻiladi. Bogʻ uchun esa

¹ www.bse.sci-lib.com

ko'p suv kerak edi. Mana shu paytda uning oldida Farhod hozir bo'ladi. Asarning mana shu ko'rinishlari juda yaxshi aks ettirilgan. Voqealarning bir-biriga bog'liqligi ham ajoyib. Farhod Shirin barpo etmoqchi bo'lgan bog'ga o'zi ishlayotgan kanalning suvini yo'naltiradi va natijada sahroda mo'jizakor bog' barpo etiladi.

Asarda Farhod shaxsiy hayotini, o'z baxtini ikkinchi darajaga qo'yuvchi, doim o'z xalqi, o'sha yurt dehqonlarini o'ylab, qayg'uradigan qahramon timsolida yoritib berilgan.

K.S. Duggal umrining ko'p qismini adabiyotga baxshida etgan inson, deb aytgub mubolag'a bo'lmaydi. U adabiyotga ulkan meros qoldirish bilan bir qatorda, adabiyotning rivojlanishi uchun ko'p mehnat qilgan. K.S. Duggal panjob adabiyotining zabardast namoyandalaridan bo'lib, uning ijodi Panjob adabiyotining XX asr birinchi yarmidagi ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy vaziyati bilan tanishishga imkoniyat beradi.

K.S. Duggal o'zining falsafiy qarashlari bilan ham ajralib turadi. 1999 yilda "The Indian Express" ("Hindiston matbuoti") ro'znomasiga bergan intervyusida Duggal o'zining hayotga bo'lgan munosabatini ifodalay ekan, shunday deydi: "Biz o'zimizdan keyin yaxshi nom qoldirishimiz kerak. Farzandlarimiz yaxshi yashashlari uchun ko'p mehnat qilishimiz lozim".

Nazorat uchun savollar:

1. *K.S. Duggal qaysi yillarda ijod qilgan?*
2. *U o'z ijodida qanday masalalarni ko'targan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *K.S. Duggal qaysi usullarni qo'llagan?*
2. *Uning eng mashhur asarlari.*
3. *Uning qahramonlari va uslubi.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Серебряков И.Д.. Пенджабская литература. —М., 1963.*
2. *Теза Синх. Essays in Sikhism.*

1 Серебряков И.Д. Панжоб адабиёти. —М., 1963.

3. “Джансамта” газеталари. 1998-1999. Мақолалар ва ин-тер-вью.

4. *The Indian Express*. 27 март, 1999.

5. *Бхаратия кахани*. – Дели, 1976 (ҳиндий тилида).

6. *Дуггал К.С.. Пачпан каханияи*. – Дели, 1972.

14-MAVZU. PANJOB VA O‘ZBEKISTONNING ADABIY ALOQALARI

Ma’ruza maqsadi:

1. O‘zbekiston va Hindiston adabiy rishtalari.
2. Panjob shoirlari asarlari O‘zbekistonda.
3. Panjob va o‘zbek so‘z san’ati ustalarining adabiy aloqalari.

Tayanch iboralar: Beruniy, Al-Xorazmiy, Osiyo va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasi, Gurbaxsh Singx, Amrita Pritam, Navtedj Singx, M.R. Anand, “Xotiralar”, “Qora atirgul”, “Yurak sirlari”, Toshkent ovozi.

O‘rta asrlardan boshlab Markaziy Osiyo xalqlari Hind adabiyoti bilan tanisha boshladilar va Forsiyzabon Hindiston adabiyoti va Markaziy Osiyo adabiyoti orasida aloqa bog‘lana boshlaydi. Bu hududlar orasidagi mustahkam aloqalar aloqalar o‘rnatilishiga olimlar, shoirlar, yozuvchilar sababchi bo‘ldilar. O‘rta Osiyo chegaralaridan uzoq mamlakatlarda xorazmlik Beruniy mashhur bo‘ldi. Uning “Hindiston” kitobi geografik, etnografik va tarixiy-madaniy ma’lumotlari jihatidan o‘rta asrlarda yaratilgan mukammal izlanish bo‘lib, unga teng keladigan boshqa birorta adabiyot mavjud emas edi. Sanskrit tilini chuqur bilish, Hindiston geografiyasi bilan yaxshi tanish bo‘lish, hind matematikasi, astronomiyani o‘ta bilimdoni ekanligi ana shunday bebaho asari yaratilishiga zamin bo‘ldi. Kitob oxirida Beruniy ko‘rib chiqqan adabiy, falsafiy, diniy asarlar, o‘rta asr Hindiston olimlari, yozuvchilari asarlari ro‘yxatini hamda ko‘p millatli Hindistonning asosiy tillari haqida ma’lumotlar ham berib o‘tdi. Agar Beruniy o‘z bebaho mehnatlari bilan XI

asrda butun dunyoga Hindistonni tanitgan bo'lsa, xorazmlik olim Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy qadimgi Hindiston va antik matematikaning ilk o'rta asrlar ilmini Yaqin Sharq orqali Evropa-ga olib chiqdi. Dehli sultoni Muhammad Tuglak saroyida o'zbek shoiri, faylasufi astronomi va matematigi Badir Chochiy (Shoshiy) yashab ijod etgan. Chochiy Sharqda mashhur bo'lgan. Uni G'arbda ham tanilgan. U 1344 yilda olamdan o'tgan.

O'rta Osiyo bilan Hindiston aloqalari XVI asrda Bobur Hindiston saltanatiga asos solganda yangi bosqichga ko'tarildi. Bobur saroyida, uning avlodlari davrida adabiyotda fors tili rivojlandi va O'rta Osiyo olimlari bilan muntazam aloqa olib borildi.

O'zbekistondagi Sharqshunoslik instituti fondida hindcha-forscha asarlar asl nusxasining kattagina qismi saqlanib qolgan. 1947 yil 15 avgustda Hindiston mustaqillikka erishdi. Hindistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi qardosh mamlakatlar adabiyoti va madaniyati sohasidagi aloqalarining yangi bosqichi bo'ldi. Ayniqsa, mamlakatimiz xalqlari Hindiston adabiyotiga katta qiziqish bildirdilar. Adabiy aloqalarning rivojlanishiga alohida shoir va adiblarning asarlarini tarjima qilinishi muhim omil bo'ldi, ijodiy uchrashuvlar kitobxonlarning ularga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi. Butun Hindistonda bo'lganidek, Panjobda ham o'zbek shoir va yozuvchilari: H.H. Niyoziy, H. G'ulom, A. Qahhor, A. Qodiriy, Oybek, H. Olimjon, G'. G'ulom, Zulfiya, Sh. Rashidov, A. Muxtor va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlarini qiziqib o'qiydilar.

O'zbekistonda esa kitobxonlar katta qiziqish bilan panjoblik shoir va yozuvchilar asarlari bilan tanishadilar.

Shoira A. Pritamning "Bxangra" (1958), "Yorug' tun" (1958), "She'r yozaman", "Xat", "Sevgi ko'zasi", "Yil", "Yo'l", "Sharq shamoli" (1958), "Qaqnus qushi"¹, "Istar oyi", "Kichik Shohani" ("Bir savol" romanidan parcha) (1961), she'rlar to'plami: "Qora atirgullar" (1971);

Balvant Gargi – hikoyalari: "Suv tomchisi" (1955), "Gangga sayohat" (1955), "Qo'l siqishish" (1955), "Panjoblik ayol" (1956),

¹ A. Притам she'rlari Zulfiya tarjimasida. O'zbekiston xotin-qizlar jurnali. – T., 1958, 5-son.

“O‘pich”, “Imtiyozli bilet”, “Rossiyalik og‘alar” (1949), “Dunyo xalqlari tilida yoshlikning tarannum etilishi” (1955), “Yubiley bileti” (1955), “Bug‘ doyning besh doni” (1960) va boshqalar;

Prabdjat Kaur she‘lari: “Sevgi”, “Karvonlar”, “Savan qo‘shig‘i” (1959), “Uyqu vaqti”, “Uyg‘onganda”, “Uyga qayt, soldat”;

Bxai Vir Singx – “Gul arzi”, “Qishloq” (1958), “O‘zgalar g‘amini ko‘rganda” (1958), “Ko‘ldagi qayiq”, “Qafasga solingan qush qarg‘ishi” (1958), “Iltimos”, “Oy shulasi”, “Day ko‘li”, “Sad Nishad”, “Nasim xiyoboni”, “Anant Nag sarchashmasi”, “Oltin-gugurt chashmasi – Anant Nag chashmasining qo‘shnisi”, “Vular ko‘li”, “Lidxari darsi qirg‘oqlarida”. “Kashmir bilan xayrlashuv”, “Binafsha – uni uzib olganlarida”, “Yonayotgan qush – qafasni maqtaganlar uchun”, “Yangi Kashmir”, “Titroq toshlar”;

Pritam Safir Singx – “Toshkentlik yosh do‘stimga” she‘rlar (1958);

Satxi Surdjat Singx – “Ingliz inglizligicha qoladi” hikoyalari;

Trilochan Singx – “Do‘stlik tongi”;

Moxan Singx – she‘rlar: “Nok sotuvchisi” (1957), “Ayri-liq haqida qo‘shiq”, “Kalidasga bag‘ishlov”, “Poxoxarilik qiz”, “Dunyo qo‘shig‘i” (1958), “Yoshlar qo‘shig‘i”, “Bahor” (1958), “Kashmir”, “Kutish”, “Sohib Kaur”, “Panjoblik qiz qo‘shig‘i”, “Qo‘shiq”, “Azizam uchun yashayman”, “Yulduzlar”, “Ikki kapalak”;

Navtadj Singx – “Vatanga qaytish”, “Yangi ma‘no” (1951), “Doya” (1952), “Bolalar” (novellalar, 1954), “Yangi hayot” (1954), “Uchrashuv” (1956), “Olamning yetti mo‘jizasi” (1961), “Malina to‘pgullari” (1953), “Bolalarga” (1954), “Oqim bo‘ylab mo‘ljalsiz” (1954), “Hikoyalarni himoya qiling” (“Dunyo yo‘llari-da” kitobidan, 1962), “Palto va ruhiyat” (1961);

Gurval Singh (Pannu) – hikoyalar: “Garov”, “ziynat” (1958), “To‘ralardan qolgan sarqit” (1958), “Janob sudya”, “Ombur-chalar” (1960).

Gurbaxsh Singx – “Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” (1961), “Andjxu Guru” (hikoya, 1957);

Dxani Ram Chatrik – she’rlar: “Panjob”, “Kambag‘al dehqon” (1958), “Za‘faron gullar” (1962), “Panjob tili”, “Shoir”, “Panjoblik onalar yig‘isi”, “Beva qiz”, “Amritsar”, “Setor torlari”, “Favvora”, “Chinor”, “Qo‘shiq”, “Yomg‘irlar”, “Bahor”, “Tabiat shoirning tangrisi” va boshqalar;

Gurchan Rampuri – she’rlar: “Biz – dunyoning yoshligimiz”, “Xitoyliklarga salom” (1958), “Shior “Urushga yo‘l yo‘q”, “Zulmatdagi nur”, “Seni kutib”, “Bahor gulladi”, “Taqdirimdan noliyman”;

Dxir Santokx Singx – she’rlar: “Qo‘shiq”, “Xotiralar” (1958);

Sant Singx Sekxon – hikoyalar: “Qo‘sh haydovchi va qam” (1957), “Ikki sevishganlar haqida afsona” (1958), “Pemning farzandlari” (1959);

Kxushvant Singx – “Men soldatni ko‘rganimda” (1958).

* * *

To‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar va delegatsiyalar almashinuvi O‘zbekiston va Hindiston xalqlari uchun ikki mamlakatning bir-birlarining hayoti, madaniyati va adabiyoti bilan keng tanishuviga imkoniyat yaratdi. 1958 yil Osiyo va Afrika shoir va yozuvchilarining Toshkent konferentsiyasida O‘zbekiston Hindiston shoir va yozuvchilarini iliq kutib oldi. Ular orasida taniqli panjob shoir va yozuvchilari: Mulk Radj Anand, Gurbaxsh Singh, Pragji Dossa va Amrita Pritamlar bor edi. A. Pritam shoira Zulfiyaning aziz mehmoni bo‘ldi. A. Pritam Toshkentga uch marta keldi. 1958, 1961, 1966 yillarda. Uning aytishicha, Toshkentda unga “O‘lmasxonim” deb ism berishdi (Amritaning tarjimasida “o‘lmas”, “mangu”). O‘z vataniga qaytib Amrita Pritam “Deraza va darchalar” (1962) to‘plamini nashr ettirdi. Bu to‘plamda shoira O‘zbekiston haqida ham o‘zining eng iliq taassurotlarini hikoya qildi. Shoira Farg‘ona vodiysi va Samarqand sayohatini to‘lqinlanib tasvirlagan. U yangi hayotga qadam bosgan o‘zbek ayollari haqida faxrlanib yozdi. Kitobning nomi timsoliy, ya‘ni ikki qo‘shni uy derazalari – ikki

do'stona mamlakat darchalari bir-biri uchun ochiq. Ikkinchi kitob "Xotiralar" (1962) deb ataladi. U Zulfiyaga bag'ishlangan. 1962 yil aprelida "Dxarmyug" jurnali A. Pritamning O'zbekiston haqidagi xotiralarini e'lon qildi. Xotiralarda Zulfiya qalami haqida gapiriladi. 1961 yilda G'. G'ulom va H. G'ulomlar taklifi bilan O'zbekistonga Hindistonning bir qancha adiblari va jamiyat arboblari – Butun Hindiston tinchlik Qo'mitasi vitse prezidenti, Butun jahon tinchlik tashkiloti a'zosi Gurbaxsh Singx, Butunhindiy yoshlari federatsiyasi vitse prezidenti Navtedj Singxlar tashrif buyurdilar. 1955 yilda Gurbaxsh Singx ilk bor tinchlik uchun kurash tarafdorlari delegatsiyasi qatorida Moskvada bo'ldi. 1958 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilari konferensiyasida Hindiston nomidan Toshkentga keladi. Shoirlar ichida uning do'stlari ko'p. Ular Mirzo Tursunzoda, Nikolay Tixonov, Zulfiya. 1956 yilda shoira Zulfiya Osiyo yozuvchilari konferensiyasida qatnashish uchun Dehliga bordi. Gurbaxsh Singx ham shu yerda edi. Ular shu yerda, qabul marosimida uchrashib, tanishdilar. Zulfiya panjoblik yozuvchini Toshkentda bo'lib o'tadigan navbatdagi konferensiyaga taklif qildi. 1958 yili Toshkent konferensiyasi ochilishida Gurbaxsh Singx nutq so'zladı. O'z chiqishi bilan u internatsionalistik harakatiga ta'sir ko'rsatdi. Zulfiya G. Singx taklifiga binoan Pritnagarda bo'ldi. Shu bilan birga M. Tursunzoda, Sevunts, Abashidze, Mustafin, Sadibekov, Safronov va Simonovlar ham bor edilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Gurbaxsh Singx Rossiya bilan qiziqdi. Unga mamlakat va uning sotsialistik sistemasi yoqdi. U ko'p yoza boshladi. O'zining "Prit Lari" jurnali sahifalarida rus, o'zbek so'z san'ati ustalarining asarlarini chop ettirib bordi.

Gurbaxsh Singx 20 ga yaqin kitob yozdi. Ular ichida romanlar, hikoyalar to'plami, maqolalar bor. U ajoyib tarjimon, panjobliklarga M. Gorkiyning "Ona" romanini taqdim etgan. Roman tarjiması avval ham bor edi, biroq sifati jihatidan unchalik a'lo darajada emas edi. Gurbaxsh Singx faoliyatining ajoyib maqsadi bor edi – asosiy narsa xalqqa xizmat etish. Uning jurnallari va u boshqargan nashriyotlar, dunyo tinchligi harakatidagi ishtiroki,

do'stona mamlakat darchalari bir-biri uchun ochiq. Ikkinchi kitob "Xotiralar" (1962) deb ataladi. U Zulfiyaga bag'ishlangan. 1962 yil aprelida "Dxarmyug" jurnali A. Pritamning O'zbekiston haqidagi xotiralarini e'lon qildi. Xotiralarda Zulfiya qalami haqida gapiriladi. 1961 yilda G'. G'ulom va H. G'ulomlar taklifi bilan O'zbekistonga Hindistonning bir qancha adiblari va jamiyat arboblari – Butun Hindiston tinchlik Qo'mitasi vitse prezidenti, Butun jahon tinchlik tashkiloti a'zosi Gurbaxsh Singx, Butunhindiylar yoshlari federatsiyasi vitse prezidenti Navtedj Singxlar tashrif buyurdilar. 1955 yilda Gurbaxsh Singx ilk bor tinchlik uchun kurash tarafdorlari delegatsiyasi qatorida Moskvada bo'ldi. 1958 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilari konferensiyasida Hindiston nomidan Toshkentga keladi. Shoirlar ichida uning do'stlari ko'p. Ular Mirzo Tursunzoda, Nikolay Tixonov, Zulfiya. 1956 yilda shoira Zulfiya Osiyo yozuvchilari konferensiyasida qatnashish uchun Dehliga bordi. Gurbaxsh Singx ham shu yerda edi. Ular shu yerda, qabul marosimida uchrashib, tanishdilar. Zulfiya panjoblik yozuvchini Toshkentda bo'lib o'tadigan navbatdagi konferensiyaga taklif qilindi. 1958 yili Toshkent konferensiyasi ochilishida Gurbaxsh Singx nutq so'zladidi. O'z chiqishi bilan u internatsionalistik harakatiga ta'sir ko'rsatdi. Zulfiya G. Singx taklifiga binoan Pritnagarda bo'ldi. Shu bilan birga M. Tursunzoda, Sevunts, Abashidze, Mustafin, Sadibekov, Safronov va Simonovlar ham bor edilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Gurbaxsh Singx Rossiya bilan qiziqdi. Unga mamlakat va uning sotsialistik sistemasi yoqdi. U ko'p yoza boshladi. O'zining "Prit Lari" jurnali sahifalarida rus, o'zbek so'z san'ati ustalarining asarlarini chop ettirib bordi.

Gurbaxsh Singx 20 ga yaqin kitob yozdi. Ular ichida romanlar, hikoyalar to'plami, maqolalar bor. U ajoyib tarjimon, panjobliklarga M. Gorkiyning "Ona" romanini taqdim etgan. Roman tarjimasini avval ham bor edi, biroq sifati jihatidan unchalik a'lo darajada emas edi. Gurbaxsh Singx faoliyatining ajoyib maqsadi bor edi – asosiy narsa xalqqa xizmat etish. Uning jurnallari va u boshqargan nashriyotlar, dunyo tinchligi harakatidagi ishtiroki,

o'quvchilar bilan keng yozishmalari – bularning bari uning katta nufuz egasi bo'lib etishishiga sabab bo'ldi.

Ko'plab O'zbekistonlik shoir va yozuvchilarni uzviy do'stlik aloqalari bog'lab turdi. Shoir Zulfiya A. Pritam bilan, shoir Nabi Muhamedov shoir Set Tandon va shoir Navbahor Sabar bilan do'st edilar.

Javoharlal Neru mukofoti sovrindori Zulfiya panjoblik shoir va yozuvchilar asarlari – she'rlari, hikoyalarini o'zbek tiliga hikoya qildi. 1970 yilda Dehlida bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika yozuvchilar konferensiyasida ishtirok etgan Zulfiya bundan ta'sirlanib “Mushoira” poemasini yozdi. Poemada shoiraning Hindiston go'zalligidan hayratlanganini sezish mumkin. Dugonasi A. Pritam sha'niga iliq so'zlar aytdi:

Mana xuddi sevgidek tiniq,

Panjob bulbuli kuylar.

Cho'g'dek yurakni yoqar,

Onam ovozidek tuyular.

“Uyqudagi malika” nomli o'z ocherkida A. Pritam O'zbekiston vodiylaridan birini qizga o'xshatadi, u qizning mehnatga turmushga chiqqanini va endi Farg'ona vodiysi deb atalishini aytadi. 1971 yilda Toshkentda A. Pritamning “Qora atirgul” she'rlar to'plami bosildi. A. Pritamdan tashqari yana Gurbaxsh Singx, Balvant Gargi – “Panjoblik ayol” (1958), “Suv tomchisi” (1958), Navtaj Singxning “Bolalar” (1960) va ko'plab ijodkorlarning asarlari o'zbek tilida chop etildi. 1974 yilda o'zbek yozuvchisi Yusuf Shomansurning “Raycharan” poemasi chop etildi. U Hindiston xalqi hayotiga bag'ishlangan. 1970 yilda Ro'zi Qodiriy “Hind shoirasi” nomli poemasini yozdi. U panjoblik shoir Kaurga bag'ishlangan.

Taniqli o'zbek yozuvchisi Sh. Rashidov ham Hindiston haqida yozdi. Uning kitobi “Kashmir qo'shig'i” deb ataladi. Panjobda esa O'zbekiston shoirlari haqidagi “Toshkent ovozi” degan kitob

chop etildi. “Jahon Adabiyoti” jurnalida 2001 yilda K.S. Duggalning “To‘lin oy kechasi” degan romanini Amir Fayzullaev tarjima qilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. *Hindiston va O‘zbekiston adabiy aloqalari rivoji qaysi davrga to‘g‘ri keldi?*
2. *O‘zbekistonda qaysi panjob adiblarining asarlari chop etildi?*
3. *Panjob yozuvchilari bilan O‘zbekiston yozuvchilari adabiy aloqalari qanday bordi?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *G.Singx va O‘zbekiston.*
2. *O‘zbekistonda panjob shoir va yozuvchilarning asarlari*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Толстов С.И. Бируни и его время. –Л., 1950.*
2. *Рустамов У.А. Из истории экономических, политических и культурных связей народов Средней Азии и Индии в конце XIX начале XX веков. –Т., 1958.*
3. *Поэты Индии. –Т., 1958.*
4. *Стихи пенджабских поэтов. –М., 1957.*
5. *Журнал “Шарк Юлдузи”. 1970, №10.*
6. *Ходжаева Т.А. Ўзбекистон ва Ҳиндистон адабий алоқа-лари тарихидан (монография). –Т., 2011.*
7. *Ходжаева Т.А. Ўзбек-ҳинд маданияй алоқалари тарихидан. –Т., 2012.*

GLOSSARIY

Fan: Panjob adabiyoti

sikxizm – XVI asrda Panjobda paydo bo‘lgan din;

sikx – shogird;

guru – ustoz;

gurudvara – sikxlarning oshxonasi;

namdxari – sikxizm dinining sektalaridan biri;

chaupai – to‘rtlik. To‘rt misradan iborat mustaqil she‘riy asar;

rasa – zavqlanish holati;

multani – o‘rta asrlar panjob tilining adabiy shevasi;

natx – himoyachi;

varx – epik dostonlar;

pir – pir, murshid;

beyt – arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotshunosligidagi

ikki misra she‘rning nomi;

baraxmax – she‘riy janr;

kxalsa – sikxlarning mustaqil jamoasi;

kissa – lirik-epik doston;

“Nagmani” – panjob tilida 1966 yildan boshlab chiqqan jurnal;

Amrita – tarjimada – “o‘lmas”, “umrboqiy”;

zarisovka – rexxachitra – nasrchiликning kichik janri - ko‘rinishi;

Kxam karna – mehnat qilmoq;

Vand chaxna – mehnatini samarasini ko‘rmoq;

Nam jakna – xudoning nomini aytish;

“Prit Lari” – panjob tilida (Gurbaxsh Singx) chiqadigan jurnal;

jat(lar) – dehqonchilik, ziroatchilik bilan shug‘ullanuvchi Panjob, Uttar, Pradesh va Radjastxon shtatlari chegaralarda istiqomat qiluvchi qabilalar. Ayni vaqtda, tatlar kasta hisoblanadi;

panjobi – panjob xalqining milliy tili, uning malvai, mandjxi, dogri, pototxari, kangri, laxida kabi shevalari ham mavjud.

TEST SAVOLLARI:

1. Sikxizm. Sikxizmning asoschisi
 - a) Guru Arjun (XVI)
 - b) Guru Nanak (XVI)
 - v) Nanak Singx (XVIII)
 - g) Sheyx Farid (XV)
2. Sikxizm dinning asosiy qonunlari
 - a) Xudo oldida hamma teng, erkak va ayollar tengligi
 - b) kastachilikni tan olish
 - v) ko'p xudolarga sig'inish
 - g) sati urf-odatini saqlash
3. Qaysi Guru davrida Xalsa tashkiloti barpo etildi?
 - a) Guru Arjun
 - b) Xar Govind
 - v) Govind Singx
 - g) Nanak
4. Sikxizmnda qaysi qoidani ko'pchilik tan oladi?
 - a) soch olmaslik
 - b) mo'ylov qo'yish
 - v) uzun shim kiyish
 - g) oq kiyim kiyish
5. Sikxizmning muqaddas kitobi
 - a) Adi Grantk
 - b) Patti
 - v) Dakxni Omkar
 - g) Grand Sohob
6. XVI asr Panjob adabiyotidagi janrlar
 - a) g'azal
 - v) ruboi
 - b) qissa
 - g) nazm.
7. XVIII asr adabiyoti da eng mashhur shoirlar?
 - a) Bulle Shax, Varis Shax

- b) Shayx Farid
 - v) Dag
 - g) Amanat
8. Panjobda keng tarqalgan qissalar
- a) "Mirza va Saxiban", "Sassi va Punnu"
 - b) "Maxabxarata"
 - v) "Ramayana"
 - g) "Tohir va Zuxra"
9. XX asr boshida Panjob romannavisligiga kim asos solgan?
- a) N.Ahmad
 - b) R.Tagor
 - v) Nanak Singx
 - g) A.Pritam
10. Panjob adabiyotida yangi davrda ilk bor qaysi yozuvchi ilk romanlarni yaratadi?
- a) Bulla Shax
 - b) Vir Singx
 - v) Ram Lal
 - g) Lallu ji
11. 40-50 yillardagi Panjob adabiyotida qanday o'zgarishlar ko'zga tashlanadi?
- a) she'riyat rivojlanishi
 - b) nasr taraqqiyoti
 - v) dramnavislik
 - g) g'azalnavislik
12. Mustaqillikdan keyingi davrda qanday mavzular panjob adabiyotida ayniqsa ko'proq ko'tariladi?
- a) oila qurish
 - b) milliy birdamlik va ijtimoiy adolat
 - v) tinchlik uchun kurash
 - g) eski urf-odatlar
13. Zamonaviy Panjob nasr, ayniqsa romannavislikka katta hissa qo'shgan yozuvchilar
- a) K.Chandar

- b) Gurbaxli Sinrgx
 - v) Yashpal
 - g) M.Ikbal
14. A.Pritam ijodi qaysi yillarga to'g'ri keladi?
- a) 50–yillar
 - b) 60-70–yillar
 - v) 40-80–yillar
 - g) 90–yilar
15. A.Pritam qaysi she'riy to'plamlarni chiqargan?
- a) Sovuq nurlar, Borliq, Qora Atirgul, Nagmani
 - b) Gitanjali
 - v) Davr ovozi, Qishloqlik
 - g) beva dardi
16. Nasrda uning yoshlar hayotiga bag'ishlangan asarlari
- a) "Doktor Dev"
 - b) "Bir savol"
 - v) "Cho'ntakkesar"
 - g) "Nagmani"
17. A.Pritam ijodining etakchi mavzusi
- a) urush va tinchlik
 - b) kastachilik
 - v) ayollar taqdiri
 - g) dehqonlar hayoti
18. XX asr 50-60 yillarda panjob adabiyotida qaysi janr ayniqsa rivojlanib boradi?
- a) nazm
 - b) drama
 - v) qisqa hikoya
 - g) maqola
19. Hikoyanavislardan qisqa hikoya janr rivojlanishiga kim o'z hissasini qo'shgan?
- a) Sarmar, Sharar
 - b) Santokx Singx Dxiv Javant Singx Kamval
 - v) Mirza Rusva, Nazir Axmad

g) Ram Moxan Roy, Moxan Singx

20. Hikoya va drama janrini rivojlantirishga kim o'z hissasini qo'shgan?

a) Bxaratendu Xarimchandra

b) Medxushudon Dotto

v) M.R. Anand

g) K.S.Duggal, B.Gargi

21. Panjob yozuvchilardan kim O'zbekistonga tashrif buyurgan?

a) B.V.Singx, S.P.Singx

b) A.Pritam, Gurbaxsh Singx, K.S.Duggal, Navtej Singx

v) B.Gargi, M.Singx

g) D.R.Chatrik

22. Atoqli o'zbek xalq shoira Zulfiya qaysi panjob yozuvchilari bilan ijodiy do'stona aloqada bo'lgan?

a) P.S.Safir

b) K.S.Dugal

v) A.Pritam, G.Singx

g) Navtej Singx

23. O'zbekistonda panjob yozuvchi A.Pritamning qaysi she'riy to'plami chiqqan?

a) "Borlik"

b) "Nagmani"

v) "Qora atirgul"

g) "Dil sirlari"

24. Panjob tilga qaysi o'zbek adiblarning asarlari tarjima qilingan

a) A.Qahhor

b) Zebunniso

v) O'.Hoshimov

g) Zulfiya, G'.G'ulom, H.Olimjon

25. VIII-X asarlarda panjob adabiyotida qanday epik DOS-tonlar keng tarqalgan?

a) Maxabxarata

- b) Ramayana
 - v) Natxlarepik dostonlari
 - g) varalar
26. Kabir asarlari sikxlarning qaysi muqaddas kitobiga kiritilgan?
- a) Adi Grantx
 - b) Qissa
 - v) Varalar
 - g) Grantx Sohib
27. "Adi Grantx"ga kiritilgan asarlar mualliflari qaysi qatlamdan chiqqan?
- a) Dehqon, hunarmand
 - b) Zamondor
 - v) Sudxo'r
28. Panjob zaminida qanday qadimgi sivilizatsiya tashkil topgan?
- a) Xarappa
 - b) Moxenjo Daro
 - v) Buddizm
29. Sikxizm qaerda vujudga kelgan?
- a) Panjob
 - b) Kashmir
 - v) Orissa
30. Sikxizmning paydo bo'lish davri
- a) XVI asr
 - b) XVII asr
 - v) XVIII asr
31. Inglizlarga bo'ysungan eng oxirgi shtat?
- a) Panjob
 - b) Kerala
 - v) Tailand
32. Panjob adabiyotida eng qadimgi adabiy yodgorlik?
- a) Radja Rasalu haqida qissa
 - b) doston

- v) nazm
33. Panjobda asosiy til?
- a) panjob tili
 - b) hindi
 - v) urdu
34. VIII-X asrda adabiyotda qanday janrlar uchraydi?
- a) Qisqa she'rlar
 - b) madhiya
 - v) doston
35. XIII asrda qaysi shoirning asarlari mashhur bo'ldi?
- a) Shayh Farid
 - b) Shax Singx
 - v) Ratan
36. "Adi-Grantx" muqaddas kitobini kim to'plagan?
- a) Arjun
 - b) G.Singx
 - v) X.Singx
37. Sikxizm dinida eng muhim diniy ustozlarga qanday nom berilgan?
- a) Guru
 - b) Domulla
 - v) Yo'l ko'rsatuvchi
38. Sikxizmida qancha guru bo'lgan?
- a) 10
 - b) 8
 - v) 5
39. XVII asrda adabiyotda qanday yangi yo'nalish paydo bo'ladi?
- a) hajviy
 - b) kulgi
 - v) tanqidiy
40. Nasriy janrlar qachon paydo bo'ladi?
- a) XVII asrda
 - b) XVIII asrda

- v) XIX asrda
41. Sikxlarning mustaqil jamoa nomi?
- a) Kxalsa
b) gurudvara
v) uyushma
42. Panjobda XIX asr 20-yillardagi yirik davlat arbobi?
- a) Ranjit Singx
b) G.Singx
v) X.Singx
43. Eng yirik (XVIII) lirik dostonlar.
- a) "Sassi va Punnu", "Soxni va Moxival"
b) "Layli va Majnun"
v) "Farhod va Shirin"
44. Mustaqil sikx davlati bor edimi?
- a) ha, XVIII asr
b) yo'q
v) XIX asr
45. Birinchi gazetalar qachon chiqdi?
- a) XIX asrda
b) XVIII asrda
v) XX asrda
46. Xalsa kolleji qachon tashkil topgan?
- a) 1892
b) 1900
v) 1907
47. XIX asr oxiridagi yirik panjob adiblari
- a) Vir Singx
b) Chatrik
v) S.Shaxid
48. Birinchi panjob romanlarning chiqishi?
- a) XIX asr
b) XX
v) XVIII
49. XX asr boshida panjob adabiyotida lirik she'riyat rivoj-

tanadimi?

- a) ha
- b) yo‘q
- v) kam

50. *Kimning ijodida?*

- a) Vir Singx
- b) B.Shoh
- v) V.Shoh

51. XX asr 30-yillarda roman janriga kim murojaat qilgan?

- a) Namak Singx
- b) G.Singx
- v) Kamvel

52. Gurbaxli Singx qaysi jurnalni chiqargan?

- a) Prit Lari
- b) Prit Lexir
- v) Pritam

53. Panjob shoirasi A.Pritam she‘rlari O‘zbekistonda chiqaril-

ganmi?

- a) ha
- b) yo‘q
- v) kam

54. A.Pritam qaysi o‘zbek shoirasi bilan do‘st bo‘lgan?

- a) Zulfiya
- b) S.Zunnunova
- v) Oynisa

55. Tinchlik mavzusini kim o‘z asarlarida yoritgan?

- a) Kamval
- b) Dxir
- v) B.Gargi

56. Zamonaviy panjob adabiyotida kam rivojlangan janr?

- a) drama
- b) ocherk
- v) maqola

57. Bir pardali drama rivojlanganmi?

- a) ha
- b) yo‘q
- v) kam

58. Uning yirik vakili

- a) K.S.Duggal
- b) Kaur
- v) N.Singx

59. Panjob adabiyoti bilan o‘zbek kitobxonlar qachon taniqli boshlandi?

- a) 50-yillarda
- b) 60
- v) 70

60. Hamza she‘rlarini Panjobda bilishadimi?

- a) Ha
- b) yo‘q
- v) kam

ADABIYOTLAR:

1. Библиография Индии. –М., 1965. – 608 с.
2. Библиография Индии. –М., 1976. – 683 с.
3. Библиография Индии. –М., 1982. – 165 с.
4. Брагинский И.С. Проблемы востоковедения.
5. Бушмин. Методологические вопросы литературоведения. Исследования. –М., 1961. – 69 с.
6. Введение в литературоведение (хрестоматия). –М., 1979. – 291 с.
7. Взаимосвязи литератур Востока и Запада. –М., 1970. – 159 с.
8. Вопросы истории, экономики, культуры народов Средней Азии стран Зарубежного Востока. – вып. I. –Т., 1970. – 159 с.
9. Генезис романа в литературах Азии и Африки. –М., 1980. – 288 с.
10. Тулеев Н.А., Богданов А.Н., Юдкевич Л.Т. Теория литературы в связи с проблемами эстетики. –М., 1970. – 379 с.
11. Идеологические проблемы современной Индии. –М., 1970. – 236 с.
12. Идеологические проблемы современной Индии. –М., 1970. – 221 с.
13. Индия. –Т., 1973. – 106 с.
14. История индийских литератур / Под ред. Нагендры. –М., 1964. – 808 с.
15. Конрад Н.И. Запад и Восток. –М., 1972. – 496 с.
16. Кочнев В.И. Государство сикхов и Англия. –М., 1968. – 173 с.
17. Литературы зарубежной Азии в современную эпоху. –М., 1975. – 336 с.
18. Литературы Индии. –М., 1973. – 248 с.
19. Литературы Индии. –М., 1979. – 230 с.

20. *Литература и фольклор народов Востока.* —М., 1967. — 255 с.
21. *Литература Востока средних веках.* —М., 1970. — 470 с.
22. *Литература Востока в новое время.* —М., 1975. — 706 с.
23. *Литература Востока в новейшее время.* —М., 1977. — 526 с.
24. *Методология современного литературоведения. Проблемы историзма.* —М., 1976.
25. *Новая История Индии.* —М., 1959. — 834 с.
26. *Новейшая история Индии.* —М., 1959. — 758 с.
27. *Политическое развитие и общественная мысль Индии в новое и новейшее время.* —М., 1976.
28. *Поэзия народов Индии.* —М., 1962.
29. *Поспелов Г.Н. Теория литературы.* —М., 1978. — 342 с.
30. *Поэты Индии.* —Т., 1958. — 311 с.
31. *Притам Амрита. Черная роза (сборник стихов).* —Т., 1971. — 145 с.
32. *Притам Амрита. Тайны Сердец (сборник стихов).* —Алма-Ата, 1977.
33. *Проблемы психологизма в художественной литературе.* —Томск, 1980.
34. *Проблемы романтического метода и стиля // Межвузовский тематический сборник.* —Калининград, 1980. — 161 с.
35. *Проблемы становления реализма в литературах Востока.* — М., 1964.
36. *Рассказы индийских писателей.* —М., 1959. — 487 с.
37. *Рассказы индийских писателей.* —М., 1972. — 447 с.
38. *Сдасюк Г.В. Штаты Индии.* —М., 1981. — 368 с.
39. *Семенова Н.И. История сикхского движения в Индии.* 1963. — 135 с.
40. *Семенова И.Д. Государство сикхов.* —М., 1958.
41. *Серебряков И.Д. Литературный процесс Индии.* —М., 1979. — 142 с.

42. Серебраков И.Д. *Очерки древнеиндийской литературы*. М., 1971.
43. Серебряков И.Д. *Пенджабская литература*. –М., 1963. 193 с.
44. *Современная индийская проза*. –М., 1962. – 385 с.
45. *Современный индийский рассказ*. –Т., 1957. – 309 с
46. *Словарь литературоведческих терминов*. –М., 1974. – 109 с.
47. Аъзамова С. *Панжоб ва Ўзбекистон*. –Т., 1975.
48. Чельшев Е.П. *Современная индийская литература*. М., 1981.
49. Чельшев. Е.П. *Индийская литература вчера и сегодня*. М., 1989.
50. Чельшев. Е.П. *Культура, мир, процесс*. –Т., 1977.
51. Нанак Сингх. *Олтин ўқ*. –Т., 1975.
52. Даршан Сингх, Олесь Бенюх. *От Ганга до Днепра*. –М., 1971.
53. *Чироқ ёнар тун бўйи*. –Т., 2006.
54. Ходжаева Т.А. *Ўзбекистон ва Ҳиндистон адабий алоқалари тарихидан (монография)*. –Т., 2011.
55. Ходжаева Т.А. *Ўзбек-ҳинд маданият алоқалари тарихидан*. –Т., 2012.

INGLIZ TILIDAGI ADABIYOTLAR:

1. Ahluwalia Jasbir Singh. *Panjabi literature in oerspektive*. – Zudhiana, Kalyani Publishers, 1976. – 176 p.
2. Ahlivalia S. *Modem Panjabi poetry*. Ferospore. Bawa publishing House 2 1960.
3. Chabra G.S. *Advansed stidy in the history of the Panjab*. – Zudhiana, 1961.
4. Harbans Singh. *Aspekts of Panjabi literature*. Ferospore Cant. 1973.
5. Kohli Suresh. *Sex violence in literature arts*. –New Delhi. 1973.
6. Krishna kriplani. *Modem Indian literature (a panoramic*

glimpse). —Delhi. 1976.

7. *Machwe, Prabhakar Balwant. Four decades of Indian literature.* —New Delhi, 1976.

8. *Mahfil, Michigan state University East Zansing, Michigan, 1968-1969. volume 3.* — 135 p.

ΠΑΝΔΕΙΟΤΑ:

1. *Суриндар Сингх Кохли. Панджаби сахитт да итихас.* —Лудхиана, 1955.

2. *Хира Сингх Дард.* — Уттаран вич Панджаби сахитт да итихас. —Джаландхар, 1961.

3. *Суриндар Сингх Нарула. Панджаби сахитт да итихас.* Амритсар — Навин Дилли, 1980.

ΠΑΝΔΕΙΟΤΑ:

1. *Абдуразакова М.А. Эволюция секуляризма в Индии.* —Т., 2004.

2. *Универсалии восточных культур.* —М., 2001, — 431 с.

3. *Глушкова И.П. Из индийской корзины (этнография, религии, мифологии, истории).* —М. Вост.лит., 2003, — 296 с.

4. *Степанянец М.Т. Восточная философия. Вводный курс.* —М., 2005, — 511 с.

5. *Бонгард-Левин Г.М., Бухарин М.Д., Вигасин А.А. Индия и античный мир.* —М., 2002, — 359 с.

6. *Восток — Запад. Историко-литературный альманах. 2002. Под ред. акад. Мясникова.* —М.: Вост.лит., 2002.

7. *Горюнов В.И. Индия. Пособие по лингвокультурологии.* —М.: Муравей, 2002, — 128 с.

8. *Ультиферов О.Г. Индия. Карманная энциклопедия.* —М., Муравей, 2000, — 432 с.

9. *Россия — Индия. Владивосток, изд-во Дальн.ун-та, 2002, —248 с.*

10. *Ходжаева Т.А. Хиндистон халқлари адабиёти.* —Т., 2013.

11. Ходжаева Т.А. Ўзбек-ҳинд маданий, адабий алоқалари тарихидан. –Т., 2012.

Mundarija

Kirish.....	1
1-mavzu. IV-XIII asrlarda panjob adabiyoti.....	4
2-mavzu. Sikxizm va «Adi Grantx»	13
3-mavzu. XVII asrda panjob adabiyotidagi nasr va «qissa» janri taraqqiyoti	18
4-mavzu. XVIII asrda lirik va vatanparvarlik she'riyatining rivojlanishi	23
5-mavzu. Namdxari sektasi (mazhabi) (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarmi)	27
6-mavzu. Yangi davr romannavisligining shakllanishi (XIX asr- ning oxiri).....	31
7-mavzu. XX asrda zamonaviy panjob romannavisligi.....	35
8-mavzu. Panjobning bo'linishi. XX asr 40-yillaridagi adabiy jarayon.....	39
9-mavzu. XX asrning 40-80-yillari. Shoira, prozaik va publisist A. Pritamning ijodiy faoliyati	43
10-mavzu. Panjob adabiyotida qisqa hikoyalar janri va dramaning rivojlanishi	52
11-mavzu. XX asrning 40-yillari va kxushvant singx ijodi.....	56
12-mavzu. Panjob adabiyotida hindu-musulmonlar masalasi	60
13-mavzu. Kartar Singx Duggalning ijodi.....	66
14-mavzu. Panjob va O'zbekistonning adabiy aloqalari	72
Glossariy	79
Test savollari.....	80
Adabiyotlar	89

Qaydlar uchun

UDK: 891.4
BBK: 83.3 (0) 9
X – 69

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 4, 18.04.2014)

Texnik muharrir: Mirolim Zarifov

Kompyuter verstkasi: Dilfuza Orifjonova

50 nusxada bosildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Shahrizabz ko'chasi, 25 uy.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2014

